Bunda harbiy xizmatchilar o'zlari yoqtirgan kitoblarni xarid qilib, bo'sh vaqtlarida ushbu asarlarni mutolaa qilishyapti. Batalyon harbiy xizmatchilari o'sib



kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelayotir. Bu borada harbiy qismga yaqin hududda joylashgan oliy ta'lim muassasalari - Ajiniyoz nomidagi Nukus pedagogika instituti va Toshkent davlat agrar universitetining Nukus filiali bilan hamkorlik qilinmoqda. Mazkur ishlarni tashkil etish va o'tkazishda Yoshlar ittifoqining harbiy qismdagi boshlang'ich tashkiloti etakchisi, kapitan Omonkeldi Salimovning alohida xizmati borligini aytib o'tish o'rinlidir. U 30 iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan harbiy qism qo'mondonligi tomonidan rag'batlantirildi.

Sir emaski, karantin sababli huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash va xayriya yordamlarini ko'rsatish ishlari olib borilmoqda. Bu xayrli ishga batal'on xodimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, shahardagi «Ko'k o'zak» makon fuqarolar yig'inida yashovchi nogiron farzandi bo'lgan bir oilaga 1 million so'm pul, 12 ta kam ta'minlangan oilaga esa turli oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Shu o'rinda davlatimiz tomonidan harbiy sohaga qaratilgan e'tibor va yaratilayotgan imtiyozlarni ta'kidlab o'tish lozimdir. Jumladan, joriy yilda ikki nafar harbiy xizmatchiga uy olish uchun uzoq muddatli imtiyozli kredit mablag'i ajratildi[3].

Shuningdek, batal'onda uzoq yillar davomida xizmat qilib, safdoshlari va yoshlarga namuna bo'lib kelayotgan kichik serjant Faxriddin Nazarovning farzandiga oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun tavsiyanoma berildi. Tashrifimiz chog'ida bu erda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar hayoti bilan ham tanishib, ularning barcha qulayliklarga ega zamonaviy yotoqxonalarda yashayotganligiga guvoh bo'ldik. Sohaga qiziqishim tufayli muddatli harbiy xizmatni o'tashga qaror qildim, deydi Xo'jayli tumanilik Asadbek Yuldashev. Bu yerda harbiy xizmatchilarga yaratilgan sharoit va imkoniyatlarni ko'rib, sohaga bo'lgan qiziqishim yanada ortdi. Shu sababli, kelgusida harbiy qismda qolib, shartnoma asosida xizmatni davom ettirmoqchiman. Yaqinda harbiy qism hududida zamon talablari darajasidagi barcha qulayliklarga ega bo'lgan avtopark foydalanishga topshirildi, deydi biz bilan suhbatda batal'on komandirining ta'minot bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Jamshid Ibragimov.

Bu yilning har qanday mavsumida mavjud harbiy texnikalarni jangovar shay holatida saqlash va qulay sharoitda ta'mirlash ishlarini olib borishga imkon beradi.

Batal'on harbiy xizmatchilari yaratilgan imkoniyatlardan ruhlanib, kuch olib, foydalangan holda zimmalaridagi vazifalarni vijdonan bajarib, tinchlik-osoyishtaligimiz ishonchli qo'llarda ekanligini isbotlab kelishmoqda. Yana bir misol

tariqasida Denov tumanida joylashgan harbiy qism va ularga yaratilgan sharoitlarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Xususan, Davlat rahbarining topshirig'iga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi barcha harbiy qism va muassasalarining shtat turkumlari, shaxsiy tarkibi tubdan takomillashtirilmoqda. Mazkur harbiy qism ham 2018-yildan aralash harbiy qism tarkibida faoliyat yuritmoqda. Bu yerda muddatli harbiy xizmatchilar 21 yo'nalishda mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanadi. Qismda harbiy xizmatchilar uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Jumladan, bir vaqtning o'zida 500 nafardan ortiq harbiy xizmatchi amaliy va nazariy mashg'ulot o'tash imkoni mavjud 3 qavatli o'quv binosi, 6 ta yotoqxona, zamonaviy sport majmuasi, oshxona qurildi. Prezident ilgari surgan 5ta tashabbus asosida mazkur harbiy qismda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Tanishuv chog'ida shu haqda ma'lumot berildi. Xususan, o'quv binolaridagi kompyuter xonalari, elektron kutubxonada harbiylarning zamonaviy bilim va ilg'or ko'nikmalarni egallashi, o'z ustida muntazam ishlashi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

Mudofaa vazirligi va viloyat harbiy-ma'muriy sektori tomonidan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga shart-sharoit yaratish maqsadida joriy yilda qism hududidagi harbiy shaharchada 64 xonadonli 4 ta ko'p qavatli uy, nodavlat bitta maktabgacha ta'lim muassasasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari bugungi kunda nafaqat harbiy okruglar balki harbiy oilalarga ham qator imkoniyat eshiklari ochilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga asosan harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotalarining besh foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul kvotalari ajratilmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila-a'zolari salomatligini ta'minlash bo'yicha zarur sharoitlar yaratildi. Uy-joyga muhtoj oilalar belgilangan tartibda uy-joy bilan ta'minlanmoqda[4]. Turar joy bilan ta'minlanmagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga kiruvchi shaxslarga amaldagi sarf-xarajatlar doirasida (kommunal xizmatlar haqi bundan mustasno):

- Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha;
- Nukus shahrida va viloyatlar markazlarida — BHM 3 baravarigacha;
- boshqa shahar va tumanlar markazlari hamda aholi punktlarida
- BHMning 2 baravarigacha miqdorda to'lanadi.

Oila a'zolari uch kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda (harbiy xizmatchining o'zini hisoblamagan holda) ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foizga oshiriladi. Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan (rezervga, iste'foga bo'shatilgan)



kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar harbiy xizmatining umumiy davomiyligi 10 va undan ortiq kalendar yilga yetganda uy-joy qonunchiligida ko'zda tutilgan me'yor va tartiblarga muvofiq, o'zlari egallab turgan turar joylarini bepul xususiyashtirib olish huquqiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://iiv.uz/news/yaratilayotgan-imkoniyatlar-harbiy-xizmatchilarni-ruhlantirmoqda>
2. <https://zarnews.uz/uz/post/harbiylar-va-ularning-oila-azolariga-qanday-imtiyozlar-bor>
3. <https://kun.uz/uz/news/2019/10/17/prezident-denovdagi-harbiy-qismda-harbiy-xizmatchilarning-oquv-faoliyati-bilan-tanishdi>
4. <https://mudofaa.uz/2374/>



QO‘QON DAVLAT MUZEY - QO‘RIQXONASI TARKIBIDAGI UY- MUZEYLAR FAOLIYATI

Nilufar To‘ychiyeva

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 3-kurs muzey menejmenti va madaniy turizm yo‘nalishi talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega bo‘lmish Qo‘qon shahri va bu yerdagi uy-muzeylar faoliyati haqida so‘z boradi. Qo‘qonning qadimiy obidalari, muzeylari, ularning boy ekspozitsiyalari, nodir durdonalari haqida ilmiy va badiiy yondashuvga egaligi bilan ushbu maqola alohida diqqatga sazovordir. Maqola Qo‘qon tarixi va bugunini muzeylar misolida namoyon qilishga qaratilgan, ilmiy jihatdan aniq ma‘lumotlarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: milliy madaniy meros, madaniy markaz, milliy qadriyat, ma‘naviy madaniyat yodgorliklari, muzey madaniyati, ekspozitsiya, muzey qo‘riqxona, uy-muzey, tarixiy obida.

Annotation: This article talks about the ancient and rich history of the city of Kokand of Uzbekistan and the activities of the house-museums here. This article is particularly noteworthy for its scientific and artistic approach to Kokan’s ancient monuments, museums, their rich expositions, and rare masterpieces. The article aims to show the history and present of Kokan on the example of museums, based on scientifically accurate data.

Keywords: national cultural heritage, cultural center, national value, monuments of spiritual culture, museum culture, exposition, museum reserve, house-museum, historical monument.

Shiddat bilan rivojlanish yo‘lidan ketayotgan O‘zbekistonda ham muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash, takomillashtirish uchun hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlar o‘z samarasini berib kelmoqda.” Muzeylar to‘g‘risida “ gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarorini ijrosini rivojlantirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish



va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" ning ishlab chiqilganligi va joriy etilganligi shu soha rivojini ta'minlaydi. Ayniqsa o'tmishda yashab ijod qilgan, jahon madaniy merosiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularni unib- o'sib kelayotgan yosh avlodlarga yetqazish maqsadida ham uy-muzeylar faoliyatiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganing dastlabki yillaridayoq, markaziy muzeylari bilan birgalikda uy-muzeylar faoliyatini yaxshilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Uy-muzey bu- tarix va uni yaratuvchisi bilan kelajak avlodlarning birlashtiradigan joydir. Ko'pgina yetuk shoirlar, tarixiy shaxslar ularning nomini abadiylashtirish, ular qoldirgan ma'naviy, adabiy merosni o'rganish, ularni targ'ib etish, ularga yodgorliklar o'rnatish e'tiborga loyiqdir. Aynan shunday uy-muzeylardan bir nechtasi Farg'ona vodiysining so'lim shaharlaridan biri Qo'qon shahrida ham mavjud. Ulardan biri Haziniy uy –muzeyidir. Ziyovuddinxon Doniyolxon (katta hoji) o'g'li Haziniy to'ra Eshon Ho'qandiy 1867- yilda hozirgi Uchko'prik tumanining katta Kenagas qishlog'ida tug'ilgan. Haziniy o'zbek mumtoz she'riyatigi g'azal, muhammas , murabba janrlarida ijod qilgan. Uning ijodi haqida o'quvchilarga ma'lumot beruvchi asari bu " Bayozi Haziniy " kitobidir.

Bu kitob XX asr boshida Toshkentda toshbosma usulida bir necha marotaba nashr etilgan. Haziniy avlodlarining ta'kidlashicha , shoir barcha she'rlarini to'plab katta devon tuzgan. Bu devon uning vafotidan keyin o'g'li Amakixonda saqlangan. Keyinchalik uning uy tergov qilingan paytda devon ham olib ketilgan. Devon hozirgi kunga qadar topilgan emas.

Haziniy 1923-yilda vafot etadi. Qabri Uchko'prik tumanidagi qabristonga qo'yiladi. Shoirning adabiy merosini abadiylashtirish maqsadida dastlab, 1995-yilda katta Kenagas qishlog'ida muzey tashkil etilgan. Muzeyga shoirning oila a'zolari tomonidan taqdim etilgan 251 dona eksponat joy oladi. Bu eksponatlar asosan Haziniy hayotini yoritib beruvchi uy-ro'zg'or buyumlari, rangtasvir asarlari, shoir foydalangan mehnat qurollari, shuningdek shoir bilan bir davrda ijod qilgan zamondoshlari ijodida mansub bo'lgan asarlar, maqolalar asosida vaqtinchalik muzey ekspozitsiyasi yaratilgan. Mustaqillik yillarida Haziniy tavalludining 130, 149,150 yillik yubileylari keng nishonlandi. Biroq so'nggi paytlarda muzey qarovsiz qolganligi sababli nurab boshlab, kamchiliklari ko'zga ko'rina boshladi. Mahalliy hokimiyat vakillari hamda muzey hodimlari ko'p marotaba ko'tarib chiqdi.

Va nihoyat bu masala muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 12-13-iyun kunlari Farg'onaga tashrifi chog'ida ko'rib chiqilib, umumiy yig'ilish bayonining 121va 122 bo'limlariga Haziniy uy- muzeyi faoliyatini yana yo'lga



qo'yish, uning negizini shakllantirish, muzey ekspozitsiyasini boyitish hamda uni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha topshiriqlar berildi. Bu esa muzey moddiy texnik bazasini yaxshilash imkonini berdi. Jumladan, viloyat Madaniyat boshqarmasi tomonidan muzeyning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra muzey ekspozitsiyasini yanada boyitish va muzey hududida obodonlashtirish hamda ta'mirlash ishlari olib borildi. Ta'mirlash ishlariga 1milliard 200mln so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Bugungi kunga kelib muzey va maqbaradagi qurilish –montaj ishlari tugatilib, muzey kelayotgan tashrifchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Tuzilgan konsepsiyaga muvofiq, muzey ekspozitsiyasi 400 dan ziyod yangi eksponatlarga boyitildi. Shuningdek, Haziniyning XX asr boshlaridagi she'riy devonlari, uning shaxsiy buyumlari va o'zbek mumtoz adabiyotidagi boshqa nomoyondalarining kitoblari ham muzey ekspozitsiyasidan joy oldi. Ekspozitsiyada oynavand vitrinalar, panellar, fotosuratlar, moybo'yoq asarlar, ma'lumotlar matni, shoirning shaxsiy buyumlari, she'rlari, shoir haqida ma'lumotlar chop etilgan gazeta va jurnalar, Haziniy to'g'risidagi filmlar, audio va video uskunalaridan foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda muzey bukleti tayyorlangan bo'lib, unda shoirning ijodiy faoliyati yoritib bergan.

Yana bir Qo'qondagi mashhur uy-muzeylaridan biri Muqimiy uy-hujra muzeyidir. Bu muzey Qo'qon shahrining Muqimiy ko'chasida joylashgan Sohibzoda Hazrat madrasasida joylashgan. Tasavvufning yirik namoyondasi Miyon Fazl Ahad tomonidan barpo etilgan bu ma'rifat maskani Qo'qon adabiy muhitining ijod markazlaridan biri bo'lgan. Madrasa muassislarining ruhsati bilan, ayrim allomalar, shoirlar, ijodkorlar, shu hujralarda yashab ijod etishgan. Umumiy maydoni 740m² ni tashkil etadi. Undan 107m² maydoni ekspozitsiya zallarini tashkil etadi. Muzey namoyishgohi Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy davrini hikoya qiladi. Muqimiyning hayotiga to'xtaladigan bo'lsak, uning asl ismi Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li bo'lgan. U o'zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan biri hisoblanadi. Otasi Toshkentlik, onasi oyshabibi Xo'jandlik bo'lgan. Muqimiy boshlang'ich ta'limni mahallasidagi maktabda olgan. Keyinchalik Qo'qondagi Nodira qurgizgan "Mohlaroyim" madrasasida, so'ngra Buxorodagi madrasalardan birida o'qiydi. Shoir ko'proq hajviy janrda ijod qilgan. O'sha davrdagi xalqning og'ir ahvolini, xonlarning aholiga zulmini hajvga olgan. Bular jumlasiga "Tanobchilar", "Saylov", "Devonamen", "Ko'samen" kabi hajviy she'rlarini misol keltirish mumkin. Mutafakkirning ijodini o'rganish, asarlarini to'plash, nashr ettirish o'zi hayotligidayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov "Devoni Muqimiy" to'plamini (



1907) nashr ettirgan. Keyinroq 1910- 1912- yillarda “ Devoni Muqimi maa hajviyot “ nomli asarlar to‘plami chop etildi. Keyingi davrlarga kelib, G‘ofur G‘ulom, Oybek, va boshqalar Muqimiy ijodini batafsil o‘rganishgan. She‘rlaridan namunalar chet tillariga tarjima qilingan. Muqimiy taqdir taqozosi bilan o‘z uyini sotishga majbur bo‘ladi va o‘zi Sohibzoda Hazrat madrasaidan bir hujra olib, shu yerda yashaydi va ijod bilan shug‘ullanadi. To umrining oxirigacha shu hujrada yashaydi. Lekin madrasa o‘sha davr siyosiy tuzumi natijasida bir muddat faoliyati to‘xtab qoladi. Keyinchalik mustaqillikka erishganimizdan so‘ng madrasaning saqlanib qolgan qismi qayta tiklanib, hozirgi kunda muzey sifatida o‘z faoliyatini olib bormoqda. 1939-yilga kelib shoir yashagan madrasada Muqimiy –hujra muzeyi tashkil etiladi. Shoir yashagan hujrada umri davomida foydalangan buyumlari saqlanib qolgan. Hujraga kiraverish qismida xontaxta, atrofida ko‘rpachalar yozilgan. Tokchalarida o‘sha davr muhitini yoritib beruvchi choynak, piyolalar taxlab qo‘yilgan. Bundan tashqari yana qozonlar, shoir kiygan kiyimlar, kitoblar ham muzey ekspozitsiyasidan joy olgan. Muzey faoliyatini uzoq yillar mobaynida O‘zbekiston xalq shoiri va xattot Charxiy domla (Asqarali Hamroaliyev) boshqargan. O‘zbekistonning aksariyat shoir va yozuvchilari muzeyni har yili kelib ziyorat qilishadi. Bundan tashqari bu yerda Muqimiyning tavallud topgan kunlarida shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar, mushoiralar o‘tkazib turiladi.

Qo‘qonda yangi davr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, shoir va dramaturg, bastakor, rejissiyor, aktyor, ma‘rifatparvar pedagog jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy uy- muzeyi ham faoliyat yuritib keladi. Shoir 1889-yil 7-martda Qo‘qon shahrida tug‘iladi. Otasi ibn Yamin Xolboy o‘g‘li o‘z davrining mashhur tabiblaridan sanalgan. Shu tufayli o‘z nomiga Hakimzoda taxallusini qo‘shib ijod qilgan. Onasi Jahonbibi savodli ayol bo‘lgan. Hamza o‘z tarjimayi holida ikki tilni bilganligini aytib o‘tadi. 10 yoshida Qo‘qondagi madrasalardan biriga o‘qishga kiradi. Bu yillar davomida arab, turk, fors tillarini puxta o‘rganadi. 1908-yilda Namanganga boradi va u yerda o‘qishini davom ettiradi. Hamza yoshligidan boshlab she‘r mashq qila boshlaydi. Ko‘plab mumtoz adabiyotlarni mutolaa qiladi. Ular ta‘sirida ko‘plab she‘rlar yozadi. 1905-yilda yozgan she‘rlarini jamlab, 1914-yilda “ Devoni Nihoni “ nomli devon tuzadi. Bu devondan jami 214 ta she‘r joy olgan.

U 1909-1910-yillarda Toshkentga boradi. U yerda jadidchilik harakati yirik namoyondalari bo‘lgan, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma‘rifatparvarlar bilan tanishdi. Ular ta‘siri natijasida o‘zi ham jadidchilik harakatiga qo‘shiladi.



Hamza Hakimzoda Niyoziy 1929-yilda fojiali tarzda halok bo'ldi. Bugungi kunga kelib Hamza yashab o'tgan uy muzeylashtirilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar faoliyat yuritib kelmoqda. Uy 1959-yilda muzeyga aylantiriladi. Muzeyda Hamza va uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan buyumlar eksponat sifatida qo'yilgan. Muzey ochilgan paytda 293ta eksponat qo'yilgan bo'lsa, keyinchalik ular soni 300ta dan oshgan. Bevosita uy-muzeyning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, uy Hamzaning otasi tomonidan qurilgan. XIX asrda qurilgan bu uy kichkinagina hovli va 5-6 xona uylardan iborat. Hovliga kiraverish qismida shoirning toshdan yasalgan haykali o'rnatilgan. Chap tomonida esa Hamzaning otasi tomonidan ekilgan katta tut daraxti savlat to'kib turadi. Hovliga kirgandan so'ng kichkinagina uy bo'lib, bu mehmonxona vazifasini bajargan. Shoir yashagan davrlarda bu hovli anchagina gavjum bo'lgan. Sababi otasi ibn Yamin vodiya mashhur bo'lgan tabib hisoblangan. Undan so'ng Niyoziyning xonasiga ko'rishimiz mumkin. Hamza Qo'qonda yashagan yillarda aynan shu xonada yashab, ijod bilan shug'ullangan. Xonada shoir foydalangan buyumlar saqlab qolingani. Xonaga kirganizda chap tomonda Hamza va uning yaqinlari bilan tushgan rasmlari qo'yilgan. Bundan tashqari shoir o'z qo'li bilan yozilgan maktab uchun mo'ljallangan darsliklari, she'riy to'plamlari ham tokchalardan joy olgan. Xona o'rtasida o'zbek xonadoniga xos bo'lgan xontaxta qo'yilgan bo'lib, atrofida to'shaklar to'shab qo'yilgan. Xontaxta ustida o'sha davrda tikilgan so'zana yozilgan bo'lib, ustida shamdon hamda lavh qo'yib qo'yilgan. Hamza she'r yozishdan tashqari qo'shiq aytib, kuylar ham bastalab turgan. Shu sababli xonada o'zi chalgan dutor, rubob va burchak qismida pianino eksponat sifatida qo'yilgan. Bundan tashqari xonada katta soat ham bor. Deraza yonida esa shoirning onasi Jahonbibiga tegishli libos ham ilib qo'yilgan. Hovlining ichkari qismi ayollar uchun mo'ljallangan. Hamzaning onasi Jahonbibi ham tabiblikdan yaxshina xabardor bo'lib, bu uyda bemorlarni qabul qilib turgan. Keyinchalik oila a'zolarining vafotidan so'ng bu uyda Hamzaning opasi Achaxon istiqomat qilgan. Muzeyga hozirgi kunda juda ko'p joylardan mehmonlar ziyorat qilgani kelib turishadi. Shu bilan birgalikda atrof tumanlardan maktab o'quvchilari hamda talabalar yoshlar ham tashrif buyurishadi. Shunday ekan o'zbekning xalqparvar shoiri, millat erki uchun o'z jonidan ham kechgan Hamza Hakimzodaning yodi mangudir.

Muzey – bu bizning tariximiz, bu yerda qachonlardir inson tomonidan yaratilgan yoki kashf etilgan noyob asori- atiqalar saqlanadi va kelajak avlodga yetqazib beriladi. Muzey jamiyatni o'z tarixi va madaniyatiga nisbatan bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi ko'zgu hisoblanadi. Shu sababli muzeylarda zamon bilan, jamiyat bilan hamnafas bo'lgan holda yangicha uslubda ish yuritilishi zarur. Lekin hozirgi kunda



uy-muzeylar faoliyatida bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Uy-muzeylariga tashrif chog'ida u yerda muzeylar faoliyati hali ham to'liq yo'lga qo'yilmagani ko'zga tashlanadi. Muzeylardagi eksponatlar to'liq holda vitrinalarga qo'yilmasdan o'z holicha qo'yib qo'yilgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ushbu muzeylarning ish faoliyati yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar umuman qayt etilmagan. Faqatgina muzey faoliyatidan bir qancha fotolar joylashtirilgan xolos. Hattoki shu kungacha ekskursiya matni ham ishlab chiqilmagan. Bu muzeylar faoliyatini aholi o'rtasida ommalashtirish, bu yerga kelayotgan tashrifchilar sonini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq muzeylarga oid reklamalar, videoroliklar joylash lozim. Bundan tashqari muzey hodimlari tomonidan ta'lim muassasalarida targ'ibot tashviqot ishlari yo'lga qo'yilishi, ularga muzeylar haqida qiziqarli ma'lumotlar taqdim etishi kerak. Shundagina aholining uy-muzeylarga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Muzey- tarix ko'zgusi. Ularni asrab-avaylashimiz, ularni unib -o'sib kelayotgan yosh avlodga yaxshi saqlangan holda ularga yetqazishimiz zarur. Buning uchun ular faoliyatiga bee'tibor bo'lmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharq durdonalari. Haziniy tasadduq yo Rasululloh. Ahmad madaminov, filologiya fanlari nomzodi.
2. Ziyovuddin Haziniy uy-muzeyi ekspozitsiyasining konsepsiyasi matnidan foydalanildi.
3. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi filiali Haziniy uy-muzeyi mudirasi Vahobova Nargizaxon taqdim etgan ichki hujjatlar asosida yozilgan.
4. Feruza Hasanova Rahmonaliyevna. Ziyovuddin Haziniy merosi va uni muzeylashtirish masalalari maqolasi. 2022-yil.



BADIIY GIMNASTIKACHI QIZLARNI MAXSUS MASHQLAR ORQALI CHIDAMLILIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Munisa Bozorova G‘ayratovna

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada badiiy gimnastikachi qizlarni maxsus mashqlar orqali chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammolari, ularning yechimlari haqida mulohalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnik konstruksiyalash shakl, metodlar, amaliy ishlar.

Annotatsiya: The article contains comments on the problems of developing the physical qualities of endurance in rhythmic gymnasts through special exercises, as well as their solutions.

Keywords: technical design form, methods, practical works.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumatimiz tomonidan xotin-qizlar sportini ommalashtirish, bolalar sportini rivojlantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish bo‘yicha anchagina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, “Ommaviy sport tadbirlarini yanada kuchaytirish to‘g‘risida” gi Qarorlar va shu soxaga doir barcha konseptual hujjatlarning qabul qilinishi, ularning bosqichma-bosqich hayotga tadbiriq etilayotganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunida jismoniy tarbiya va sportga alohida urg‘u berilishi yuqorida qayd etilgan fikrlar ifodasidir.

Badiiy gimnastika sport turlari ichidagi eng serqirra va jozibali sport turidir. Bugungi kunda Respublikamizning barcha shahar, tumanlarida va qishloqlarida badiiy gimnastika sport mashg‘ulotlari tashkillashtirilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va maktablarda juda ko‘p qizlar badiiy gimnastika bilan shug‘ullanib kelishmoqda. Barchaga ma’lumki badiiy gimnastikada mashqlarining murakkabligi kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonida boshlang‘ich ta’limni mustahkam va samarali yo‘lga qo‘yish oldimizda turgan muammolardan biri hiboblanadi.

Badiiy gimnastika — sport turi, buyum (tasma, koptok, halqa, arg‘amchi) b-n va usiz turli nafis gimnastika va raqs mashqlarini musiqa ostida bajarish bo‘yicha



ayollar musobaqalari. Xalqaro sport musobaqalarining hozirgi zamon dasturida ko'p kurash (bitta majburiy va buyumlar bilan uchta erkin mashqlar) hamda buyum bilan guruh bo'lib erkin mashqlar bajarish bor. G'oliblar ko'p kurashda, alohida va guruh bo'lib bajariladigan mashqlarda aniqlanadi. Sportchilarning mashqlari 10 balli tartib bo'yicha baholanadi.

40 – yillardan badiiy gimnastika musobaqalari o'tkazila boshlandi. 50-yillar oxirida Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIJ) Badiiy gimnastikani sport turi sifatida tan oldi. 1963-yildan toq yillari jahon chempionatlari o'tkazilmoqda, 70 – yillar boshidan yirik xalqaro musobaqalar tashkil qilinmoqda. 1984 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan.

O'zbekiston Badiiy gimnastikachilari terma jamoasi 1991-yil Simferopolda o'tgan ittifoq chempionatida 1-o'rinni oldi. 1996-yil Osiyo chempionati (Xitoy)da, 1997-yil jahon chempionati (Germaniya)da ishtirok etdi (terma jamoa bosh ustozlari A. Malkina, xoreograf V. Vasilev, jamoa a'zolari I. Zamyatina, T. Budarina, F. Sharipova, L. Meshcheryakova).

Buyumlar bilan bajariladigan mashqlar badiiy gimnastika bo'yicha musobaqa dasturlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Oliy toifali gimnastikachilarning musobaqa kombinatsiyalari – musiqa uyg'unligida har xil buyumlar bilan bajariladigan harakatlarning turli-tuman gavda harakatlari bilan birikmasidan iboratdir. Gardish (obruv) – aylana shaklidagi, ichki diametri 80-90 cm., tqalinligi (ko'ndalang diametri) 0,8 – 1,5 cm., og'irligi kamida 300 gramm, yelimdan plastmasadan yasalgan buyum. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchi kichik yoshdagi sportchilar uchun proporsional kichraytirilgan hajmdagi buyumlarni ishlatish tavsiya etiladi. Halqaro musobaqalarga 1967-yilda dastlabki yog'och gardishlar kirib kelgan. Keyinroq ular yelim gardishdan foydalana boshlaganlar. Shundan buyon badiiy gimnastikada yelim gardishlar ishlatiladi. Yog'ochdan, alyumindan tayyorlangan gardishlardan foydalanish mumkin emas. Buyumlar bilan bajariladigan mashqlarga o'rgatish umumiy asoslarga muvofiq olib borilsada, o'ziga xos samarali qoidalarga ega bo'ladi:

1. Buyumlarni qimirlatishni emas, balki shu qimirlashlarni ta'minlaydigan xatti-harakatlarni o'rgatish lozim. Buning uchun imitatsion mashqlar nihoyatda zarurdir.
2. Buyumlar harakatlarning tuzilmaviy guruhlarini alohida o'rganish kerak. Alohida harakatlar o'zlashtirib olingach, ularni birkmalarga umumlashtirish mumkin.
3. Buyumlarni harakatlantirishga o'rgatish tana harakatlaridan alohida tarzda yoki eng zarurlarinigina qo'shgan holda olib borilishi kerak, biroq buyumlarni



harakatlantirish o'zlashtirib borilgani sari, ular tobora murakkablashib boradigan har xil tana harakatlari bilan qo'shilib ketadi.

4. Buyumlarni harakatlantirishga o'rgatish jarayonini shunday almashlab borish kerakki, bunda birinchidan, har-hil mushak guruhlari navbat bilan zo'riqishi, ikkinchidan, oldingi harakatlar keyingilariga tayyorgarlik vazifasini o'tashi lozim.

5. Buyumlarni harakatlantirishga o'rgatish jarayonida ularni ko'p bora, kamida 8 marta takrorlash kerak, bunda belgilangan vazifa boshlang'ich holatga qaytishni nazarda tutish kerak.

6. Buyumlarni harakatlantirish qay darajada o'zlashtirib borilayotganini —10 ta urinishdan nechitasi muvoffaqiyatli chiqdi? - degan tamoyil asosida nazorat qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashq-mashg'ulotlarida buyumlar bilan bajariladigan mashqlarni o'rgatish uchun —predmetli darslarlarni joriy etish lozim. Odatda, ular dars boshidan V-VI fragment sifatida o'tiladi, lekin ayrim hollarda o'quv mashq mashg'ulotlarini shular bilan boshlash ham maqsadga muvofiqdir. Predmetli darslar ikki xil bo'lishi mumkin:

- O'rgatuvchi;

- Takomillashtiruvchi. Garchi badiiy gimnastikada buyumlar turli shaklga, fakturaga, o'lchamga ega bo'lib, xar biri o'ziga xos yondashuvni talab qilsada, texnika nuqtai nazaridan harakat usuli sifatida, ularning o'rtasida umumiylik bor - ularning barchasi fizik jism va ularning harakatlari mexanikasining umumiy qonunlarga bo'ysunadi. Fizik jism sifatida buyumlar mexanika nuqtai nazaridan qo'yidagilarni bajara oladi:

- u yoki bu traektoriya buyicha oldinga harakatlanadi; - u yoki bu o'q atrofida aylanadi;

- aylanma-ilgarilovchi harakatlarni bajaradi

- ichki o'q atrofida aylangan holda, ma'lum bir traektoriya buyicha harakatlanish. Buyumlar bilan bajariladigan mashqlar paytida ular quyidagi holatlarda bo'lishi mumkin:

- bog'langan holatda — qo'lda, oyoqda, gavadada; - erkin holatda

- gimnastikachisiz. Bog'langan holatda buyum kuyidagilarni bajara oladi: - qo'l (oyoq, gava) harakati bilan birga harakatlanish — bunda gimnastikachining buyumga nisbatan xarakatlarini saqlash yoki balans deya belgilash kifoya kiladi; - qo'lda buyum fakat birgina usul bilan xarakatlanishi — aylanishi mumkin, ya'ni gimnastikachi aylanma xarakatlar sodir etishi mumkin; - buyum qo'l bilan birga yoki qo'lda xarakatlanishi, ya'ni o'z konfiguratsiyasiga ko'ra, shartli ravishda "figurali



xarakatlar" deya nomlanadigan anchayin turli-tuman xarakatlarni bajarishi mumkin. Buyum erkin xolatda kuyidagilarni bajara oladi: - uchishi, ya'ni tayanchsiz xolatda bo'lishi mumkin. Bu buyumning qo'yib yuborilishi, uloktirilishi, urilib qaytishi tufayli yuz beradi, shu boisdan ushbu xarakatlar guruxini "uloqtirma xarakatlar" deb nomlash tug'ri bo'lar edi; - buyum polda yoki gimnastikachining tanasida erkin sirpanishi mumkin. Tabiiyki, bunday harakatlar dumalashli harakatlar deb ataladi. Yukorida sanab o'tilganlardan tashqari, gimnastikachining o'zi ham buyumga nisbatan xarakatlanishi mumkin: uning ustidan sakrab o'tishi yoki buyumning o'ziga sakrashi, buyumga boshqacha usul bilan kirishi, ustida yumalashi, aylanishi va x.,k.z. Lekin bunda buyum yuqorida aytilgan usullardan biri bo'yicha harakatlanayotgan bo'ladi, shu boisdan ushbu harakatlarni alohida guruhga ajratish biomexanika nuqtai nazaridan ma'qul emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Ta'lim to'g'risida", Toshkent., 23.09.2020 yildagi O'QR-637-son
2. Juravina M.L., Menshikov N.K. Gimnastika. M.: —Akademiya 2008. S - 444.
3. Ivanova O.A. «Formula krasoty» M: «Sovetskiy sport» 2020. 48str
4. Yefimenko A.I. va boshqalar. Gimnastika darslarining samaradorligini oshirish usullari. T., O'zDJTI, 1995. 100 b.
5. Lisiskaya T.S. Metodika sostavleniya volnx uprajneniy v jenskoy sportivnoy gimnastike // T. Lisiskaya/ Gimnastika. Yejegodnik, M: Fizkultura i sport, 2000.



ORALIQ EKIN: TUPROQ UNUMDORLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIK

Sh.I. Mamatojiyev

Farg‘ona davlat universiteti “Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o‘simliklar” kafedrası dotsenti,

Sh. E. Yursunova

Farg‘ona davlat universiteti “Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o‘simliklar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tuproq unumdorligi deganda, o‘simlikning butun o‘suv davri davomida suv va oziq moddalar bilan yaxshi ta‘minlanib, gektar hisobiga yuqori hosil olinishi tushuniladi. Tuproq unumdorligi uning doimiy va xech o‘zgarmaydigan sifati emas. Inson yerga to‘g‘ri oqilona ta‘sir etganda tuproqning unumdorligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olish ta‘minlanadi. Unumdorlik sharoiti tuproqning tabiiy xususiyatiga bog‘liq bo‘libgina qolmasdan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish vositalari ta‘sirida, yani tuproqni madaniylashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Unumdorlik sharoiti yaxshi, yani madaniy tuproqlarda o‘simlikning tuproqdagi unumdor elementlar bilan ta‘minlanishi yaxshilanadi.

Kalit so‘zlar: Mehnat unumdorligi, tuproqning unumdorlik darajasi, dehqonchilik madaniyati, yuqori hosil, tuproq unumdorligining kamayishi, hosilning pasayishi, agronomik va melioratsiya tadbirlari, mikroorganizmlar miqdori, tuproq muhiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi, oraliq ekin, ismaloq (shpinat), aholini ish bilan ta‘minlash, daromadlarini oshirish.

Annotation: Soil fertility refers to the fact that a plant is well supplied with water and nutrients during the entire growing period, and a high yield per hectare is obtained. Soil fertility is not its constant and unchanging quality. When a person has a proper and reasonable influence on the earth, the fertility of the soil continuously increases, and continuous high yield of crops is ensured. Fertility conditions do not only depend on the natural characteristics of the soil, but are formed under the influence of agricultural production tools, that is, as a result of soil cultivation. Fertility conditions are good, that is, in cultivated soils, the supply of plants with fertile elements in the soil is improved.

Keywords: Labor productivity, soil fertility level, farming culture, high yield, soil fertility reduction, yield reduction, agronomic and reclamation measures, amount of microorganisms, soil environment, granularity, hard or soft, structure, thickness of



arable layer, intercropping, spinach, providing employment to the population, increasing their income.

Ekinlardan barqaror yuqori hosil olish va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish bevosita tuproqning unumdorlik darajasiga hamda dehqonchilik madaniyatiga bogʻliq. Tuproq unumdorligi deganda, oʻsimlikning butun oʻsuv davri davomida suv va oziq moddalar bilan yaxshi taʼminlanib, gektar hisobiga yuqori hosil olinishi tushuniladi. Tuproq unumdorligi uning doimiy va xech oʻzgarmaydigan sifati emas. Inson yerga toʻgʻri oqilona taʼsir etganda tuproqning unumdorligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olish taʼminlanadi. Aksincha, yerga notoʻgʻri ishlov berish agrotexnika tadbirlarini pala-partish amalga oshirish esa tuproq unumdorligining kamayishiga va hosilning pasayishiga sabab boʻladi.

Dehqonchilikda ilmiy asoslangan agronomik va melioratsiya tadbirlari kompleksi qoʻllanilganda tuproq unumdorligi sistematik oshishi natijasida oʻsimliklar zarur oziq moddalar bilan taʼminlanib, yuqori hosil olishga imkon yaratiladi. Unumdorlik sharoiti tuproqning tabiiy xususiyatiga bogʻliq boʻlibgina qolmasdan, qishloq xoʻjalik ishlab chiqarish vositalari taʼsirida, yani tuproqni madaniylashtirish natijasida hosil boʻladi. Unumdorlik sharoiti yaxshi, yani madaniy tuproqlarda oʻsimlikning tuproqdagi unumdor elementlar bilan taʼminlanishi yaxshilanadi. Tuproqning unumdorlik darajasi undagi chirindi va mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi va boshqa koʻrsatkichlarga qarab aniqlanadi. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy sifat belgisi deb taʼriflangan chirindi yoki gumus miqdorini koʻpaytirishda va mikroorganizmlar faoliyatini yaxshilashda oraliq ekinlarning ham ahamiyati katta. Oraliq ekin yaʼni birinchi asosiy ekilgan ekinning hosili yigʻishtirib olingandan soʻng ikkinchi asosiy ekinni ekkunga qadar oʻstiriladigan ekinlarga aytiladi.

Yerlardan unumli foydalanish, avgust oyining oxiri, sentabr oyining boshlarida oraliq ekin sifatida toʻla qonli hosil beraoladigan ekinlar ekishni izchil yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bunday ishlarni amalga oshirish yerga muhim profilaktik shifobaxshlik kasb etishi, tuproqni organik modda va koʻproq azot bilan boyitishi bilan birga, birinchi navbatda bozorlarimizni qish oylarida ham vitamanga boy boʻlgan sabzavotlar va koʻkatlar bilan toʻldirish, aholini muntazam ish bilan taʼminlash hamda ularni daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.



Bir necha yillardan buyon Uchko‘prik tumanida faoliyat olib borayotgan, A.Payg‘ambarov xabarligidagi Akbarali Azizov nomli fermer xo‘jaligida olib borilayotgan ishlar yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlarning hosilasidir. 2021-yil avgust-sentabr oylarida fermer xo‘jaligining boshqali dondan bo‘shagan, 2022-yilda g‘o‘za ekish rejalashtirilgan maydonlardan o‘n gektari fermer xo‘jaligi a‘zolarining moddiy manfaatdorliklarini oshirish va kuzgi-qishgi davrda ish bilan ta‘minlash maqsadida taqsimlab berildi. Bu maydonlarga ismaloq (shpinat) ekilib parvarish qilindi va ko‘katlar yetishtirilib respublikamizning turli shaharlari bozorlariga yetkazib berildi. Mahsulotlarni yetishtirish bilan bog‘liq xarajatlar (yerni haydash, tekislash, egat-pol olish, ekish, urug‘lik, yoqilgi, mineral o‘g‘it, yig‘ishtirib olish) har bir gektar hisobiga 5120 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, olingan daromad 30100 ming so‘mni yoki har bir gektar hisobiga 24980 ming so‘mdan sof daromad olindi. 2021 yilda, birgina tumandagi Qummozor qishlog‘ining o‘zida faoliyat olib borayotgan fermer xo‘jaliklarining 20 gektar maydonida bu ekin ekib o‘stirildi. Yuqoridagi amalga oshirilayotgan ishlar aholini ish bilan ta‘minlash, daromadlarini oshirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu oraliq ekin qoldiqlari va ildizi tuproq unumdorligini oshirishda muxim omil bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Methods of conducting field experiments. - Methodological manual UzPITI. - Tashkent, 2007. 127 p.
2. Methodological guidelines for testing defoliant. - Tashkent: State Chemical Commission, 2004. - 12 p.
3. Dospheov B.A. Methods of field experience. - Moscow: Kolos, 1985



VOLEYBOLGA XOS JISMONIY SIFATLARNI TURDOSH HARAkatLI O'YINLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Guljamol Xo'jayeva Norxamidovna

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari
nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: maqolada voleybolga xos jismoniy sifatlarni turdosh harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish usullari tahlil etilgan, shuningdek jismoniy tarbiya darslarida voleybol o'yini orqali dars samaradorligini oshirishga doir xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Voleybol o'yini, to'pni uzatish, to'pni qabul qilish, zarb, to'r, dars samaradorligi, harakat erkinligi

Annotation: the article analyzes the methods of developing volleyball-specific physical qualities with the help of similar movement games, as well as gives conclusions on increasing the effectiveness of the lesson through the game of volleyball in physical education classes.

Keywords: Volleyball game, passing the ball, receiving the ball, shot, net, lesson efficiency, freedom of movement.

Hozirgi paytda jahonda yirik miqiyosda aholini sport-sog'lomlashtirish harakatini yaratishga bo'lgan ehtiyoj shakllanmoqda. Turli xil davlar prezidentlarining maxsus dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, uning isboti bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishni, aholining, ayniqsa, bolalar va o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishning faol shakllarining ta'minlovchi amaliy tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelindi. O'zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylandi.

Voleybol o'yinini hujum va himoya texnikasidan iborat. Hujumda, himoyada ham shay turish va siljish, to'pni uzatish va qabul qilib olish, to'pni bir yoki ikki qullab olish va qaytarish, to'pning yo'lini to'sish kabilar mavjud. Voleybol o'yini davomida o'yinchi maydon bo'ylab harakatda bo'ladi va siljib turadi. Siljishdan maqsad to'pni qabul qilib olish va boshqa usullarni amalga oshirish uchun ma'qul joy tanlashdir. O'yinchining sport holatida turishdagi eng muhim nuqta uchun siljishga

doim tayyor bo'lib turishidir. O'yinchi turish holatida oyoqlari bukilgan, oyoqlar elka kengligida ochilgan, bir oyoq ozgina oldinga, tana ham bir oz oldinga egilgan bo'ladi. Qo'llar tirsakdan egilgan va kaftlar bir-biriga qaragan bo'lishi kerak. Bu holat doimiy emas, albatta u o'yining borishiga qarab o'zgarib turadi. Agar to'rdan qaytgan to'pni olish lozim bo'lsa, o'yinchi ancha egiladi. Voleybolchi maydon bo'ylab oyoqlarini chalishtirib (chapga, o'ngga, oldinga, orqaga), ikki qadam (oldinga va orqaga) sakrab (yugurish va odimlash) yugurib (maydon bo'ylab tez siljish va yo'nalishini birdan o'zgartirib) yurishi mumkin. Oxirgi yugurish qadami uzun bo'ladi, negaki undan keyin to'xtash, sakrash, yo'nalishini o'zgartirish mumkin.

To'pni uzatish. Bu – o'yinni davom ettirish uchun sherigiga yoki raqib tomoniga uzatilgan to'pni o'zaro o'tkazish usuli bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, to'pni oldinga, yuqoriga va orqaga o'tkazish usullari ham mavjud. To'pning uchish trayektoriyasiga qarab butun maydon bo'ylab uzun qo'lni maydonga qisqa va o'z maydoniga o'ta qisqa uzatishlar ham qo'llaniladi. To'pni uzatish balandligiga qarab past (to'rdan 1 mert yuqori), o'rta (2 metrgacha), va undan baland (2 metrdan ortiq), masofasiga ko'ra yaqin (0,5 metrdan kam) va uzoqroq (0,5 metrdan ortiqroq) kabilarga bo'linadi. To'pni ikki qo'llab yuqoridan uzatish. Bu juda keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bunda ishonch va aniqlik bilan harakatlanish uning muhim tomonidir. O'yinchi dastlabki holatda oyoqlarini tizzadan bukib qo'llarini oldinga chiqarib kaftlar biroz ichkariga qaratilgan, panchalar tarang tutiladi.

To'pni qabul qilish. Bu – raqiblar hujumidan keyin to'pni o'yinda saqlab qolishda himoya usulini hisoblanadi. Ikki qo'llab to'pni pastdan qabul qilib olish zamonaviy voleybolda asosiy usuldir. U hujum paytida kuchli zarb paytidagi asosiy usuldir. Bu usulda gavda yuqoriga yoki biroz egilgan qo'llar oldinga pastga tushiriladi, bir kaft ikkinchisiga qo'yilgan bo'ladi. To'pni bilaklarda qabul qilib olinadi. Bilaklarda bo'ladigan zarbni yumshatish maqsadida qo'llar tirsakdan yaqinlashtirilib ko'tariladi va bukiladi, oyoqlar to'g'irlanadi va gavda ko'tariladi. To'pni ikki qo'llab yuqoridan qabul qilish. Bu usul bilan to'p uncha kuchli kelayotgan paytlarda, shuningdeq boshqa usulni qo'llash qulay bo'lganda qabul qilinadi. To'pni bir qo'llab pastdan qabul qilish. Bu usulning aniqligi etarli bo'lganligi uchun ham qo'llaniladi, ammo to'p o'yindan uzoqda bo'lganda va boshqa usul qo'llashning imkoni bo'lganda va boshqa usul qo'llanilishi foydalidir. **To'pni oshirish.** To'pni o'yinga kiritish oshirish deyiladi. Zarb uchun qulay bo'lgan qat'iy holatda turish yuqoriga oshirish hamda qo'lni siltab to'pni urish urgandan keyingi o'yinchining harakatlari oshirishning asosiy xususiyatlaridir. Oshirishda to'pni musht



yoki kaft bilan urish mumkin. Bunda to'p yuqoriga bir qo'l bilan otiladi. Yuqoriga otishning yo'nalishi va balandligi bajarish usuliga bog'liq. To'pni bosh ustidan urib yuborilsa yuqoridan pastdan urilsa pastdan oshirish, yon bilan tursa yonlamasiga to'p oshirish deyiladi. Shunga muvofiq to'rt xil oshirish usullari mavjud: pastdan to'g'riga, pastdan yon bilan, yuqoridan to'g'riga, yuqoridan yon tomoni bilan. To'pni pastdan to'g'riga oshirish. O'yin boshlovchi uchun bu asosiy usul bo'lib hisoblanadi. U to'rt tomonga qarab turib bajaradi. O'yinchi tirsakdan bukilgan qo'l bilan tupni ushlab turadi. Boshqa qo'l to'pga zarb berish uchun uni orqaga uzatiladi. Shundan so'ng panjalar biroz bukilib, to'p yuqoriga 20-30 sm balandlikka otiladi va zarb beriladi.

To'g'ridan hujumkor zarbi. To'rnining yuqori qismidagi to'pni bir qo'llab raqib tomonga urishdan iborat hujum, bu hujumkor zarb deyiladi. Bu hujumkor zarb o'rnidan sakrab yoki yugurib kelib bajariladi. Hujumchi bu zarbni bir ikki va uch qadam bosib kelib bajaradi. O'yinchi uchib kelayotgan to'pni qo'llarni oldinga yuqoriga ko'taradi, uruvchi qo'l zarb uchun tayyorlanadi. Tana bir oz orqaga egiladi. Panjalar musht qilib turiladi va erga qarab bukiladi, keyin zarb beriladi, shundan so'ng oyoq pastga tushgan to'p bilan birga tushadi. To'pni qancha kuchli urish zarur bo'lsa, kaft shuncha bo'shroq bo'lsa, kaft shuncha tarang qilinadi.

Jismoniy tarbiya va sport turlariga oid harakat malakalariga o'rgatishda, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda, hamda sport mashg'ulotlariga bolalarni, mahalliy millatga mansub bo'lgan qizlarni jalb qilish jarayonida qo'llaniladigan tanlov va saralov mashqlarini qayta ko'rib chiqish bilan bir qatorda, bu jarayonni tashkil qilishda har bir sport turiga mos xalq o'yinlaridan foydalanish tadbirini hal etilishi o'ta zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Chunki dars mashg'ulot va tanlov imtihonlar jarayonida qo'llaniladigan nazorat mashqlari qat'iy me'yorlangan chegaralangan bo'lib, bir xil standart sharoitda bajariladi. Bunday tartibda va vaziyatda o'tkaziladigan tanlov, dars va mashg'ulot mashqlari shug'ullanuvchilarni harakat erkinligini chegaralaydi va ma'lum darajada, malakalarni turli usulda ijro etish doirasini toraytiradi. Xalq o'yinlarida qo'llaniladigan harakat malakalari esa o'z mazmuniy maqsadiga qarab shug'ullanuvchiga harakat usulini erkin va mustaqil ravishda tanlashda katta imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda jismoniy tarbiya darslarida voleybol o'yini orqali dars samaradorligini oshirishda quydagilarga e'tiborni qaratish lozim.

- ♣ Ilmiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini belgilanishi;
- ♣ Jismoniy mashqlarning ketma-ketligi;



♣ Vazifalar, dastur, reja va dars o'tkazish sharoitiga mos jismoniy mashqlarlarni tanlash;

♣ Darsni mazmuni, vazifalari, o'quvchilarning tayyorgarligiga muvofiq ta'lim va tarbiya uslublarining saralanishi, dars vaqtining to'g'ri taqsimlanishi, shunday qilib jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda nafaqat voleybol o'yinlarini balki barcha sport turining o'rni muhimdir.

Darsni yuqori saviyada o'tkazish, dars davomida o'quvchilar faolligini ta'minlash, beriladigan vazifa, ko'rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondashishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg'otish o'quvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsiy va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Voleybol nazariyasi va uslubiyoti" L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov. Toshkent 2012y.
2. A.A.Pulatov, A.A.Ummatov, F.A.Pulatov "Voleybol" Toshkent 2017 y.
3. Л.Р.Айрапетянс «Волейбол» учебник для высших учебных заведений. Ташкент 2006 г
4. A.A.Pulatov, Sh.X.Isroilov. "Voleybol nazariyasi va uslubiyoti" o'quvqo'llanma. Toshkent 2007 y



O'ZBEK TILIDA BAXT KONSEPTINI IFODALOVCHI VERBAL BIRLIKLAR

Gullola Sobirova Qutbiddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbari: f.f.d. F.Usmonov

Annotatsiya: ushbu maqolada verbal assosiasiyalar tasnifida yakdil fikr yo'qligi, shunga qaramay, psixolingvistik tadqiqotlarda asosiy hollarda stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi munosabat turi asosidagi tasnif ma'qullanishi, bunday tasnifda assotsiatsiyalarning farqlanuvchi turlari haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: verbal muloqot, assosiatsiya, Miller, sintagmatik, paradigmik, assonans, umumlashtirish, tasnif.

Annotatsiya: this article highlights the lack of consensus in the classification of verbal associations, despite the fact that in psycholinguistic research, in the main cases, the classification based on the type of relationship between the stimulus word and the associate is approved, and the opinions about the different types of associations in this classification are highlighted.

Keywords: verbal communication, association, Miller, syntagmatic, paradigmatic, assonance, generalization, classification.

Verbal assosiatsiyalar tahlilida ularning tasnifi muammosi muhim o'rin tutadi. Shu kunga qadar tilshunoslikda assosiatsiyalar tasnifi masalasida turli qarashlar shakllangan. Ayrim tilshunoslar assosiatsiyalarni stimul so'z va assosiat o'rtasidagi munosabat turi (sintagmatik yoki paradigmik munosabat) asosida tasniflashsa, ba'zilar stimul so'z va assosiat o'rtasidagi aloqa mundariyasi yoki assosiatlar asosidagi tasnifni ma'qul ko'rishadi.

G'arb tilshunosligida J.Miller tomonidan tavsiya etilgan tasnif keyinchalik fanda verbal assosiatsiyalarni o'rganishda muhim o'rin tutdi. J.Miller tomonidan tavsiya etilgan verbal assosiatsiyalar tasnifida assosiativ juftliklar o'rtasida quyidagi munosabatlar aks etishi ko'rsatilgan: kontrast, o'xshashlik, tobelik, birgalikdagi tobelilik, umumlashtirish, assonans, butun-qism, to'ldirish, egosentrizm, bir asosli so'zlar, predikasiya. Ko'rinadiki, J.Millerning ushbu tasnifida asosiy e'tibor stimul so'z javob reaksiyasi munosabatiga qaratilgan, tasnifda stimul so'zning ma'no

komponentlari va uning javob reaksiyalariga munosabati masalasi e'tiborga olinmagan.

Verbal assosiatsiyalarning N.V.Krushevskiy tomonidan tavsiya etilgan tasnifini rus tilshunosligidagi dastlabki urinishlardan biri sifatida baholash mumkin. U assosiatsiyalarning hosil bo'lishi tomoniga e'tiborini qaratdi va shu asosda ularni quyidagi turlarga ajratdi: 1) bevosita hosil bo'luvchi assosiatsiyalar; 2) bilvosita hosil bo'luvchi assosiatsiyalar.

N.V.Krushevskiy bevosita hosil bo'luvchi assosiatsiyalarning ikki turini farqlaydi: a) o'xshashlikka asoslangan assosiatsiyalar; b) yondoshlikka asoslangan assosiatsiyalar.

Olimning qayd etishicha, "har qanday so'z o'xshashlik belgisiga ko'ra boshqa so'zlar bilan bog'lik bo'ladi, bu N.V.Krushevskiy bevosita hosil bo'luvchi assosiatsiyalarning ikki turini farqlaydi: a) o'xshashlikka asoslangan assosiatsiyalar; b) yondoshlikka asoslangan assosiatsiyalar.

Olimning qayd etishicha, "har qanday so'z o'xshashlik belgisiga ko'ra boshqa so'zlar bilan bog'lik bo'ladi, bu o'xshashlik nafaqat tashki, tovush tomondan yoki struktur, morfologik jihatdan, balki ichki, semasiologik jihatga ko'ra hamdir, har qanday so'z psixologik qonuniyatlar natijasida qalbimizda o'ziga o'xshash bo'lgan boshqa so'zlarni qo'zg'atishga va ular bilan birgalikda qo'zg'alishga qodir bo'ladi. So'zlarning bir-birini yodga solishining yana bir turi yondoshlikka ko'ra assosiatsiya qonuniyatiga asoslanadi: bunda muayyan so'zni ko'pincha boshqa bir so'z bilan birga ishlatishga odat qilinadi. N.V.Krushevskiy bilvosita hosil bo'luvchi assosiatsiyalarni narsalar hakidagi tasavvurlarning o'zaro aloqasi orqali reallashadi deb hisoblaydi. U bu haqda quyidagilarni yozadi: «...So'z narsa belgisidir. Narsa va uni ifoda etuvchi so'z hakidagi tasavvur assosiatsiya qonuni asosida bir-biri bilan ajralmas juftlikka birlashadi. Bunday assosiatsiya yondoshlikka ko'radir. Har bir tilda ko'p bo'lmagan taqlidiy so'zlar guruhigina o'ziga muvofiq bo'lgan narsalar bilan o'xshashlik asosida assosiativ bog'lanadi. Agar narsa haqidagi tasavvur uni ifoda etuvchi so'z haqidagi tasavvur bilan ajralmas bo'lsa, bundan qanday xulosa kelib chiqadi? Demak, so'zlar ham ular ifoda etgan narsalar kabi o'sha guruhlariga tasniflanishi kerak» Verbal assosiatsiyalarni rus psixologi, neyropsixologiya asoschisi A.R.Luriya tomonidan ilgari surilgan tasnifi ham muhim ahamiyatga ega. Uning tasnifida bolalarga xos verbal assosiatsiyalarning turlari aks etgan. A.R.Luriya bolalarda hosil bo'lgan assosiativ reaksiyalarning quyidagi turlarini ajratgan:

1) stimul so'zga mos bo'lmagan javob reaksiyalari, bunda stimul so'z va javob reaksiyalari o'rtasida semantik aloqa kuzatilmaydi;

2) stimul soʻzga mos javob reaksiyalari, bunda stimul soʻz va javob reaksiyalari oʻrtasida semantik aloqa mavjud boʻladi;

3) asl assosiativ reaksiyalar, bunda stimul soʻz va u orqali hosil boʻlgan obraz oʻrtasida maʼnoviy aloqa aks etadi.

Y.I.Goroshkoning qayd etishicha, A.R.Luriya tomonidan tavsiya etilgan ushbu tasnifning muhim jihati shundaki, uning asosida stimul soʻz - javob reaksiyasi - alotsa assosiativ tizimini oʻrganish yotadi, bu tasnif tamoyillari asosida oʻtgan asrning 90-yillarida ontogenetik materiallarni hamda kattalarda oʻtkazilgan erkin assosiativ tajriba materiallarini oʻrganish jarayonida qator verbal assosiativlar tasnifi yuzaga keldi.

A.A.Martinovich grammatik shakli bir-biriga muvofiq kelmaydigan bu turdagi assosiativlarning uchinchi tur assosiativlar sifatida ajratilishini maʼqullamaydi. U A.A.Leontyev tomonidan ajratilgan grammatik shakli bir- biriga nomutanosib assosiativlar haqida fikr yuritarkan, tasnifda paradigmatic va sintagmatic javob reaksiyalarining farqlanishida ingliz tili assosiativ meʼyorlaridan kelib chiqilgani, unda faqat grammatik sinflarga ajratish gʻoyasiga asoslanganligi, A.A.Leontyev grammatik jihatdan toʻgʻri soʻz birikmalarini tuzish zarurligi haqida fikr yuritmagani eslatadi. Shu sababli zamyay -красный, zamyay – красное assosiativ juftliklarini ham sintagmatic reaksiyalar hisoblash lozimligi, agar toʻgʻri soʻz birikmalarining hosil boʻlish-boʻlmashligi formal mezonidan kelib chiqilsa, красный -zamyay assosiativ juftligi - tematik, красное - zamyay juftligi - sintagmatic, билет - va kino juftligi sintagmatic (билет va kino), билет - kino juftligi esa paradigmatic (bir xil soʻz turkumi) reaksiyalar hisoblanishini, bunday holatda aynan uchinchi tip javob reaksiyalarining eng noaniq tip ekanini qayt etadi.

Maʼlum boʻladiki, tilshunoslar verbal assosiativlar tasnifida yakdil fikrda emaslar. Shunga qaramay, psixolingvistik tadqiqotlarda asosiy hollarda stimul soʻz va assosiat oʻrtasidagi munosabat turi asosidagi tasnif maʼqullanadi. Bunday tasnifda assosiativlarning koʻpincha quyidagi turlari farqlanadi:

1. Paradigmatic assosiativlar. Bunday assosiativlar stimul soʻzning paradigmatic qatorlari asosida aniqlanadi. Paradigma aʼzolari koʻpincha sinonimik, antonimik, gipogiperonimik munosabat asosida belgilanadi.

2. Sintagmatic assosiativlar. Bu turdagi assosiativlar stimul soʻz va assosiat oʻrtasidagi sintagmatic munosabat asosida belgilanadi.

3. Tematik assosiativlar. Bunday assosiativlar stimul soʻz anglatgan predmetlik tushunchasi asosida belgilanadi.



4. Derivation assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul soʻz negizida hosil qilingan assotsiatlar asosida belgilanadi.

5. Fonetik assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul soʻz va assotsiatlarning fonetik jihatdan yaqinligi asosida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие. – М.: Academia, 2001-208с.

2. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yoʻllarini izlab...// Oʻzbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.-B. 3-16.

3. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996- с.222.

4. Воробев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.

5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.. – М: Russkiy yazik, 1981.



BADMINTON O'YINI TEXNIKASI

Shoxsanam Muratova Boltayevna

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda badminton sport turining rivojlanish tarixi, badminton sportchining jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammolari, shuningdek, badmintonchilar mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayrgarligini oshirish, rivojlantirish muammolari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: badminton, jismoniy tayyorgarlik, sport ixtisosligi, texnik-taktik tayyorgarlik, tayyorlov mashqlari, taktik tayyorgarlik, tayyorlov mashqlarning metodikasi.

Annotation: The article discusses the history of the development of badminton sport in Uzbekistan, the problems of developing the physical qualities of an athlete in badminton, as well as the problems of improving and developing the technical and tactical skills of badminton players during training.

Keywords: badminton, physical training, sports specialty, technical-tactical training, training exercises, tactical training, methodology of training exercises.

Badminton o'yini ko'ngilochar mashg'ulot sifatida inson turmush tarziga kirib kelgan. Endilikda u sport turi sifatida shakllanib ham ulgurdi. Uning salomatlikka foydasi biqiyos. U bilan shug'ullangan bola chaqqonlikka, epchillikka, barcha harakatni zudlik bilan anglab olib shunga yarasha javob qilishga o'rganadi.

Mukammal harakatlarni talab qiluvchi ushbu mashg'ulot, hushyorlikka vat yezda javob qaytarishga undaydi. Bu o'z navbatida diqqatni jamlashga, epchillikka o'rgatadi, stressdan qutulishga, yordamberadi. Badminton o'yini yoshlarimizda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu tezlik, yepchillik, moslashuvchanlik, ko'z, aniqlik, yaxshi reaksiya va yo'nalish kabi qimmatli fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinda ishtirok yetish sizni dadil va qat'iyatli harakat qilishga o'rgatadi, Iroda, tashabbus, chidamlilikni tarbiyalaydi. Ikkitadan ikkita o'yin do'stlik tuyg'usini, sherik bilan yaqin aloqani va boy va aqlli taktik kombinatsiyalarni yaratish uchun ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi.

Badminton kichik to'rtburchaklar platformada birma-bir (yakkalik) yoki ikkitadan ikkitadan (juftlik yoki aralash o'yinlar) o'ynaladi. O'yinchilar navbat bilan to'pni patlar huni shaklida raketkalar bilan urishdi. Tukli to'p (keling, uni



"shuttlecock" deb ataymiz) har bir zarbadan keyin past to'r ustidan uchib o'tadi va yostiqqa tegmasdan yana raketka bilan uriladi va yana to'r orqali uchadi. Badminton o'ynash texnikasi oddiy: to'rtta asosiy zarbani o'zlashtiring — o'ng, chap, yuqori va pastki, va siz o'ynashingiz mumkin bo'ladi. Inventarizatsiya ham oddiy. Agar ikkita yoki to'rtta (juft o'yin uchun) raketkalar va bitta 1 ta shuttlecock bo'lsa, allaqachon o'yinni tashkil qilish mumkin. O'yin maydonchasiga qo'yiladigan talablar ham juda kamtar. Badminton uchun oddiy tuproqli kichik tekis uchastka, har qanday sport maydonchasi, maysazor va shunchaki hovli juda mos keladi. Siz butun yil davomida o'ynashingiz mumkin: yozda ochiq havoda, qishda sport zalida yoki ochiq havoda. Sinflar uchun maxsus joylar yo'qligi sababli havaskorlar ko'pincha qoidalarsiz o'ynashadi. Ishdan keyin, tushlik tanaffusida, lagerda, kottejda, plyajda — ular hamma joyda katta ishtiyoq bilan o'ynashadi.

Vairlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 143-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida badminton sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqish, Respublikada badminton sport turini yanada keng rivojlantirish, aholi keng qatlamlarini, xususan, yoshlarni badminton sport turi bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, yuqori malakali trener kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, mavjud moddiy-texnika bazadan samarali foydalanish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida badminton sport turi bilan shug'ullanuvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish, ushbu sport turining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik sub'ektlarining faoliyatini rivojlantirish, badminton sport turi bo'yicha kadrlar salohiyatini yanada oshirish, yuqori malakali, chuqur kasbiy bilimga va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan malakali trenerlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash muammolarini atroflicha hal etish lozim.

O'yinda raqib urgan koptokchani yerga tushirmay unga qaytarish muhimdir. 15 hol (ayollar va bolalar 11 hol) gacha sanaladi. 3 yoki 5 qur o'ynaladi. Hol 0 va juft bo'lganda koptokcha o'ngdan, toq bo'lganda chapdan uriladi. Juftli o'yinlarda o'ng tomondan boshlanib, har xoldan keyin o'yinchilar sherigi bilan o'rin almashtiradi.

Badminton qadimgi Malayyada vujudga kelgan, keyinchalik Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqalgan. 19-asrning 70- yillarida Angliyada rasm bo'lib, o'yin qoidalari ishlab chiqilgach Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham yoyildi. Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF) 1934-yil tashkil topdi, unga 80 dan ortiq mamlakat a'zo (1991). 1977-yildan jahon birinchiligi o'tkazib kelinadi. 1992-yildan Olimpiya



o'yinlari dasturidan joy oldi. Erkaklar uchun Tomas kubogi (1947-yildan), ayollar uchun Uber kubogi (1955-yildan) eng yirik xalqaro musobaqalar, Angliyaning ochiq birinchiligi (Uimblon turniri) esa norasmiy jahon chempionati hisoblanadi.

Badminton O'zbekistonda 50-yillardan rivojlana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining boshlig'ining tashabbusi bilan badminton sport turi Akademiya harbiy xizmatchilari orasida keng ommalashdi. Jumladan tashkil etiladigan sport musobaqalari dasturida badminton sport turi ham katta qiziqish bilan o'ynalmoqda.

Badmintonchilar mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayrgarligini oshirish Badminton sport turining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badminton sport turida *umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT)* jarayoni organlarimiz, tuzilmalarimizning funksiyalarni rivoj-lantirish bilan sport ixtisosligi uchun lozim bo'lgan mavjud shart-sharoitlar yuzaga keltiradi, tayyorgarlik jarayoni hajmini kengaytiradi, shuningdek, sportchini turli xil harakat, ko'nikma va malakalari zahirarsini va ularning orasidagi o'zaro munosabatlarini boyitadi.

Maxsus tayyorgarlik esa, muayyan sport turi uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi, shuningdek, aynan shu sport turiga xos texnik va taktik bilim va amaliy malakalar bilan qurollantiradi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlikni ham, maxsus jismoniy tayyorgarlikni ham, Badminton mashg'uloti jarayonidan chiqarib tashlab yoki birini ikkinchisi bilan almashtirib bo'lmaydi. Chunki umumiy va maxsus tayyorgarlik orasida o'zaro uzviy bog'liqlik mavjud. Ularning o'rtasidan chegara o'tkazish mumkin emas. Ayrim banminton mutaxassislar shunga tayanib, sport trenirovkasining bu jihatlarini ajratmaslikni taklif qiladilar. Bizning fikrimizcha esa umumiy va maxsus tayyorgarlik o'zining xusu siy funksiyalari, vositalari, usullari va shuningdek, mashg'ulot jarayonlari bilan birmuncha bir - biridan farq qiladi.

Badminton mashg'uloti jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. Badmintonchilarning texnik-taktik mahoratlarini, jismoniy va maxsus tayyorgarliklarini ancha stabil o'sishi uchun mashqlarni sikllar bo'yicha, tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha shunday qo'llash maqsadga muvofiqi, unda mashg'ulot jarayonining oldingi bosqichi keiyngisiga ijobiy ta'sir qilsin.

2. Tayyorlov mashqlarning metodikasi, musobaqalarga tayyorgarlik bosqichlarini, umumiy jismoniy tayyorgarlikni, maxsus jismoniy tayyorgarlikni, maxsus tayyorgarlikni hisobga olgan holda tuzilishi maqsadga muvofiq.



Xulosa qilib aytganda, Badminton mashg'uloti jarayonida texnik-taktik tayrgarligini oshirish sportchining jismoniy sifatlarini rivojlantirish – jismoniy tayyorgarligi, tanlangan sport turi bo'yicha texnik va taktik tayyorgarliklarini hamda ularga oid nazariy bilimlarining darajasini to'xtovsiz kengaytirish, ma'naviyati, ruhiy sifatlarini tarbiyalashni doimiy nazoratda tutish talabini qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida badminton sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqish to'g'risidagi Vairlar Mahkamasining 2020 yil 11 martdagi 143-son Qarori
2. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.
3. Кодирова, М. А., Абатова, Г. Н. (2021). Прессо-депрессорная разминка как эффективное средство настройки психофункциональной готовности спортсменов к соревнованиям. Academic Research in Educational Sciences
4. Сафарова, Д. Д., Алиева, К. К., & Серебряков, В. В. (2017). Об особенностях компонентного состава массы тела у спортсменок, спетсиализирующихся в спортивных единоборствах. Наука и спорт: современные тенденции.



MAGISTRLARDA ILMIY TADQIQOT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ma'luda Xusanova Nurdinova

Namangan davlat universiteti doktoranti

maludaxusanova82@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari magistrLARining ilmiy tadqiqot kompetentsiyalarining mazmuni va metodologik asoslari tahlil qilingan. Shakllantirilgan xulosalar asosida oliy tahlim magistrLarda ilmiy-tadqiqot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ilmiy tadqiqot kompetentlik, tadqiqotchilik kompetentligi, kreativlik, tadqiqotchilik faoliyati.

Annotation: The article analyzes the content and methodological bases of the scientific-research competencies of masters of higher educational institutions. On the basis of the formed conclusions, proposals and recommendations on the development of research competence of higher education masters were developed.

Keywords: scientific research competence, research competence, creativity, research activity.

Mavzu tanlash va uning xozirgi kundagi dolzarbligini asoslash «sof ilm»ni shakllantirishdir. Ilmiy - tadqiqot mavzusini tanlash mavzu (muammo)ning ishlanganlik darajasini aniqlashdan boshlanadi.

Ilmiy tadqiqot o'tkazish ratsional tashkil etiladigan, o'ziga xos metodika va metodlarga ega ijodiy faoliyatdir. Uning ratsionalligi inson aqlu idroki va real hayotiy talablarni bilan bog'liqligida, metodikasi va metodlari esa, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiy faoliyatni samarali o'tkazishga yordam beradigan usullar va mexanizmlardan foydalanganidadir.

Ilmiy izlanish murakkab, serqirra va ziddiyatli kechadigan jarayondir. Tadqiqotchi ichki (sensitiv-kognitiv, ma'naviy, aqliy) va tashqi (obyektiv olam, ijtimoiy munosabatlar) ta'sirlari ostida izlanish olib boradi, mazkur ta'sirlarni ilmiy maqsadga yo'naltirish oson emas. Ilmiy tadqiqot o'tkazish metodikasini egallagan, ilmiy metodlardan yaxshi xabardor va ularni qo'llay oladigan shaxs ko'zlagan maqsadiga erishadi, ilm-fan sohasida biror e'tiborli fikr ayta oladi.

Ilmiy tadqiqot o'tkazish metodikasini yaratish borasida katta tajriba to'plangan, har bir tadqiqot unga nimadir qo'shgan. Ushbu tajribani to'plash, unga yaxlitlik, ma'lum bir shakl berish ehtiyoji mavjuddir.

Ilmiy tadqiqot o'tkazishning asosiy maqsadi obyekt (predmet)ning real holatini ideal holatga ko'tarish hisoblanadi. Mazkur maqsadga yetishning samarali yo'llarini, mexanizmlarini topish va jamiyatga taklif etish olimning vazifasidir. Mualliflar yosh tadqiqotchilarni o'z burchini obyektiv bajarishga, buning uchun esa ilm-fanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turishga talab etadilar.

Mavzuning dolzarbligini asoslash orqali tadqiqotchi muammoning davr, taraqqiyot, ilm-fan uchun qanchalik muhimligini isbotlaydi. Mavzuning dolzarbligini yuqoridagi obyektiv va subyektiv omillar orqali asoslash mumkin. Mavzuning o'rganilmaganligi yoki kam o'rganilgani, muammoga oid ziddiyatli yondashuvlar, kontseptsiyalar ilgari surilayotgani, u yoki bu hodisaning pozitiv natijalariga olib kelmayotgani, taraqqiyotga to'siq bo'layotgani, shaxs va jamiyat munosabatlarida «beganalashuv» hollarining paydo bo'layotgani, huquqiy normalarni deviant xulq-atvorga samarali ta'sir eta olmayotgani dolzarb mavzular sifatida tadqiq etilishi mumkin. Biroq mavzu dolzarbligini asoslashda ilmiy izlanishlardan kelib chiqarilgan bitta pastulatga tayanish darkor. U – tadqiqot obyekt (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqishdir.

Tadqiqot qanday sabablar, omillar insonning ideal holatga yetishiga to'siq bo'lmoqda, nimalar qilganda insonni ideal holatga yetkazish, tarbiyalash mumkin, degan savollarga javob izlashi darkor. Tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslayotganda obyekt (predmet)ning ideal holatga ketishiga g'ov bo'layotgan asosiy sabablar, omillar ko'rsatilishi zarur. Tadqiqot obyekt (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi fundamental mushtaraklik uning (obyekt yoki predmetning) makon va zamonda mavjudligidir. Tadqiqot obyekt (predmeti) izlanishdan oldin ham makon va zamonda mavjud edi, u izlanishdan keyin ham makon va zamonda mavjud bo'lishi zarur. Lekin u real holatdan ideal holatga o'tganida sifatlan o'zgarishi, ya'ni real holatida yo'q xislatlar, qarashlar, ko'nikmalar va aloqalarni o'zida shakllantirishi mumkin. Real holat ideal holatning antogonisti emas, u ideal holatning takomillashtirilishi zarur bo'lgan ko'rinishidir. Ideal holat ham real holatning antogonisti emas, u real holatning takomillashtirilgan ko'rinishidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot real holatni boricha, mavjudligicha qoldirolmaydi, uni takomillashtirmay, ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning immanent qonuni real holatdagi g'ov, to'siq, konservativ qarashlarni ideal holatning ziddi, hatto raqibiga



aylantirishi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat bir ijtimoiy-tarixiy bosqichidan ikkinchi, ko‘pincha ilgari bosqichga zid, qarama-qarshi bosqichga o‘tayotganida real holatdagi mavjud to‘siqlarni kuch bilan bartaraf etadi. Ko‘pincha tadqiqotchilar mavzu dolzarbligini asoslashda konstatatsiya (tasdiqlash) usulidan foydalanadilar. Aslida muammo mavjudligini ta’kidlash ham konstatatsiya usulidir. Ammo, bizning fikrimizcha, mavzu dolzarbligini asoslashda nafaqat konstatatsiya, shuningdek, ziddiyatlarni keltirish, real holatdagi to‘siqlarni sanash, ideal holatga yetishishning ijtimoiy zaruriyat ekanini tahkidlash usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy hayotning sotsiodinamik xususiyati mavzu dolzarbligini real holatdan ideal holatga borish yo‘llarini izlash orqali asoslashga undaydi. Konstatatsiya usuli ko‘pincha barqaror, turg‘un narsalarni, amalga oshirilgan hodisalarni qayd etish bilan chegaralanadi. Tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holatidan ideal holatiga borishi esa ijtimoiy taraqqiyotning sotsiodinamik xususiyatiga muvofiqdir, shuning uchun mavzu dolzarbligini asoslashga sotsiodinamik yondashish darkor.

Ilmiy tadqiqot ma’lum bir konseptsiya, qarash va maqsad bilan o‘zini chegaralashi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. – 2004.–№2.
2. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. – 2003. – №10.
3. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. – 2003. – № 2.
5. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарика”, 2004.
6. Muslimov N.A., Усмонбоева М., Мирсолиева М. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услугий мажмуа. – Т: 2016



O'ZBEKISTONDA AYOLLAR FUTBOLI TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Gulchexra Esanova Boybo'riyevna

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ayollar futboli tarixi, ayollar futboli mashg'ulotlarini takomillashtirish va uning samaradorlik natijalarini aniqlash usullari bayon etilgan

Kalit so'zlar: barkamol avlod, jismoniy tarbiya, ayollar futbolini rivojlantirish, futbol jamosi, futbol sport maktablari

Annotation: This article describes the history of women's football in Uzbekistan, methods of improving women's football training and determining its effectiveness.

Keywords: mature generation, physical education, development of women's football, football team, football sports schools.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, qobiliyatli yoshlarni sportga jalb etish, milliy futbolimizni yanada qo'llab quvvatlash va rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda profissonal maxorat hamda ko'nikmalarni chuqur rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek, ulardan futbol bo'yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidneti va Vazirlar Mahkamasining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368 sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610 qarori mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasi, jumladan yurtimiz futbol mutasaddilari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib berdi.

Ayollar futboli ham mamlakatimizda keng doirada rivojlanayotganini, barcha viloyat va tumanlarda ayollar futboli bo'yicha musobaqalar o'tkazilayotganligi, qizlar futbolning darajasini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda 1980-1990-yillarda futbol sporti bo'yicha ilk musobaqalar o'tkazilganligini mutaxassislar ta'kidlashadi.

1997-yildan ayollar o'rtasida milliy chempionat o'yinlari o'tkazilib kelinadi. Milliy chempionat o'yinlarida respublikamizning Toshkent, Samarqand, Namangan, Jizzax, Nukus, Navoiy, Qarshi, Andijon, Buxoro shaxarlari jamoalari munosib



qatnashib kelmoqda. O'zbekiston futbol federatsiya qoshidagi Ommaviy futbol bo'limi mutaxassislarining hisob kitoblariga ko'ra, 2012-yil 500 ming nafarga yaqin ayol-qiz futbol bilan mashg'ul bo'lgan. Qarshi shahrida ilk bor Sevinch ayollar jamoasi tashkil topgan paytda 10 dan ortiq qizni to'plashga erishilgandi. Hozirgi kunda Qarshi shaxri mamlakatimizning ayollar futbol markaziga, Sevinch jamoasi tengsiz futbol jamoasiga aylangan. Sevinch jamoasi bir necha bor xalqaro turnirlarda g'olib chiqdi, sovrindorlar safidan joy oldi. Bugungi kunda professional klublar qoshida qizlar futbol to'garaklari tashkil etilmoqda. Futbol bilan jiddiy tarzda shug'ullanayotgan yosh qizlarni ko'pligi ayollar futbolning yanada ommaviylashtirishiga olib kelmoqda. Ayol-qizlar futbolni ommaviylashtirish va musobaqalar o'tkazish, tashkil etishda ayollar futboli, mini-futbol plyaj futboli assotsiatsiyasi tuzilgan bo'lib, futbol sohasidagi ishlarni rivojlantirishda katta turtki bo'lmoqda. Keyingi yillarda futbolchi qizlarimiz xalqaro musobaqalarda, Osiyo chempionati saralash uchrashuvlarda, olimpiyada saralash o'yinlarida raqib jamoalariga munosib qarshilik ko'rsatishmoqda. Lekin terma jamoalarimiz chempionatlarga o'tish turnirlarida Osiyoning Xitoy, Janubiy Koreya, Avstraliya, Yaponiya jamoalariga mag'lubiyatga uchrashmoqda. Ushbu yurt jamoalari qizlari Osiyoning va Jaxonning kuchli jamoalari deb ta'kidlanmoqda. Mamlakatimizda qizlar futbolning ommaviylashtirishi va rivojlanishi klublarda, terma jamoalarda kuchli iqtidorli futbolchi qizlarning etishib chiqishga olib keladi va bu xalqaro o'yinlar, olimpiyada musobaqalarida mamlakatimiz sharafiga munosib ximoya qilishlariga zamin yaratadi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, ayniqsa, o'zbek xotin - qizlarini sportning turli ko'rinishlariga jalb etish bora-sida hukumatimiz tomonidan qator chora - tadbirlar belgilandi.

Xotin - qizlar futboli birinchi bo'lib, XX asr boshlarida Yevropada vujudga kelgan. Shuningdek, bu sport turi Skandinaviya xotin - qizlar orasida keng tarqalib, ancha rivojlangan. O'zbekistonda esa xotin - qizlar futboli mustaqillikka erishganimizdan so'ng tashkil etildi.

Natijada, ko'p o'tmay, ya'ni 1997-yil xotin - qizlar orasida birinchi bo'lib futbol bo'yicha Respublika birinchiligi musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda. Bu musobaqalarda asosan Andijonning "Andijanka" jamoasi bir necha yil peshqadamlik qilib keldi. Lekin keyingi yillarda Qarshining "Sevinch" jamoasi gegemonlik qilmoqda. Buxoro xotin - qizlar futbol jamoasi 1996-yilda tashkil etildi. Bu jamoaga Raxmatov Sulaymon bosh murabbiylik vazifasiga tayinlandi. Jamoa yosh hali xotin - qizlar futboliga unchalik e'tibor berilmaganligi sababli va tarkibning to'liq bo'lmaganligi jamoani shakllantirishda va uning asosini tashkil etishda qiyinchiliklar



tug'dirdi. Jamoa tarkibida iqtidorli futbolchilardan faqat Xasanova Ilmira, Nurimanova Dilshoda, Asadova Irinalarni tilga olish mumkin.

O'zbekiston terma jamoasi Hindistonning Goya shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida qatnashib 5-o'rinni egalladilar, Osiyoda etakchilik qilib kelayotgan jamoalar bilan teng kurashib futbolchi qizlarimiz O'zbekistonda xotin - qizlar futbol rivojlanayotganini yana bir karra isbotlab berdilar. Shu yili Janubiy Koreya va O'zbekiston futbolchi xotin - qizlari bilan ikki marta o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi. Uchrashuvlardan birtasi bizning qo'hna va hamisha navqiron Buxoro shahrida o'tkazildi. O'yin O'zbekistonlik sportchi qizlarimizning g'alabasi bilan yakunlandi. Fedorova Tatyana o'z mahoratlarni yaksak darajada namoyon etdilar.

Xotin - qizlar futbolining rivojlanishida talaba qizlarni sport to'garaklariga jalb qilishda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan talaba sport klublari mas'ullari ham jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, sport kabi tushunchalarni va ularning jamiyatdagi mohiyati, xalqimizni sog'lomlashtirishdagi ahamiyatini, sog'lom avlodni tarbiyalashdagi rolini yaxshi anglab etmog'i zarur. Qolaversa oila, mahalla, maktab, kasb-hunar kollejlari bunga jiddiy yondoshishlari zarur. Bolalikda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga hosil qilingan hoxish-istak kelgusida ham buni amalga oshirishga undaydi. Buning natijasida inson butun bir hayoti davomida izchil ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga harakat qilib uning jismoniy, ruhiy, aqliy faollik darajasi, ish qobiliyatini saqlab turadi.

Xulosa qilib aytganda, xotin - qizlar futbolini rivojlantirish ijtimoiy, psixologik, biologik omillar bilan bog'liq bo'ladi. O'zbekistonda Xotin - qizlar futbol jamoalarini shakllantirish va ularni tashkil etish va rivojlantirishda erishilgan yutuqlar bilan birga oldimizda o'z yechimini kutib turgan bir qator muammolar va vazifalar borligini ham e'tirof etishimiz lozim:

- ta'lim muassasalarida O'zbekiston futbol tarixi to'g'risida ko'proq ma'lumotlar berish;

- mahallalarda xotin-qizlar sporti (ayniqsa futbol)ni rivojlantirishda, ta'lim muassasalari, oila, hokimiyat organlari faoliyatini aniq harakat dasturi asosida muvofiqlashtirish;

Mahalla hududidagi sportga qiziqishi bor, iqtidorli xotin - qizlarni aniqlash va ularni istiqbolli yo'naltirish.

- futbol sport sohasidagi xotin-qiz o'qituvchilar va murabbiylar malakasini oshirish jarayoniga jahondagi etakchi olimlar va mutaxassislarni jalb etish;

- futbol sport maktablari qoshida qiz bolalar uchun futbol bo'limi ochilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.



-xotin - qizlar futbolining yaratilishida jamoda ma'naviy ma'rifiy ishlarni jonlantirish, sportchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, birinchi o'rinda moddiy manfaatni emas balki fidoyilikni ustun qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov J.A, Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. // Fan-sportga №1 -2007 y.
2. Botirov H.A. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: 1994
3. Sultonov Sh.U. Futbol o'yininig paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. T.:2011



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Humayra Turayeva

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: Cholg'u va ijrochilik mahorati kafedrası dotsenti M.A. Ilhamov.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining musiqa madaniyati darslarini sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalda qollash yuzasidan tajriba-sinov ishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, ta'lim, pedagogika, maktab, tajriba, texnologiya, musiqa madaniyati, metodika.

Annotation: This article describes experimental work on the implementation of modern pedagogical technologies in improving the quality and efficiency of music culture lessons of general secondary schools.

Keywords: music, education, pedagogy, school, experience, technology, music culture, methodology.

Dunyoda ikkita ta'lim falsafasi mavjud: ulardan biri bilish, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishini asosiy qadriyatidir. Birinchi model hozirgi musiqa ta'limi tizimida namoyon bo'ladi. Ikkinchisi esa, pedagogik tizim modelidagi ta'lim, bunda asosiy e'tibor hissiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishga qaratiladi, bolaga shaxs sifatida qaraladi, uning rivojlanishi o'z-o'zidan qimmatli natija sifatida tushuniladi. Bunday pedagogikaning asosiy vazifasi - bolalarning tabiiy iste'dodlarini rivojlantirish, ijodiy shaxsni tarbiyalash, ijodkorlik, uning eng muhim sifati, mazmuni, shakllari va usullarini bolaga moslashtirishga intilishdir. Musiqa darslarining yoshlar tarbiyasi shakllanishidagi ahamiyatini inobatga olgan holda, musiqa darslarining strukturasi hamda musiqa darslarini sifatli olib borish jarayonini ta'minlash, ularning sifat samaradorligini oshirish va mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kun jamiyatdagi dolzarb mavzulardan biridir.

Musiqa dars sifati va samaradorligini yanada tiklash uchun xorijiy mamlakatlarda musiqa ta'lim - tarbiyasi tizimini o'rganish va tahlil qilishni maqsadga muvoffiqdir. Har bir xalqning musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu millatning musiqa madaniyati, tili va madaniy an'alariga



asoslangan holda shakllanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy - metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Bolgariya musiqa talimi tizimida "столбца" (ustun) metodi, Rossiyada "Три кита", Yaponiyada "Sudzuki" ishlash metodlari ta'lim jarayoniga tadbiq etish, YUNESKO qoshidagi ISME (International Society for Music Education) Xalqaro musiqa ta'limini rivojlantirish jamiyati musiqa o'qituvchilarni malakasini oshirish, xalqaro miqyosda anjumanlar o'tkazishda kompozitorlar, amaliyotchi - pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirokini ta'minlash, musiqani targ'ibot etib, musiqa o'qituvchilari va bo'lajak musiqa o'qituvchilari orasida tajriba almashish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi musiqa ta'limi tizimi mamlakatimizda uzoq vaqtdan buyon rivojlanib kelgan musiqa madaniyati an'alariga asoslanadi. Uzluksiz ta'limni ta'minlaydigan ko'p bosqichli tizim musiqa maktabidan tortib oliy o'quv yurtlari - universitetlar, konservatoriyalar rivojlandi. Shu tarzda shakllangan musiqa ta'limi tizimi jamiyatimiz uchun o'ziga xos, xarakterli hodisa bo'lib, u tashkiliy jihatdan murakkab tuzilishga, alohida ichki va tashqi aloqalarga ega. So'nggi yillarda ta'limni axborotlashtirishning o'sishi bolaning ijodiy individualligini rivojlantirishga yordam beradigan ehtiyojni anglash muammosini keltirib chiqarmoqda. Profillashtirish kasbiy tayyorgarlikning tashviqot bosqichidir, shuning uchun uni yuqori toifali mutaxassis tayyorlash usuli deb hisoblash mumkin. Bunda musiqa maktablarining, konservatoriya yoki oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi katta imkoniyatlar ochadi. Pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik leksikonga mustahkam kirdi. Pedagogik texnologiya - shakllar, o'qitish usullari, ta'lim vositalarining maxsus majmuasi va tartibini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar majmui va pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy qurolidir.¹

Tadqiqot ishimiz doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa ta'limining pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligi,

¹ <https://agartu.com/>. Актуальные проблемы и современные тенденции в преподавании музыкально-теоретических дисциплин. Гребенникова Людмила Михайловна Преподаватель музыкально-теоретических дисциплин КГКП «Детская школа искусств» г. Сатпаев

o'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajribasi, bu faoliyatga munosabati o'rganildi.

Tajriba boshidagi natijalar:

№	Musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni	O'quvchilar soni			
		Tajriba guruhi 5 b - 31		Nazorat guruhi 5 d - 33	
		Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	salbiy
1.	Musiqani idrok etishi (janr, lad, o'lchov, xarakter)	14	17	14	19
2.	Musiqaga tavsif bera olishi (ijro uslubi, g'oyaviy badiiy mazmuni, shakli)	11	20	11	22
3.	Nazariy tahlil	13	18	13	20
4.	Ijro etish malakasi	12	19	11	22
5.	Vokal – xor malakasi (soz, ansambllik)	10	21	15	18
6.	Nota o'qish malakasi	15	16	11	22
7.	Cholg'u sozlari haqida bilish	11	20	10	23
8.	Xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlari, uslublari haqida bilim va tushunchalari	14	17	13	20
9.	Xotirasi	13	18	12	21
10.	Musiqqa terminlarini izohlay olishi	14	17	14	19

Shundan so'ng, an'anaviy uslubdagi mashg'ulotlarga nisbatan yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan darsning afzallik jihatlarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqqan dastur asosida tajriba – sinov ishlarini shakllantiruvchi bosqichidagi vazifalarni amalga oshirishga oshirildi. O'quv mashg'ulotlarining mazmuni, mohiyati va musiqiy faoliyatlarning o'ziga xoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos texnologiya va pedagogik metodlardan o'z o'rnida foydalanildi va texnik vositalar yordamida namoyish qilish, ko'rsatish kabi uslublarga keng o'rin berildi. Tajriba – sinov davrida o'quvchilarni darslarga munosabati, mavzularni



o'zlashtirishga intilishlari, o'qituvchiga berayotgan savollari, o'z ustida ishlashlari, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari ayrim muddatda tez rivojlansa, ayrim muddatda sekinroq kechishi ham kuzatildi. Bunda o'quvchilarni mavzu bo'yicha bilim, asarlarni tinglash, tahlil qilish, kuylash, o'z amaliy ijrolarini namoyon eta olishlariga e'tiborni kuchaytirildi. Musiqa darslari jarayonida ta'limni texnologik tashkil etish ta'limni zamonaviy talablar asosida, amaliy tarzda, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqoti tarzida tashkil etish dars sifat va samaradorligi ta'minlanishi amalda ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л.М. Гребенникова. Актуальные проблемы и современные тенденции в преподавании музыкально-теоретических дисциплин. Преподаватель музыкально-теоретических дисциплин КГКП «Детская школа искусств» г. Сатпаев. <https://agartu.com/>.
2. I.B. Matyakubov. Bolalar asarlarini akkomponementlashtirish va aranjirovka. 2022-yil.
3. T.Ortiqov. Musiqa oqitish pedagogikasi. 2010-y.



“YOLG‘IZLIK”, “TANHOLIK” VA “YAKKALANISH” TUSHUNCHALARINING ETIMOLOGIYASI

Mahliyo Yuldasheva Baxtiyorovna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Yolg'izlik hissini talqin qilish borasida ba'zi tadqiqotchilar “Tanholik” va “Yakkalanish” tushunchalaridan farqli ravishda “Yolg'izlik” maxsus ichki hissiy ma'noni anglatuvchi kechinma ekanligini ta'kidlasalar, ba'zi tadqiqotchilar esa bu tushunchalar o'zaro sinonim sifatida qo'llanilishi mumkin ekanligiga urg'u beradilar. Mazkur maqolada “Yolg'izlik”, “Tanholik” va “Yakkalanish” atamaları o'rtasidagi mazmuniy chegaralarni yanada aniqlashtirish uchun ularning etimologiyasiga (atamalarning kelib chiqishiga) e'tiboringizni qaratamiz.

Kalit so'zlar: yolg'izlik, tanholik, yakkalanish, etimologiya, antinomiya

Annotation: When it comes to interpreting feelings of loneliness, some researchers point out that “loneliness” is a specific internal emotional connotation, in contrast to the concepts of “solitude” and “isolation”, while some researchers emphasize that these concepts can be applied as synonyms among themselves. In this article, we will focus on their etymology (the origin of the terms) in order to further clarify the content boundaries between the terms “loneliness”, “solitude” and “isolation”.

Keywords: loneliness, solitude, isolation, etymology, antinomy

“Yolg'izlik”, “Tanholik” va “Yakkalanish” tushunchalari o'zaro sinonim tushunchalar emasligi haqida S.G.Trubnikova shunday yozadi: “Yakkalanish” insonning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatidagi jismoniy, fazoviy va davomli joylashuviga bog'liq, u tashqi namoyon bo'ladigan hodisa, lekin ichki psixik kechinma emas”.

U.Sadler va T.Djonslarning fikricha: “Jismoniy yakkalanishni aniqlash uchun ko'z bilan ko'rish kifoya, lekin yolg'izlikni anglash uchun uni his qilib ko'rish lozim”. Bizning fikrimizcha, “yakkalanish” haqida so'z ketar ekan, “insonning jamiyatdan, oilasidan yakkalanishi” iborasini qo'llash o'rinli, lekin “yolg'izlik” atamasini izohlashda bunday deyish noo'rin. “Yolg'izlik” bilan doimo ijtimoiy “yakkalanish” hamnafas emas. Yolg'izlikni his qilish odamlar ichida bo'lib ham ro'y

berishi mumkin. Tashqi ijtimoiy yakkalanish yolg'izlikni anglatmaydi, balki mazkur hisning paydo bo'lishi uchun zamin yaratishi yoki uning alomatlarini chuqurlashtirishi mumkin. Yolg'izlik tashqi yakkalanishdan farqli ravishda insonning jamiyat bilan, o'z-o'zi bilan ichki munosabatlarini aks ettiradi va stress, qoniqmaslik, azoblanish, inqiroz kabi salbiy emotsiyalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, "Yolg'izlik" va "Yakkalanish" identik (aynan, o'xshash) tushuncha emas.

Zamonaviy rus tadqiqotchilaridan G.M.Tixonov "Yolg'izlik-tanholik" juft tushunchalarini qutbiy mazmunda tahlil qiladi. "Yolg'izlik" atamasi tahqirlangan, tashlab ketilgan, bir-biridan ajralgan, kommunikativ ojizlikni bildiradi, ya'ni jamiyatdan istisno qilingan sharoitda - subyektiv kechinmalar belgisidir. "Tanholik" atamasini subyektiv his-tuyg'u sifatida insonning obyektiv tarzdagi o'zgalardan jismonan uzoqlashishi, deb urg'u beradi muallif [8].

D.A.Mateyev ikki juft tushunchalar "Yakkalanish-yolg'izlik" va "Tanholik-yolg'izlik" tushunchalarini antinomiylar, ya'ni to'g'ri deb qabul qilingan ikki holat o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik, deb ataydi. Olimning yozishicha, "Yakkalanish" subyektning atrofidagi qurshovdan majburan uzilishi, o'zgalardan jismoniy uzoqlashishidir. Agar "Yakkalanish" tashqi tomondan namoyon bo'ladigan majburiyat bo'lsa, "Yolg'izlik" – ichki subyektiv kechinma. "Tanholik" esa vaqtinchalik yuzaga keladigan kommunikatsiyaning uzilishi va u jamiyatning bir qismi sifatidagi individning muayyan maqsadlarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi [3].

Yolg'izlik – doimiy muloqotning buzilishi, insonning atrof-muhitdan og'riqli uzilishi, o'z olamiga o'xshamasligini anglashidir. Mazkur tahlil fanga G.I.Kolesnikova tomonidan kiritilgan bo'lib, u "Yolg'izlik"ni ekzistensial mazmun-mohiyatdan yiroq bo'lgan og'riqli holat deb ataydi [6], ya'ni olim yolg'izlik tushunchasiga semantik jihatdan ta'rif bergan.

"Yolg'izlik" tushunchasiga yana bir yaqin bo'lgan tushuncha "begonalashish" bo'lib, u mutaxassislar tomonidan jamiyatdagi qadriyatlar, me'yorlarning qabul qilinmasligi kabi shaxsning ma'naviy yo'nalishlari qatoriga kiritiladi va individning ichki ruhiy olamidagi erkinlikning chegaralanishi, deb qaraladi.

Tadqiqotchilar yolg'izlik hissini tahlil qilishda ikkita an'anani ajratishadi; ulardan biri salbiy yo'nalishdagi yolg'izlik bo'lsa, ikkinchisi ijobiy yo'nalishdagi yolg'izlik. Inson turmush tarziga yolg'izlik hissining ta'siri masalasini aniqlashtirish yolg'izlikni antinomik ko'rinishda tahlil qilishga imkon beradi, bu bir tomondan shaxsning destruktiv bosqichi sifatida, ikkinchi tomondan yaratuvchanlik sifatidagi

o‘z-o‘zini anglash bosqichini namoyon qiladi. Qarashlardagi turli-tumanlik esa hozirgi kunda yolg‘izlik muammosi va uning psixologik determinantlari yetarli darajada o‘rganilmaganligidan dalolat beradi.

E.N.Zavorotnix yolg‘izlikni turli ijobiy va salbiy hissiyotlar, emotsiyalarni yuzaga keltiradigan subyektiv kechinma, deb ataydi. Muallif yolg‘izlikning aniqlashtiruvchi mezonlarini ko‘rsatib o‘tadi. Ular: yolg‘izlik hissi namoyon bo‘lish kuchining subyektiv bahosi; individ tomonidan yolg‘izlikning tan olinish darajasi; yolg‘izlikning emotsional ko‘rinishi. Tadqiqotchi yolg‘izlik hissining turlarini ham farqlaydi, ya‘ni: inkor qilinuvchi yolg‘izlik - shaxs yolg‘izlik kechinmasiga e‘tibor qilmaydi; qulay yolg‘izlik – u orqali shaxs o‘z hayotida muvaffaqiyatga erishadi; destruktiv yolg‘izlik – bunda inson yolg‘izlik kechinmasini tiklashga harakat qiladi [7].

“Tanholik” tushunchasiga ko‘plab tadqiqotchilar “yolg‘izlik” tushunchasiga ham taalluqli bo‘lgan tavsiflarni kiritishadi. Bunda yolg‘izlikning ixtiyoriylik va majburiylik xarakteri e‘tiborga olinadi. Ixtiyoriy yoki majburiy yolg‘izlik mavqelari mutlaqo ijtimoiy yo‘nalishga ega. Ixtiyoriy yolg‘izlik ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lgan holda “tanholik” atamasini ifodalaydi. “Tanholik” tushunchasi tuzilishining turlanishini T.I.Golman quyidagicha izohlaydi: 1) ijtimoiy ahamiyatli insonlar toifasining majburiy jismoniy yoki ijtimoiy yakkalanishi; 2) tashqi aloqalarning ma‘naviy takomillashuv maqsadidagi ongli chegarasi; 3) muloqotdagi ehtiyojning qoniqmasligi, tushunilmasligi, ruhiy va ma‘naviy yakkalanishning mashaqqatli kechinma sifatida his qilinishi [1].

Shunday qilib, “tanholik” inson tomonidan ongli ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirish maqsadida kommunikativ aloqalarning chegaralanishi bo‘lib, uni “bunyodkor yolg‘izlik” deb atasak bo‘ladi.

Sotsiologik hamda psixologik tahlillar olib borgan mualliflardan N.Ye.Pokrovskiy va G.V. Ivanchenkolar, “yolg‘izlik” tushunchasini serqirra ta‘rif-tavsiflarga ega bo‘lgan atama sifatida unga “o‘ta ekzistensial moddiy xarakterga ega” bo‘lganligi uchun universal ta‘rif berish mumkin emas, deb tan oladilar. Ba‘zi tadqiqotchilar yolg‘izlik hissining ijtimoiy hodisa sifatidagi talqini hozirgi kunda yetarli darajada asoslanmaganligini uqtirishadi. Xo‘sh, buning sababi nimada? Albatta, zamonaviy jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning chiziqli rivojlanishidagi shart-sharoitlarda yolg‘izlik hissini o‘rganish biroz murakkablikni tug‘diradi. Modomiki, jamiyatimizdagi bir holatdan boshqa holatga o‘tish jarayonida yolg‘izlik bir qator omillar ta‘siriga tushib qoladi.

Yolg'izlik hissini tushuntirishdagi qarama-qarshi qarashlar qamrovi, uning ko'pqirrali ifodalanishi, ijtimoiy hodisa sifatidagi o'lchovining murakkabligi, muammoga oid ishlab chiqilgan metodikalarning nisbatan kamligi mazkur muammoning yechimini topishda qiyinchilik tug'diradi. G.M.Tixonov "yolg'izlik" tushunchasining tahlilidagi murakkablik uning binarliligidan, ya'ni ikki tomonlamaligidan deb ta'kidlaydi. Bu, bir tomondan, inson mavjudligining individualligi bo'lsa, ikkinchi tomondan individning shaxslararo munosabatlarga ehtiyoj sezadigan jamiyat a'zosi sifatidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligidandir. Bir qator olimlar, yolg'izlikni o'z tarkibiga ko'plab shakllar va shu shakllarning har bir insonda turlicha his qilinishini namoyon qiladigan kechinma, deb atashadi. Sotsiologiyaga oid izohli lug'atda "yolg'izlik – yakkalanish va ijtimoiy munosabatlarning mavjud emasligi" deb ta'riflanadi [4].

Bir qator tadqiqotchilar, yolg'izlik individning tashqi olamdan yakkalanish holati, deb urg'u berishadi. Bunda yolg'izlik hissi insonning ijtimoiy borliqqa birikmasligi va moslashmasligining ko'rsatkichi, deb hisoblanadi [8]. Yolg'izlikka holat sifatida ta'rif berilganda subyektiv va obyektiv o'ziga xoslik farqlanadi. Subyektiv holatga g'am-g'ussa, xavotirlik, to'liqsizlik hissi, tashlab qo'yilganlik, deprivatsiya ko'rinishlaridan – ishonch va o'zaro tushunishning yetishmasligi kiradi. Obyektiv holat esa majburiy jismoniy yoki ijtimoiy yakkalanishdan, shaxslararo munosabatlarning to'xtatilishi bilan bog'liq vaziyatlar sababli yuzaga keladi.

G.R.Shagivaleyeva, yolg'izlik turlarini insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib farqlaydi: a) insonning voqelikdagi narsa-hodisalar bilan o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan: jismoniy, kommunikativ, emotsional, ma'naviy yolg'izlik; b) vaqt davomiyligi nuqtai nazaridan: onda-sonda va surunkali yuz beradigan yolg'izlik; v) kelib chiqishi nuqtai nazaridan: ixtiyoriy va majburiy yolg'izlik; s) holat sifatidagi mezon bo'yicha: yoqimsiz yolg'izlik, yoqimli yolg'izlik, majburiy yolg'izlik, ekzistensial yolg'izlik [2].

Amerikalik professor, psixiatr I.Yalom yolg'izlik turlarini yakkalanish toifalariga bog'liq holatda tahlil qiladi: 1) ijtimoiy yakkalanish orqali yuzaga keladigan yolg'izlik; 2) emotsional yakkalanish orqali yuzaga keladigan yolg'izlik. Olimning fikricha, yolg'izlik uch shaklda namoyon bo'ladi: kundalik, ekstremal-vaziyatli va sun'iy (eksperimental va davolovchi).

E.N.Klimentyeva [6] yolg'izlikning asosiy shakllari sifatida jismoniy yolg'izlikni obyektiv vaziyat deb qaragan. Unda inson majburiy yoki ixtiyoriy tarzda yolg'iz qoladi. Olimaning fikricha, ruhiy yolg'izlik o'zgalar tomonidan qabul qilinmaslikni his qilish holatini bildiradi.



D.I.Yang yolg'izlik shakllarini ajratishda uning davomiyligiga e'tiborni qaratgan. Olim yolg'izlikning uchta shaklini farqlab bergan: uzoq vaqt davomida ijtimoiy aloqalarning buzilishidan kelib chiqadigan surunkali yolg'izlik; hayotdagi stress hodisalar (yaqinlarni yo'qotish yoki o'lim, ajrashish) natijasida yuzaga keladigan vaziyatli yolg'izlik; qisqa muddatli va tez-tez takrorlanadigan o'tkinchi yolg'izlik [7].

So'zimizning yakunida aytish joizki, "Yolg'izlik" va "Yakkalanish" tushunchalaridan farqli ravishda "Tanholik"ning kelib chiqishi va namoyon bo'lishining sharti – bu shaxsning psixologik barqarorligi, o'zini o'zi anglashning aniq an'anasi hisoblanadi. Identifikatsiya va yakkalanish mexanizmlarining harakati bu holda optimal muvozanatli xarakterga ega bo'ladi. Bizning fikrimizcha, tanholik inson tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan hayot strategiyasi natijasi ham bo'lishi mumkin. Birinchidan, bunday yolg'izlikni boshdan kechirish davomida shaxs o'zini o'zi adekvat tarzda namoyon qilishga intiladi. Ikkinchidan, uning oqibatida o'z-o'zini takomillashtirishga faol intilib, psixologik jihatdan barqaror shaxsning yetishuvini ko'rishimiz mumkin. Demak, tanholik – subyektiv ravishda qabul qilingan yolg'izlikning pozitiv ko'rinishi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гольман, Т.И. Социальное одиночество студенческой молодежи в транзитивном обществе: управленческий аспект: дис. ... канд. соц. наук: 22.00.08 / Гольман Татьяна Ивановна. - Новосибирск, 2008. - 190 с.
2. Закирова, М., & Юлдашева, М. (2022). Феномен одиночества как индивидуальный человеческий капитал личности студентов. In Человеческий капитал как фактор социальной безопасности (pp. 87-92).
3. Матеев, Д.А. Феномен одиночества и проблема нарушения коммуникации: социально-философский аспект: дис. ... канд. философ. наук: 09.00.11 / Матеев Даниел Андреев. - Новосибирск, 2008. - 190 с.
4. Покровский, Н.Е. Универсум одиночества: социологические и психологические очерки / Н.Е. Покровский, Г.В. Иванченко. — М.: Логос, 2008. - 424 с. 299-300 бетлар
5. Трубникова, С.Г. Психология одиночества: генезис, виды, проявления: дис. канд. псих. наук: 19.00.01 / Трубникова Светлана Геннадьевна. - Москва, 1999. - 14 с.
6. Юлдашева, М. Б. ПРОБЛЕМА ФЕНОМЕНОЛОГИИ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА. Министерство высшего и среднего специального



образования Республики Узбекистан Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Факультет социальных наук Кафедра «Философия и логика», 112.

7. Юлдашева, М. Б. (2020). ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА СРЕДИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ. Ответственный редактор, 243.

8. Yuldasheva, M.B. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.05 / Yuldasheva Mahliyoxon Baxtiyorovna. – Toshkent. 2022 yil. 121 bet.

9. Yuldasheva, M. B. (2022). Feeling loneliness as a psychological security problem. In Человеческий капитал как фактор социальной безопасности (pp. 331-335).



РАСЧЕТ ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОЦЕССА ФЛОТАЦИИ ОБОГАЩЕНИЯ РУД

Нилуфар Шарифжанова Муратжановна

Ассистент Ташкентского университета информационных технологий,
базовый докторант Туринского политехнического университета,
e-mail: lotos1981n@gmail.com

Аннотация: в статье рассмотрены варианты оценки эффективности и результативности автоматизированных систем управления (АСУ) многостадийных процессов флотации обогащения руд, а также оценка качества производства продукции, т.е. качества выходной продукции.

Ключевые слова: оценка, эффективность, результативность, АСУ ТП.

Abstract: the article considers options for assessing the effectiveness and efficiency of automated control systems (ACS) of multi-stage flotation processes for ore dressing, as well as assessing the quality of production, i.e. output quality.

Key words: assessment, efficiency, effectiveness, process control system.

Показатели эффективности АСУ ТП позволяют оценить результат, который приносит автоматизация производства. Известно, что грамотно спроектированная автоматизированная система решает множество задач предприятия. За счет внедрения АСУ ТП удастся увеличить объем выпускаемой продукции, сократить трудозатраты, исключить процент брака по вине человека.

Как правило, такая система сравнительно быстро окупает средства, затраченные на ее разработку, проектирование и эксплуатацию. Эффективности такой системы управления технологическим процессом достигается при условии минимального вмешательства персонала как в работу АСУ ТП, так и в сам процесс управления системой, но при этом качество выпускаемых товаров сохраняется на высоком уровне.

Показатели эффективности АСУ ТП:

- повышение производительности труда,
- увеличение объема производства,
- улучшение качества выпускаемой продукции,
- рациональное использование сырья,

- снижение эксплуатационных затрат;
- уменьшение доли ручных операций.

Управление современным производственным предприятием сложно представить без автоматизации процессов. Известно, что на каждом предприятии используют свой порядок оценки эффективности АСУ ТП. При этом анализируемые показатели зависят от первоначальной цели производства. Также принято различать критерии и виды эффективности [1, 3].

Внедрение новых технических средств автоматического управления помогает усовершенствовать действующий технологический процесс, увеличить скорость операций и повысить уровень безопасности на предприятии. Наиболее полное и достоверное представление об эффективности АСУ ТП, несложно получить, обратившись к экономическим показателям.

Признаки эффективной АСУ ТП на производстве:

- Безотказность;
- Надежность;
- Функциональность;
- Безопасность.

Поскольку за счет автоматизации повышаются также качественные характеристики изделий, то АСУ положительно внедряет на такие свойства продукта, как: прочность, долговечность, безопасность. В рамках анализа эффективности АСУ ТП рекомендовано рассмотреть надежность самой системы автоматизации. Оцените ее по таким критериям, как: безотказность, функциональность, защита данных от потери, ремонтпригодность, взаимозаменяемость отдельных компонентов. Так, вы сможете узнать, справляется ли АСУ ТП с заданным объемом функций и задач на производстве.

Одним из важнейших факторов, обуславливающих экономическую эффективность МСП является сокращение производственных потерь, влияющих на себестоимость выпускаемой продукции [4, 5]:

внутрисменные потери рабочего времени и непроизводительные затраты труда вследствие интуитивного или нерационального планирования, контроля и управления;

непроизводственные затраты и потери (штрафы, брак, сверхурочные, амортизация и др.).

Определение количественных показателей экономической эффективности системы гибкого управления МСП является весьма сложной и трудоемкой

задачей. Трудность решения такой проблемы заключается в многокритериальном характере поиска рационального варианта структуры систем управления. Часто зарубежные специалисты подменяют критерий экономической эффективности другими целевыми функциями: уменьшением числа обслуживающего персонала и гибким реагированием на требования рынка. Отечественные специалисты редко используют такой способ оценки, так как критерий экономической эффективности является интегральным выражением всех частных критериев. Например, уменьшение обслуживающего персонала находит отражение в величине экономического эффекта, получаемого народным хозяйством от внедрения новой техники и технологии, а гибкое реагирование на требования рынка связано с сокращением сроков подготовки производства для выполнения новых производственных программ. Среди критериев наиболее признанным в практике является минимум полных приведенных затрат. Этот показатель дает возможность учесть все затраты на приобретение, установку и обслуживание гибкой су, а также позволяет выразить производительность и надежность системы управления МСП через значение потерь прибыли.

Критерий полных приведенных затрат характеризуется следующими двумя составляющими: затратами (материальными и трудовыми) на создание и обслуживание гибкой СУ и потерями прибыли, обусловленными несовершенством выбранного варианта структуры управления [2, 4]. Расчет полных приведенных затрат осуществляется по следующей формуле:

$$\mathcal{E}_{\pi\pi\mathcal{Z}} = \min_{i \in I} (\mathcal{K}_{\mathcal{Z}i} E_{\mathcal{K}} + \mathcal{E}_{\mathcal{Z}i} + \pi\pi_i),$$

где $\mathcal{E}_{\pi\pi\mathcal{Z}}$ - полные затраты, приведенные к общей для всех составляющих единице времени (год), тыс.сум, I - множество вариантов структур системы управления МСП.

$\mathcal{K}_{\mathcal{Z}i}$ - капитальные затраты на создание i -го варианта системы управления МСП, тыс.сум:

$$\mathcal{K}_{\mathcal{Z}i} = \mathcal{K}_{\mathcal{ZTC}_i} + \mathcal{K}_{\mathcal{ZPO}_i}$$

$\mathcal{K}_{\mathcal{ZTC}_i}$ - капитальные затраты на приобретение, установку и запуск технических средств управления (УВК на базе мини- и микро-ПК,

программируемых команд аппаратов для управления вспомогательными технологическими установками, аппаратуры передачи данных и т.д.);

$K_{\text{зпо}_i}$ - затраты на разработку или приобретение программного обеспечения (ПО) для реализации задач управления МСП;

Ξ_{zi} - затраты на обслуживание варианта i МСП за год, тыс. сум:

$$\Xi_{zi} = \Xi_{\text{зтс}_i} + \Xi_{\text{зпо}_i},$$

$\Xi_{\text{зтс}_i}$ - материальные и трудовые затраты на обслуживание технических средств МСП (заработная плата обслуживающего технического персонала за год, затраты на приобретение сменных носителей машинной информации (дисков, лент, бумаг, кассет, перфолент, перфокарт и т.д.) и запасных частей для технических средств управления; зло,

$\Xi_{\text{зпо}_i}$ - материальные и трудовые затраты на обслуживание ПО СУ МСП (заработная плата операторов ПК и инженеров-программистов);

$\pi\pi_i$ - потери прибыли в процессе производства, связанные с недостатками эксплуатации i -го варианта МСП, тыс сум

$$\pi\pi_i = \pi\pi_{\text{вр}_i} + \pi\pi_{\text{оу}_i},$$

$\pi\pi_{\text{вр}_i}$ - потери прибыли, вызванные снижением объема реализуемой продукции из-за потерь рабочего времени по вине СУ МСП;

$\pi\pi_{\text{оу}_i}$ - потери прибыли, связанные с увеличением издержек производства из-за неоптимальной организации и управления.

В общем, экономическая эффективность СУ ИСП состоит:

I) из прямой экономии, реализуемой непосредственно на предприятии:

- снижение себестоимости продукции (экономия на накладных расходах, на фонде зарплаты, сырья, материалов, энергии, сокращения аппарата управления, повышения ритмичности работы и пр.);

- увеличение прибыли от прироста объема продукции и улучшения качества продукции;

- ускорение оборачиваемости и размера оборотных средств;

- улучшение использования мощности; улучшение использования рабочего времени и т.д.

2) из косвенного эффекта, реализуемого вне предприятия:

- экономия у потребителя от повышения качества продукции и ритмичности работы поставщика;
- увеличение чистого дохода общества в виде налога с оборота при увеличении объема производства;
- улучшение использования и ускорение оборачиваемости оборотных средств кооперирующих предприятий и др.

Учет всех этих факторов позволит выявить эффект создания и эксплуатации СУ МСП.

В итоге следует отметить, что экономические критерии наиболее универсальны [4, 5]. Их использование необходимо на конечных этапах проектирования. Различают критерии, построенные по принципу максимизации прибыли, по минимизации себестоимости единицы готовой продукции, а в более общих случаях по минимизации приведенных затрат на единицу готовой продукции ($C + EK$), сум/т, где C - текущие затраты, K - капитальные затраты, E - нормативный коэффициент окупаемости капитальных вложений. Внедрение системы гибкого управления ведет к существенному сокращению численности основных и вспомогательных рабочих, а также административно-управленческого персонала, при этом заработная плата с цеховыми накладными расходами в МСП уменьшится на величину:

$$\mathcal{S}_{c.z.r.}^1 = t_{p.c.} \mathcal{S}_{c.z.r.} (1 + \mathcal{K}_{z.n}) m_c,$$

где $t_{p.c.}$ - время работы персонала, подлежащего сокращению, за прошедший год; $\mathcal{S}_{c.z.r.}$ - средняя часовая ставка сокращенного персонала; m_c - количество сокращенного персонала.

Тогда снижение удельных трудовых затрат от внедрения СУ МСП можно определить по формуле

$$\Delta \mathcal{S}_{z.n.} = (1 + \mathcal{K}_{z.n}) \left(\frac{\mathcal{S}_{z.r.}}{\mathcal{B}_{z_i} + \mathcal{B}_{п_i}} - \frac{\mathcal{S}_{c.z.r.}^1 - \mathcal{S}_{c.z.r.}}{\mathcal{B}_{п.}^1} \right),$$

где $\mathcal{K}_{z.n.}$ - коэффициент общепроизводственных накладных расходов:

$\mathcal{S}_{z.r.}$ - фонд заработной платы с общепроизводственными накладными расходами до внедрения СУ.

С учетом затрат на создание и эксплуатацию СУ МСП получаем снижение себестоимости -го типа продукции

$$\Delta S_i^1 = S_i - \Delta S_{3.п.}^1 - \Delta C_{к.м.}^1 + Z/B,$$

где S_i - себестоимость единицы продукции при отсутствии СУ;

$\Delta C_{к.м.}^1$ - снижение удельного расхода затрат на материалы и комплектующие технологии

$$\Delta C_{к.м.}^1 = \frac{C_{к.м.}}{B_B + B_r} - \frac{C_{к.м.с.}}{B^1},$$

$C_{к.м.}$ и $C_{к.м.с.}$ - стоимость комплектующих технологий и материалов на планируемый год при отсутствии СУ МСП и с ней; Z - затраты на СУ МСП

$$Z = \frac{S_r + S_{об}}{T} + S_{экс}$$

T - время эксплуатации; $S_{экс}$ - годовые эксплуатационные затраты; S_r - затраты на проектные работы; $S_{об}$ - затраты на приобретение технологического оборудования, устанавливаемого в СУ МСП; B_B - объем выпущенной продукции за прошедший год до внедрения СУ; $B_{п.}$ - планируемый прирост объема продукции при отсутствии СУ; $B_{п.}^1$ - дополнительное увеличение объема выпускаемой продукции при внедрении СУ МСП.

При определении экономической эффективности СУ МСП необходимо учитывать потери в производстве, которые могут возникнуть в связи с выходом из строя СУ. Полагая, что при отказе СУ МСП несет убытки $D_{пр}$ только от невыполнения плана реализации, получим

$$D_{пр} = \sum_{i=1}^n B_{пр_i} D_i^1 \frac{t_{пр.с.}}{t_{пр}},$$

где $B_{пр_i}$ - количество продукции, недовыпущенное из-за простоя СУ; $t_{пр.с.}$ - время простоя СУ в течение года во время работы технологического оборудования; $t_{пр.}$ - плановое время работы технологического оборудования в году [1, 4, 5].

Прибыль от внедрения СУ МСП с учетом убытков от ее простоев можно определить по формуле

$$\mathcal{D}_{\text{пр}}^1 = \sum_{i=1}^n \mathcal{B}_i^1 \mathcal{D}_i^1 (1 - \frac{t_{\text{пр.с.}}}{t_{\text{пр}}}) - \sum_{i=1}^n (\mathcal{B}_{\mathcal{B}_i} + \mathcal{B}_{\text{п}_i}) \mathcal{D}_i.$$

Срок окупаемости затрат на создание и функционирование СУ определяется по формуле

$$T_{\text{ок}} = (\mathcal{S}_{\pi} + \mathcal{S}_{\text{об}}) / (\mathcal{D}_{\text{пр}} - \mathcal{S}_{\text{экс}})$$

Здесь $\mathcal{D}_i$ и $\mathcal{D}_i^1$ - прибыль, полученная на единицу продукции без СУ и с ней $\mathcal{D}_i = \mathcal{C}_{i0} + \mathcal{S}_i$; $\mathcal{D}_i^1 = \mathcal{C}_{i0}^1 - \mathcal{S}_i^1$,

Где $\mathcal{C}_{i0}$ и $\mathcal{C}_{i0}^1$ - цена единицы продукции при отсутствии СУ и с ней.

Следует отметить, что помимо явных источников экономической эффективности внедрения СУ МСП в производство дает возможность использовать и скрытые ресурсы производства за счет получения достоверной оперативной информации, повышения качества управления производством и надежности СУ, упрощения контроля за состоянием МСП.

Библиографический список:

1. Федотов К.В., Никольская Н.И. Проектирование обогатительных фабрик. Обогащение полезных ископаемых. второе издание. Стр.: 536, 2014 г., ISBN: 978-5-98672-379-2 UDK: 622.7:622.342
2. Самойлик, В.Г. Практикум по обогащению руд : учеб.-практ. изд. для обучающихся образоват. учреждений высш. проф. образования / В. Г. Самойлик, А. Н. Корчевский ; ГОУВПО «ДОННТУ». – Донецк : ДОННТУ, 2020. – 60 с
3. Хватов Б. Н. Гибкие производственные системы. Расчет и проектирование. Тамбов, 2007. 112 с. References
4. Чабан Л. С. Методы оценки эффективности и результативности асу. Сибирский государственный аэрокосмический университет имени академика М. Ф. Решетнева Россия, 660014, г. Красноярск, просп. им. газ. «Красноярский рабочий», 2013 г., УДК 004.051
5. Губин С.Л. Моделирование и расчет схем обогащения на ЭВМ. Обогащение полезных ископаемых. второе издание. 2002 г., УДК 622.7
6. Мязин В. П. Расчет технологических схем и моделирование процессов обогащения полезных ископаемых. -2012 г., М-во образования и



науки Российской Федерации, Федеральное гос. бюджетное образовательное учреждение высш. проф. образования "Забайкальский гос. ун-т" (ФГБОУ ВПО "ЗабГУ")



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK VA HIKOYA YOZISHGA O'RGATISH USULLARI

Sarvinoz Narziyeva Jamshid qizi

Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stiruvchi, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi ertak va hikoyalarni yozishga o'rgatish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, ertak, qayta hikoya, xotira, ijobiy va salbiy obraz, hayoliy uydurmalar, ertak to'qish.

Annotation: In this article, there is an idea about teaching elementary school students to write fairy tales and stories that develop their speech, logical and critical thinking.

Keywords: story, fairy tale, retelling, memory, positive and negative image, imaginary fictions, weaving fairy tales.

Bolaning ongiga oddiy haqiqatlarni qanday etkazish kerak? To'g'ridan-to'g'ri axloqiy hikoya teskari ta'sirga ega bo'lishi mumkin va ertak jiddiy qabul qilinmaydi. "Ertak" nima? Ertak - adabiy hikoya qilish janri. Ertakning eng muhim xususiyati shundaki, u fantastika uchun majburiy shartni o'z ichiga oladi. Ertakning asosiy belgilariga "atrofdagi voqelikka mos kelmaslik" va "u hikoya qilingan voqealarning g'ayrioddiylik ..." kiradi. Ertak kattalarga ularning ham bola bo'lganligini, bolalikni unutmaslik kerakligini eslatadi, chunki bolalar kattalarga qaraganda hayotni o'tkirroq his qiladilar, ba'zan esa chuqurroq tushunadilar.

Men sizni ertaklar haqida suhbatlashishga taklif qilmoqchiman. Biz ertak bilan juda erta tanishishni boshlaymiz. Birinchidan, kattalar ularni bizga o'qiydilar, keyin esa o'zimiz o'qiy boshlaymiz. Ishonchim komilki, har biringiz juda ko'p ertaklarni bilasiz. Ertak - folklorning asosiy janrlaridan biri, badiiy adabiyotga yo'naltirilgan sehrli, sarguzashtli yoki kundalik xarakterdagi axloqiy, asosan nasriy asardir.

Harakat qayerda va qachon sodir bo'lishini hal qilish kerak (qadim zamonlarda, zamonaviy dunyoda, kelajakda). Ko'p narsa bunga bog'liq bo'ladi: sehrli vaziyatlarning tavsifi, qahramonlar va sehrli yordamchilarning paydo bo'lishi.

Eng muhimi, tashqi qahramonlarning xarakterini, tashqi ko'rinishini, harakatlarini aniqlashdir.



Ertakda sodir bo'ladigan barcha voqealar va ertak vaziyatlari har tomonlama o'ylangan bo'lishi kerak, ularning ketma-ketligini aniqlash kerak, uch marta takrorlash haqida unutmang.

Yordam berishi mumkin bo'lgan savollar:

Qahramonga qanday baxtsizlik yuz berdi (jodugarlik, odam o'g'irlash, ta'qib qilish)?

Qahramonga kim va qanday yordam beradi?

Qahramonga nima bo'ladi, u qanday dushmanlarga duch keladi? (Biz sehrli o'zgarishlarni unutmashimiz kerak)

Qahramonning sarguzashtlari qanday yakunlanadi?

Ertak kimning nomiga yozilishini aniqlash kerak.

Ertakning asosiy g'oyasini maqol yoki matal bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Garchi biz har doim ham xohlagan narsamizga erisha olmasak ham haqiqiy hayot, ertaklar olami bizni hamma narsa mumkinligiga ishontiradi. Hikoyachi sifatida bo'lsa, siz harakatda bevosita ishtirok etishingiz mumkin yoki faqat hikoyadagi qahramonlar qanday harakat qilishlari va ular bilan nima sodir bo'lishi haqida ob'ektiv ma'lumotlarni xabar qilishingiz mumkin. Siz yaratgan ertak matni bolaning yoshiga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

Bolalar uchun 3 yildan 5 yilgacha oddiy mavzulardan foydalaning.

Qahramon hech narsani bilmas edi va oddiy harakatlar orqali bilib oldi. Qahramon xafa edi, lekin quvnoq bo'ldi. Kimdir ochko'z edi, qahramonning harakatlari tufayli u mehribon bo'ldi. Qahramon adolatsizlikni tuzatdi, boshqa personajlar bilan do'stlashdi, personajni saqlab qoldi va uni tabassum qildi. U nimanidir yo'qotdi, lekin uning harakatlari natijasida uni topdi.

Bolalar uchun 5 yoshdan 7 yoshgacha mavzular murakkab bo'lishi mumkin.

Yomonlarni qo'shing, qahramon bitta qiyin vaziyatdan ko'ra uchtasini engib o'tishiga imkon bering. O'zingizning ertakingizga yovuz sehr qo'shing, qahramonning isyonkor harakatlarini qo'shing: itoatsizlik, sarguzasht uchun uydin qochish, taqiqlangan harakatni amalga oshirish. Hikoyada maqol va matallarda umumlashtirilgan axloqni to'qish.

Va endi – vizuallikni shakllantirish uchun sehrli hikoyalar va rasmlarga e'tibor qaratamiz. Kichik hikoyadan boshlang. Va tasavvur eshiklarini ochish uchun fotosuratlar va rasmlardan foydalaning. Bolalarning fantaziyasini amalga oshirishga ruxsat bering. Rohat olishi va bolaning tafakkurini rivojlantirish uchun. Samimiy his-tuyg'ularni va ajoyib kayfiyatni olish uchun.

Turli yosh guruhlarda rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatishning vazifalari va uslubiyotiga nazar soladigan bo'lsak. Boshlang'ich ta'lim muassasalarining katta guruhlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligi aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro'yxatini ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulot olib boriladi.

I-topshiriq bolaga tavsiya etilgan ertak yoki hikoyani qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash. «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq», «Ikki echki», «Ur, to'qmoq», «Echki bolalari», «Toshbaqa bilan chayon» kabi ertak va hikoyalardan uchtasini taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, unga shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi.

Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi: – hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yordamisiz).

- matn mazmunining to'liqligi;
- matnni bayon qilishda izchillik;
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;
- nutqning ravonligi.

Tevarak-atrofdagi narsa-predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin:

– bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila olmaydi;

- matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;
- ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiradi;
- bir oz to'xtab-to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;
- nutqda ifodalilik yetishmaydi;
- bir xil tezlikda, bir xil tovushda hikoya qiladi;
- o'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi;
- kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;
- hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;
- mantiqiy izchillikka rioya qilmaydi.

Bolalarga «Mehmonda», «Uycha», «Maktabga yo'l» mavzulari va ularga ishlangan rasmlar tavsiya etiladi. Hikoya qilish jarayonida yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi.

Mazkur bolalarning nutqini kuzatganda quyidagilar asosiy mezon sifatida olinadi:

– tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil bayon eta olishi;



- matn mazmunini to‘liq ifodalay olishi;
- matn mazmunini bayon qilishda izchillikka rioya qilishi;
- ifoda vositalaridan foydalana olishi;
- nutqning ravonligi, tezligi;
- jumalarning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi;
- nutq madaniyatiga rioya etishi.

Bolalar nutqini o‘rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek, bolalarning tevarak-atrofda mavjud bo‘lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil etish, ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol-javoblar ham muhimdir. Shu bilan birga, bolalarning bog‘lanishli nutqini o‘rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Azimova I., Mavlonova K., Qurbonov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism. Toshkent Respublika markazi, 2021.-104 b.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi-Toshkent:”Oqituvchi”,1990
4. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi-Toshkent,2017
5. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.



AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Dostonbek Boydedayev Xusniddin o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi

boydedayevdostonbek7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz davlatchiligi tarixining eng buyuk siymosi, o'zbek xalqining tarixiy-milliy qahramoni, vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan shaxs- Amir Temurning yirik saltanat poydevorini qurish va unga asos solish yo'lidagi harakatlari, bu borada sodir bo'lgan voqealar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Movarounnahr, Amir Husayn, Samarqand, qurultoy, markaziy boshqaruv, saltanat, amir, poytaxt.

Annotation: This article talks about the actions of Amir Temur, the greatest figure in the history of the statehood of our country, the historical and national hero of the uzbek people, the person who left an indelible mark in the history of our country and the events that happened in this regard.

Keywords: Amir Temur, Movarunnahr, Amir Husayn, Samarkand, convention, central management, kingdom, amir, capital.

XIV asrning 50-yillaridagi og'ir siyosiy vaziyatdan chiqib olgan Amir Temur endi avvalgisidan ko'ra anchagina kuchliroq bo'lgan siyosiy va harbiy qudratga ega edi. Shu bilan birga uning qarshisida avvalgisidanda xatarliroq bo'lgan dushmanlar turardi. Ularga qarshi turish uchun Amir Temur yanada ko'proq tarafdorlarga va yanada ulkanroq qudratga ega bo'lishi lozim edi. Shunday vaziyatda Amir Temur o'z davlatini tashqi xatarlardan saqlab qolish yo'li sifatida musataqil markazlashgan davlat tuzishni tanladi. Tabiiyki, bu ish osonlikcha sodir bo'lmas edi.

Biz bugun aynan mana shu murakkab ishni Amir Temur qanday uddalagani, bu yo'lda u duch kelgan qiyinchilik va to'siqlar hamda ularni qanday yengib o'tgani haqida fikr yuritamiz.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamklakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z zamonasining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish ishini, avvalo, ichki g'animlarga qarshi kurashdan boshladi[1].

Amir Temurning qudrati ortgani sari unga bo'lgan ishonch ham ortib borardi. Lekin Temurbek bu darajada yuksalguncha ancha qiyinchiliklarni booshdan kechirib, toblangandi. U "Temur tuzuklari"da o'tmishdagi qiyinchiliklardan birini quyidagicha eslaydi: "O'sha vaqtda davlatimning kuchi ketib, saltanatimning asosi yemirila boshladi. Chunonchi, menga ergashgan yo'ldoshlarim o'n ikki kishidan ortiq emas edi. Ulardan yettitasi otliq, uch kishi esa piyoda edilar. Ulardan boshqa men bilan hech kim qolmagandi"[2].

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur mana shunday qiyin sharoitlardan ham chiqib keta oladigan darajada salohiyatga ega edi. Dushman qo'lida asir tushib qolgan paytlarida ham Temur hech qachon taslim bo'lish haqida o'ylamadi. Natijada shu va shu kabi boshqa qiyinchiliklardan chiqib, asta-sekin qudrati ortib borgan Amir Temur endi o'z ichidan chiqqan dushman- Amir Husaynga qarshi kurashga kirishdi.

Amir Temur va Amir Husayn orasidagi munosabatning keskinlashuvi ular o'rtasida to'qnashuvlarga olib keladi. 1367-yil boshidan to 1370-yil bahorigacha bo'lgan vaqt ichida bunday to'qnashuvlar bir necha marta yuz beradi. Ular ikki marta yarashishadi[3]. Ikkala amir o'rtasidagi asosiy to'qnashuv 1370-yil aprelida Balx yaqinida yuz berdi. Amir Husayn batamom yengilgach, Amir Temur huzuriga o'z o'g'lini yuborib, gunohidan kechishini va Makkaga hajga borishga ruhsat berishini so'raydi. Amir Temur bu iltimosga rozilik berayotgan bir paytda Amir Husaynning o'zini ham qo'llari bog'liq holda olib kirishadi. Amir Temur uning aybini kechiradi lekin Movarounnahrning nufuzli beklari hamda Amir Temurning yaqinlari bunga qarshi chiqishadi. Bu haqida ayrim manbalarda quyidgicha ma'lumot keladi:

"Orada bo'lib o'tgan voqealar, tortishuvlar, makr-xiylalar va hatto, kuchli to'qashuvlar natijasida Amir Husayn va qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi, uning o'zi esa aholining qarshiligiga qaramay Balxda qo'lga olindi. Temurbek uning hayotini saqlab qolmoqchi bo'lgan, ammo uning safdoshlaridan ayrimlari Amir Husaynning ortidan xufiyona kuzatib, o'z xo'jalarining xohishiga qarshi uni o'ldirishgan[4]. Bu ma'lumotning qay darajada haqiqatga yaqin ekanini bilib bo'lmaydi.

Lekin haqiqat shuki, Amir Husaynning kallasi uzilayotganda Amir Temur eski kunlar xotiri sababli bu jarayonni ko'rib tura olmaydi. Shuningdek, Amir Husaynning kallasi olingandan so'ng, unga xayrixoh bo'lgan o'g'illari ham o'ldiriladi.

Ikki o'rtadagi so'nggi jang oldidan Amir Temur qo'shini Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi nog'ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat



qiladi[5]. Bu voqea siyosiy ahamiyat kasb etgan. Chunki musulmon odatlariga ko'ra, nog'ora bilan bayroq toj-u taxt ramzi hisoblanar edi.

Shundan so'ng, 1370-yil 9-aprel, chorshanba kuni nufuzli amirlardan Shayx Muhammad Sulduz, Kayxisrav Xuttaloni, O'ljoytu apardi, Dovud dug'lot, Sarbug'o Jaloyir, Joku Barlos, Muayyad Arlot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn Bahodir hamda boshqa amirlar va sardorlar, sayyidlardan Sayyid Baraka, termizlik aka-uka sayyidlar Abul Maoliy va Ali Akbar kabilar xuzurida Amir Temur hokimiyati bir ovozdan tan olinadi[6]. Bu vaqtda Amir Temur endigina o'ttiz to'rt yoshga kirgan edi. Shu tariqa mo'g'ullarga 150 yillik siyosiy qaramlik, yurtdagi boshboshdoqlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi qoloqlik davriga rasman chek qo'yilib, davlatimiz mustaqilligi tiklangan.

Amir Temurning taxtga kelishi haqida quyidagi ma'lumot ham bor: "O'zingizni xon deb emas, amir deb e'lon qiling. Chunki siz faqat Movarounnahr hukmdorligi bilan cheklanmaysiz. Alloh sizga yetti iqlim hukmronligini inoyat etgan"[7].

Ushbu fikrlar Amir Temurga piri Sayyid Baraka tomonidan aytilgan edi. Bu vaqtda Amir Temur qanday qilib Chingizxon va Chig'atoy avlodlarini sharmanda qilish, ularni o'z qo'lida qo'g'irchoq qilib o'ynatish mumkinligi haqida o'ylayotgan edi. Tabiiyki, unga pirining gaplari to'liqligicha ma'qul keladi. Natijada Temurbekni saylashdan avval Sayyid Baraka xalqdan rozilik so'raydi. Butun aholi Temurbekning amir lavozimini egallashini ma'qullashadi. Shundan so'ng Amir Temur rasman hukmdor deb tan olindi hamda unga Sohib ul-qiron unvoni beriladi. Sohib ul-qironning ma'nosi- yulduzlar hukmdori, yulduzlar bir joyga kelganda tug'ilgan hukmdor degani edi.

Bundan tashqari, yakunda hukmron deb tan olingan Amir Temurga Sayyid Baraka oltin kamar, hashamdor qilich hamda yoqut isirg'a ham tortiq qiladi.

Hukumatni qo'lga olgan Amir Temur endigi maqsad sifatida ichki birlikni mustahkamlash va muammolarni bartaraf etishga qaror qildi. U ishni Amir Husayn tortib olgan pul va zeb-ziynatlarni egalariga to'laligicha qaytarishdan boshladi. Keyin esa o'ziga qarshi kurashda Amir Husaynni qo'llab-quvvatlaganlarni qatl ettiradi. Chunki ushbu kuchlarda Amir Temurga nisbatan xali ham xusumat saqlanib qolgan bo'lishi mumkin edi hamda bu narsa Amir Temurning kuchli davlat qurish g'oyalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, muxolifat guruhini shakllantirishi mumkin edi.

Amir Temur dastlab poytaxt sifatida Keshni tanlamoqchi bo'ladi. Lekin uning ancha chetda joylashganligi, qish paytida qatnovning qiyinlashishiga sabab bo'ladigan iqlimi, dengiz sathidan balandligi hamda yangi binolar qurish

imkoniyatini cheklanganligi sababli Amir Temurning bu g'oyasi amalga oshmay qoladi.

Ichki birlikni anchayin yaxshilagan Amir Temur endilikda markazlashgan davlat tuzishga qaror qiladi. Shu maqsadda u 1370-yil iyul oyida Samarqandda qurultoy chaqiradi. Unda Shibirg'on hokimi Zinda Chashmdan boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'planadi. Yig'ilganlarning barchasi Amir Temurning hokimiyatini tan oladi. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilinadi. Bu yerda yangi imoratlar qad ko'taradi. Davlatda qonun va tartib ishlari joriy etiladi. Maxsus qo'shin tuzilib, unga katta imtiyozlar beriladi. Yirik harbiy bo'linmalar rahbarligiga Joku Sayfuddin, Abbos Iskandar, A'lam Shayx, Ardasher Qavchin va boshqalarni tayinlaydi[8].

Qurultoyda ishtirok etmasdan bo'ysunmaslik siyosati yuritgan Shibirg'on hududi 1370-yilning o'zidayoq bo'ysundiriladi. Shu tariqa Amir Temurning markazlashgan davlati tashkil topadi.

Bularning barchasiga Amir Temur o'zining tinim bilmasligi, qat'iyatligi hamda aql-zakovati bilan erishadi. Bu borada Beatris Mants Amir Temurga: "Kuchli xarakter sohibi, mohir siyosatchi va lashkarboshi, ilmi inson"-deb ta'rif bergan[9].

Bu Amir Temurning mustaqil markazlashgan davlat tashkil etish yo'lida qilgan harakatlarining qisqacha bayoni edi. Ushbu tarixiy voqealar hamda dalillardan biz shuni tushunib yetamizki, bugungi kunda Amir Temurga nisbatan ishlatiladigan ijobiy ta'riflar, butun dunyo e'tirofi, uning nomi bilan birga qo'shib aytiladigan turli unvon va maqtovlarning birortasi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan emas. Bularning barchasini ortida Amir Temurning cheksiz mehnati, sabr-toqat va matonati, qat'iyati, yurt ravnaqi yo'lida sarflangan umrining katta qismi yotadi. Bu ulug' da'vo yo'lida taqdir tomonidan kelgan sinovlar Amir Temurni aslo to'xtatib qo'ymadi. Aksincha, o'z da'vosi yo'lida duch kelgan har qanday sinov va mashaqqatlarga Temur o'z aql-zakovati, idroki, keng va chuqur mulohaza qila olish, uzoqni ko'ra olish qobiliyati orqali yechim topa oldi, barcha og'ir vaziyatlardan chiqib keta oldi. Shuning uchun ham u buyuklar qatoridan joy ola bildi, shuning uchun ham uni yuzlab yillar o'tsa ham o'z xalqi, o'z millati birdek ardoqlab, qadrlab kelmoqda. Xalqning Amir Temurga nisbatan bugunga qadar saqlanib qolgan hurmati davriy emas, aksincha, abadiydir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org/mavzu-amir-temurning-oz-davlat-chegaralarini-kengaytirish-uchu.html?page=4>



2. В. Ahmedov. Temur tuzuklari. T.: Yoshlar nashriyot uyi, -2018. –Б. 31.
3. С. Саидкосимов. Амир Темур жахон тарихида. Т.: Шарк, -1996. –Б. 46.
4. Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. Т.: Маънавият, -1999. –Б. 26.
- А. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi. T.: Sharq, -2017. –Б. 114.
5. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи: (Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). Т.: Шарк, -2001. –Б. 158.
6. Х. Содиков. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. Т.: Art flex, -2010. –Б. 88.
7. D. O‘roqov, A. Sharopov. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. T.: Akademnashr, -2013. –Б. 90.
8. Шохистахон Улжаева. Амир Темур давлат бошқаруви. Т.: Akademnashr, -2017. –Б. 22.



XOTIN-QIZLARNING BANDLIGI YECHIMLARI VA UNDAGI IJTIMOIIY SHERIKCHILIK MEXANIZMINING ROLI

M.O.Baltabaeva

Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi

Email: baltabaeva_67@inbox.ru

G.A.Yuldasheva

Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbekistonda xotin-qizlar bandligini taʼminlashning ahamiyati va bunda ijtimoiy sheriklik mexanizmi hamda uning subyektlari haqida toʻxtalib oʻtilgan. Ushbu ijtimoiy sheriklik kuchli mexanizm boʻlib, muzokaralar olib borish va birgalikda boshqarish uchun uyushgan, erkin va masʼuliyatli xodimlar jamoasidir.

Kalit soʻzlar: yalpi ichki mahsulot, ayollar ishsizligi, ijtimoiy sheriklik, davlat organlari, jamgʻarmalar, tashabbuskorlik, bandlik, teng huquqlilik.

Annotation: In this article, the importance of ensuring the employment of women in Uzbekistan and the mechanism of social partnership and its subjects are discussed. This social partnership is a powerful mechanism, an organized, free and responsible team of employees to negotiate and manage together.

Keywords: gross domestic product, women's unemployment, social partnership, state bodies, savings, initiative, employment, equal rights.

Ijtimoiy sheriklikni oʻz mohiyatiga koʻra "uyushgan mehnat, uyushgan biznes va hukumat oʻrtasidagi barqaror oʻzaro tan olish munosabatlari, institutsional hamkorlik va tartibga solinadigan ziddiyat" deb taʼriflash mumkin (Streeck & Hassel, 2003). Ushbu taʼrifda bir qator asosiy xususiyatlar mavjud. Bu barqaror: tarmoqlarni qamrab oluvchi va har qanday hukumatdan ham uzoq davom etadigan oʻrnatilgan tizim mavjud. Bu institutsional hamkorlikni oʻz ichiga oladi, yaʼni ish haqini belgilash va oʻqitish kabi sohalarda ish beruvchilar va kasaba uyushmalari oʻqitilgan ishchilar bilan yetarli darajada taʼminlash kabi jamoaviy harakatlar muammolarini hal qilish uchun birgalikda ishlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Oʻzbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sherikchilik toʻgʻrisida" gi qonun qabul qilingan va mazkur qonunga koʻra Ijtimoiy sherikchilik – davlat organlarining NNT va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu



jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi hamkorlikdir.

Ijtimoiy sherikchilik subyektlari sifatida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar (fondlar, jamg'armalar, uyushmalar, birlashmalar) hamda fuqarolik jamiyati institutlari (siyosiy partiyalar) faoliyat ko'rsatadi. Shu o'rinda, mamlakatimizda ayniqsa xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda ushbu mexanizmdan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xotin-qizlar hayot tarzini yaxshilash, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022 sanasidagi PQ-146-son qarori bilan oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tuzilishi mamlakatimizdagi xotin-qizlarning nafaqat bandligini ta'minlash, balki ularning oliygohlarda o'qishini ta'minlash, ilmiy salohiyatini oshirishda, kasbiy ko'nikmalarni egallashda va hattoki turli qobiliyat va iste'dod egasi bo'lgan xotin-qizlarni rag'batlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Olima ayollar jamiyati"ni tuzilishi, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan "Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi"ning tasdiqlanishi, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarining tashkil qilinishi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol isboti bo'la oladi. <https://xs.uz/uz/post/category/culture> Oliy Majlis Senatida xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. (Xalq so'zi, 16.02.2022-y)

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida" gi qonunining asosiy maqsadlaridan biri albatta davlat organlarining nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunlarni ishlab chiqishda hamkorligini yanada kuchaytirish va davlatimiz rivojini ta'minlashdan iborat.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashdagi e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihatlardan yana biri esa ish haqi, ish joyidagi sharoit va tenglik kabi masalalardir. Boisi, ijtimoiy sheriklik tizimi ish beruvchi va xodimlar manfaatlarini muvozanatini ta'minlashga hamda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarmoq kelishuvlarida ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoya, bandlik, mehnatga haq to'lash, mehnat muhofazasi, xodimlar, ularning oila-a'zolarini sog'lomlashtirish, munosib va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, ayollar hamda yoshlarning



manfaatlarini muhofazasi va tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqadigan boshqa me'yorlar o'z aksini topgan.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonunga bo'ysunish;
- teng huquqlilik;
- ochiqlik va shaffoflik;
- hammaboplik;
- mustaqillik;
- xolislik;
- o'zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas'uliyat;
- majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

Ijtimoiy sheriklik tamoyili o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ijtimoiy adolat, fuqarolar farovonligi, ularning ijtimoiy himoyasi haqida qayg'urish kabi majburiyatni oladi. Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatni o'zining asosiy vazifasi deb bilib, mazkur siyosatning Konstitutsiyada belgilangan yo'nalishlarning keng qamrovli amalga oshirishda tashabbuskorlik ko'rsatadi. Mazkur tamoyilga amal qilgan holda davlat, o'z organlari orqali uzluksiz ravishda ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi muammolarni hal qilish choralari ko'rib boradi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarni o'zini –o'zi boshqarish organlari ana shu tamoyil asosida davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni shakllantirib boradi. Ijtimoiy sheriklik- o'z navbatida yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch sektor manfaatlarini muvofiqlashtirish va ijtimoiy hayotning barcha muammolarini hal etishdagi hamkorlikdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy sheriklikning eng muhim jihati bu taraflarning huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o'zaro kelishuvi emas, balki ular o'rtasidagi munosabatlarning alohida eng nufuzli axloqiy qoidalar majmuidir.

Bizning mamlakatimiz ijtimoiy sheriklik tizimini amalga oshirishning huquqiy kafolatlari dunyo tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlanishiga, ular tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi masalalari ko'zda tutilgan. Eng muhimi nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 sanasidagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni o‘z navbatida ijtimoiy sheriklik mexanizmidan foydalangan holda mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishni maqsad qilgan.

Tadbirkor ayollar ko‘proq qaysi sohada faoliyat olib bormoqda?

2022- yilning 1- yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida tadbirkor ayol rahbarlarning iqtisodiy sohalar bo‘yicha faoliyati:

- savdo sohasida – 14 147 ta
- xizmatlar sohasida – 10 057 ta
- sanoatda – 5 543 ta

2022-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida ayol rahbarlar boshqaruvida kichik korxona va mikrofirmalarning mahsulot sotishdan tushgan sof daromadi 22,6 trln. so‘mni tashkil etgan.

Ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalarning sof daromadi o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda qariyb 7 trln. so‘mga oshgan. Ayol rahbarlar boshqaruvida 36 472 ta kichik korxona va mikrofirmalar mavjud.²

Tadbirkor ayollar rahbarlik qilayotgan kichik korxona va mikrofirmalar moliyaviy natijasi: 2021- yil yakunlari bo‘yicha jami 121 746 ta erkaklar rahbarlik qilayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 27 966,0 mlrd so‘m sof foyda olingan bo‘lsa, 16 359 ta ayollar rahbarligidagi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 312,9 mlrd,so‘m sof foyda olingan. O‘rta hisobda bitta tadbirkorlik subyektiga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdori tadbirkor erkak rahbarligidagi kichik tadbirkorlik subyektlarida 229,7 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, tadbirkor ayol rahbarligidagi korxonalarda bu ko‘rchatkich o‘rtacha 141,4 mln. so‘mni tashkil etdi.

Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda respublikaning YAIMda ayollar mehnatining ulushi sezilarli darajada o‘z o‘rniga ega.

Oliy ta‘lim tashkilotlarida 2175 ta fan doktorlari faoliyat yuritgan.

²<https://stat.uz/uz/>. Tadbirkor ayollar ko‘proq qaysi sohada faoliyat olib bormoqda? 13/12/2022

Oliy ta'lim tashkilotlarida 2021- yilda jami 37,4 ming nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritgan. 2020- yilda bu ko'rsatkich 32,1 ming nafarni tashkil etgan. Mazkur professor-o'qituvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: Ayollar – 44,6 %; Erkaklar – 55,4 %

Mehnat bozori indeksi mehnat bozoridagi holatni baholash va monitoring qilishda yordam beruvchi indeks bo'lib, mehnat bozorining joriy holatini bevosita aks ettiruvchi 5 ta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.³

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda ijtimoiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish nafaqat ishsiz ayollar sonini kamaytiradi, balki ularni raqobatbardosh ish o'rinlari va qulay ish sharoitlari bilan ta'minlashda, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyoti va davlat budjeti rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Streeck W, Hassel A. The crumbling pillars of social partnership. West European Politics. 2003;26(4):101–124.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son.
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5884084>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori, 01.03.2022 yildagi PQ-146-son.
4. Walby, S. (2005), ‘Gender mainstreaming: Productive tensions in theory and practice’, Social Politics: International Studies in Gender, State and Society.
5. Burxonovich, M. R., & Ortiqaliyevna, B. M. (2022). Conditions for improving the standard of living of the population. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 44-48.
6. Baltabayeva, M. (2022). SANOATNI RIVOJLANTIRISH-DAVR TALABI-UY MAISHIY TEXNIKALARINING FOYDALARI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(5), 29-32.

³ <https://t.me/uzstataxborot> Oliy ta'lim tashkilotlarida 2175 ta fan doktorlari faoliyat yuritgan



7. Yuldasheva, G. A., Baltabayeva, M. (2022). ZNACHENIE INNOVATSIONNOGO OPIYTA V FORMIROVANII POVYSHENIYa UROVNYa DOXODNOSTI NASELENIYa. Talim fidoyilari, 8, 172-185.
8. Umarov, O. Concept of guaranteed development of enclave territories / O. Umarov, D. Khakimov // . – 2020. – No. 6(73). – P. 265-268. – EDN ROLXJX.
9. Kadyrovna, A. M., Burkhanovich, M. R., & Ortikaliyevna, B. M. (2022). DEMAND AND SUPPLY FOR LABOR FORCES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 85-90.
10. Baltabayeva Malokhat Ortiqaliyevna. (2022). DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON GROSS DOMESTIC PRODUCT. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 100–104. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/976>
11. Maxsudov Sherzod Solijonovich (2022). BOZOR IQTISODIYoTI ShAROITIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARDA BOSHQARUV.. Talim fidoyilari, 08-10 , 121-134.
12. Ortikaliyevna, B. M., & Abdunabiyevna, K. D. (2022). BENEFITS OF HOUSEHOLD APPLIANCES IN THE PROTECTION OF THE ENVIRONMENT AND WATER RESOURCES. Thematics Journal of Economics, 8(1).
13. Baltabayeva, M. O. (2023). Using the Mechanism of Social Partnership to Ensure the Employment of Women. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(3), 65-69.
14. Yuldasheva, G. Минтақаларни ривожлантиришда инвестицион жараёнлар ва уларни бошқаришнинг ўзига хос хусусиятлари / G. Yuldasheva, A. Kuchkarova // Минтақа иқтисодиёти инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари, 27 мая 2020 года, 2020. – P. 543-547. – EDN WYZVTP.
15. Baltabaeva, M. (2023). SHAHAR VA QISHLOQLARDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH YECHIMLARI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(8).
16. Umarov O., & Khakimov D. (2020). CONCEPT OF GUARANTEED DEVELOPMENT OF ENCLAVE TERRITORIES. Экономика и социум, (6 (73)), 265-268.



IQTISODIYOT – UY XO‘JALIGI YURITISH SAN’ATI

O.Q.Umarov

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

M.O.Baltabaeva

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchi

baltabaeva_67@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik mexanizmi asosida xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta‘minlash muhimligi, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hukumat qarorlari zarurligi ochib berilgan. Noekin yerlardan oqilona va unumli foydalanish, tut ko‘chatlaridan daromad keltirish va davlat byudjetini boyitish yo‘llari bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: bandlik, tut ko‘chati, tut bargi, dorivor choylar, ijtimoiy sheriklik mexanizmi, davlat qarorlari, davlat budjeti, tashabbuskorlik, teng huquqlilik.

Annotation: This article reveals the importance of ensuring the employment of women and youth in Uzbekistan on the basis of the social partnership mechanism, the need for government decisions and decrees on additional measures to ensure employment. The ways of rational and fruitful use of uncultivated lands, the use of mulberry seedlings in order to generate income and enrich the state budget are proposed.

Keywords: employment, mulberry seedling, mulberry leaf, medicinal teas, social partnership mechanism, government decisions, state budget, initiative, equality.

Ilmiy maqolaning sarlavhasiga e‘tirozlar bo‘lishining oldini olish uchun iqtisodiyot so‘zini ta‘rifladik. Doimiy ish o‘rinlariga talab yuqoriligidan tashqari, shartlar ham ortib boraveradi. Yani, ish joyi uyga yaqin bo‘lsin, ish vaqti qat’iy 8 soat emas, balki sirpanuvchan bo‘lsin. Yengil, serdaromad, ekologik toza va qiziqarli bo‘lsin. Ish joylari ekin yerlarini band qilmasin, tashkil etishda katta mablag‘lar sarflanmasin. Ishlab chiqarilgan tovarlar (maxsulot, ish, xizmatlar) uzoq saqlansin, tashish qulay bo‘lsin, realizatsiyasi oson bo‘lsin. Xaridorlari doimiy, serdaromad bo‘lsin.

O‘zi ish joylari yetishmay, mehnat resurslari xorijga ish qidirib chiqib ketishayotgan bir paytda, qolaversa, inson mehnati yangi texnologiyalar zimmasiga o‘tkazilib, xarajatlar tejalayotgan zamonda doimiy ish o‘rnilariga shuncha talablar



qo'yilishi aqlga sig'maydigan fantaziya, havoilylik, bilimsizlik, to'g'rimi? Biroq, yuqorida sanab o'tilgan talablarga javob bera oladigan, millionlab ish o'rnolari barpo qilishni imkoni bor. Bu ish joylarida ko'p qavatli uylarda yashab, uy-ro'zg'or, bolalar tarbiyasi bilan band ayollar ham uyidan chiqmay 2-4 soat mehnat qilib oila byudjetiga salmoqli xissa qo'shishlari mumkin. Kunduzgi ta'limda oliygohlarda o'qib turgan talabalar ham, o'qishdan bo'sh vaqtlarida 3-4 soat ishlab, ta'lim uchun shartnoma to'lovlarini o'zlari to'lashlari mumkin. Hatto, o'qishni tamomlagach, diplom bilan birga ozroq jamg'arma va biznes tajribasini olib uyga ketishadi. O'qish vaqtida olgan amaliy tajribalari xayotda asqotadi. Ulardan yaxshi tashkilotchilar, raxbarlar yetishib chiqadi. Ular davlatni boy va obod qilishadi.

Qayerda ko'plab ish joylari tashkil qilish, millionlab xohlovchilarni doimiy, serdaromad, ekologik toza, uyiga yaqin ishlarda band qilish mumkin? Qolaversa, ekin yerlarini band qilmasdan bizneslar tashkil qilish mumkinmi? Mumkin. Qalovini topsak, qor yonadi. Izlagan imkon topadi. Hali yosh olimlarimiz, yorug'likni elektr energiyasiga aylantirib beradigan elementni ham ixtiro qilishadi. Biz, katta yoshlilar nima qila olamiz? Maslahat berib, imkoniyatlarni ko'rsatib turamiz. Takliflarimizni diqqat bilan o'rganib, bosqichma bosqich amalga oshiradigan tashkilotchilar, o'mak ko'rsatadigan vatandoshlar kerak xolos. Ular kimlar ichidan bo'lishlari mumkin? Bizningcha, ular mahallalarning raislari, hokim yordamchilari, faol yurtdoshlar ichida bor.

Agrosanoat va xunarmandchilik uchun xom ashyolar ishlab chiqarishni rekreatsiya (istirohat) xududlarida va boshqa noekin yerlardan samara bilan foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Buning uchun:

1) iyun oyi boshida dalalardagi mahalliy nav tutlar ostida sochilib yotgan tut mevalarini terib olish kerak. Mevalarni idishga solib ustidan to'lgunicha iliq suv quyish kerak. Idishni salqin joyda 1 kecha-kunduz saqlanadi. Keyin idishdagi tut mevasi barmoqlar bilan ezg'ilanadi. Tut urug'lari suvga ajrab chiqadi. Suv tubiga cho'kadi. Urug'ni olib dokaga yoyib quritiladi. Keyin bog' ichiga marza ochib, ustiga sepib, urug'ni tuproqqa aralashtirib, sug'oriladi. Iyunni oxirlarida ko'chatlar ko'zga ko'rinadi. Agranom bilan maslaxatlashiladi. Iloji bo'lsa, yayratib qayta ekiladi. Mutaxassis aytgan muddatda ko'chatlar serbarg tut novdalariga ulama-payvand qilinadi;

2) ko'chatlar tayyor bo'lgach, erta bahorda shahar ko'chalari, bog', xiyobonlar, ko'p qavatli uylar atrofi, bog'cha, maktablar xovlilarida o'sib turgan manzarali daraxtlar orasidagi 1-3 metr bo'sh joylarga bir tupdan ekib chiqiladi. Tutchalar bir yil sug'orib turiladi, xalos. Ular keyinchalik, yomg'ir va qor suvi bilan o'saveradilar.

Tutchalar soya-salqinda ham o'saveradi. Ular past bo'yi, foydalanish uchun qulay bo'lishi maqsadga muvofiq. Tutlar ekilgan yili, iyul oy oxiriga borib kamida 100-300 gramdan barg beradi. 3 marta beradi. 5 yoshli tut 5 - 6,5 kilogram barg beradi. 5-7 martagacha beradi. Novdalari 1-2 marta kesib olinadi, xolos. Qolgan paytlarda barglar qo'l bilan terib olinadi. Bargidan choy tayyorlanadi, Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi. Hozirgi payda Vengriya, Belarus, Ukraina va boshqa Yevropa mamlakatlariga eksport amalga oshirilayapti.

3) tut bir yilda 5-7 marta barg beradi. Tut bargi bilan ipak qurti boqish uchun qurtxona kerak. Qurtxona akfa plastik materiallaridan yasab, tut qatorlar ichiga(yaqiniga) o'rnatiladi. Ichida 4-5 qavat so'kchak (stellaj)lar bo'ladi. Qurtxonalar yasab sotish yoki ijaraga berish biznesi ham serdaromad, serxaridor. Isitish va sovutish elektr energiyasiga asoslanadi. 5 yil ichida 500000 dan ortiq qurtxonalar faqat rekreatsiya xududlaridagi tutlar bargi bilan ipak qurti boqish uchun kerak bo'ladi. Aslida 10 yil ichida 2 million donadan ortiq, ichida 40 kvadrat metr so'kchaklari bo'lgan qurtxonalarga ehtiyoj shakillanadi. 1 gram urug' uchun 2 kvadrat metr stellaj kerak. Katta qurtxonalardan foydalanilmaydi, hisob. Chunki, kelajakda ekin yerlaridagi tut plantatsiyalaridan foydalanilmaydi. Ekin yerlari oziq-ovqat va boshqa sanoat xom ashyolari yetishtirish uchun foydalaniladi. Tut qatorlardan foydalaniladi.

4) Ipak qurti urug'ligini pilladan olib, saqlab, kerak vaqtida jonlantirib berish xizmati ham serdaromad. Urug'ni 2 yilda bir marta uzooqdagi viloyat urug'chilari bilan almashlab turiladi. 2 kg. xom pilladan 1 quti urug' olinadi. Buyurtmachi foydalanib bo'lingan teshik pillani urug'chida qoldirishga rozi bo'lsa kifoya. Urug'chi teshik pillani ipakka aylantirib oladi. O'sha xom ashyodan keladigan daromad unga yetadi. Chunki, 1 kg. pilla yetishtirish uchun, boshqa xarajatlardan tashqari 26,7 kishi/soat qo'l mehnati sarflanadi. 1 kishi/soat uchun 12 ming so'm haq to'lanadigan bo'lsa ham 1 kg. pilla 320400 so'mga tayyor bo'ladi. Demak, 1 quti ipak qurtini jonlantirib bergan urug'chi 640800 so'mga ishlab olar ekan. Pillani teshikligini hisobga olsak, kamida 500 ming so'mga ishlab oladi. Buyurtmachilar soni ortgani sayin, daromad ko'payib boraveradi. Mutaxassislarning 1 kishi/soat mehnati uchun to'lanadigan haq aslida 18-20 ming so'mligini hisobga olsak pillakor daromadi ham yuqoriligini bilib olish qiyin bo'lmaydi.

5) Ozuqa bor, qurtxona bor, ipak qurti urug'i bor ishchi qo'llar va elektr bo'lsa, 1 quti ipak qurtidan kamida 50 kg. xom pillani, shahar markaziy ko'chasi qirg'og'ida ham yetishtirish mumkin. Amaliy misol kerak bo'lsa, Marg'ilon shahrining Mustaqillik ko'chasiga kelib ko'ring. Video tasvirga olib keting. Manzarali daraxtlar



orasidagi tutchalardan 2019-yildan buyon foydalanishayapti. 2018-yilda ekanmiz. 2018-yilda O'zbekiston Dunyo tarixida birinchi bo'lib rekreatsion tutchilik biznesiga qadam qo'ydi. O'zbekistonning rekreatsiya xududlariga kamida 100 millionta tutchalar sig'adi. 200 tup tutcha bargi bilan bir quti ipak qurti boqish mumkin. 500 ming quti ipak qurtini 5 marta takror boqib, xar safar 50 kg.dan pilla olinsa xosil 125 ming tonnani tashkil etadi. Bu 50 ming tonnaga yaqin toza, quruq, standart ipak demakdir.

6) 100 million tup tutlar 5 mln.kub metrdan ortiq novda beradi. Bu yog'och xom ashyosini qayta ishlab DVP, DSP va ulardan mebel tayyorlashda qancha ish joylari paydo bo'ladi? Novdadan ajratib olingan 200 ming tonnadan ortiq qovzoqni qayta ishlab ipak qog'oz (pul qog'oz) olishda qancha odam ishli bo'ladi? Ipak qurti qumalog'i Yaponiya va uning atrofidagi mamlakatlarda noyob dori vositasi hisoblanadi. U yerlarda oshqozon ichak kasalliklarini ipak qurti qumalog'i bilan davolashadi. Qumaloqni eksport qilish mumkin. Pilla g'umbagi inson terisini yoshartirib silliqalaydi. Kosmetika xom ashyosi. Bu xom ashyo bilan olimlar va biznesmenlar jiddiy shug'ulanishlari kerak. Ishlar yurishib ketgach pilla g'umbagini qayta ishlash ham ipakdan olinadigan daromadga yaqin naf keltiradigan soxaga aylanishi mumkin. Pilla yetishtirishdan ortib qoladigan barglardan foydalanib, nafaqat choy, balki shamollash va o'sishdan orqada qolishga qarshi qo'llaniladigan dori-darmonlar ishlab chiqarish mumkin. Bitta tadbirkor Vengriya tajribasini o'rganib kelsa kifoya. Ular bizdan sotib olayotgan bargdan dori-darmonlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan. Dunyoda 50 ga yaqin davlatlar pilla bilan shug'ulanishadi. Lekin O'zbekiston quyoshida yetishgan tut bargi o'rnini xech qaysi tutlar bosa olmaydi. Zarurat bo'lmasa ham, eslatib o'taylik: Xitoy Xalq Respublikasida bir yilda 8 marta takror-takror pilla yetishtirishadi. Xindiston Respublikasida esa 10 marta. Bizda 7 martaning imkoni bor.

7) Boshqa noekin, tut ekib foydalaniladigan yerlar ham bor: a) 3658,4 ming gektar sug'oriladigan yerlar atrofidagi dala uvvotlarida kamida 300 million tup past bo'yli, 2 qator, zich tutlar ekib foydalanish imkoniyatimiz bor. Tutlar yer osti zax suvlarini bug'latadi, yerning sho'rlashishini to'xtatadi. Hosilni shamoldan to'sadi. Yer konturlarining katta-kichikligi ham aslida zax suvlarning past yoki yuzadaligiga qarab tuzilgan. Bir tup 6 yoshli tut bir kecha-kunduzda 800 litrgacha keraksiz namlikni bug'latadi. Dala uvvotlarini 1-2 kilometrdan ajratib, ixtiyoriylik asosida, ayollarning biznes jamoalariga biriktirib berish kerak. Ular bor tutlardan foydalanib turib, teraklar orasiga 2 qator tutchalarning ko'chatlarini ekib o'stirishadi. Qurtxonalarni tutqator ichiga o'rnatib berish kerak. Dala uvvotlarini fermer hisobidan



chiqarib, uni pillakorlar ro'yxatidan chiqarish, tezroq chiqarish kerak. Chunki fermerning qurtxonasi yo'q. Xohishi yo'q. Unga teraklardan foyda. Ayollar biznes jamoalari tutdan olinadigan 7 xil xom ashyolarni to'liq, chuqur qayta ishlay oladi. Nega? Chunki, ularning yordamchilari ko'p. Bittasining o'g'li mebelchilikni yuritsa, boshqasining ukasi ipak qog'ozni chiqara boshlaydi. Hozir aloqa bor, transport bor, tashqi xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar bor, davlat qo'llab-quvvatlab turipdi. Ayollarning ixtiyoriy biznes jamoalari ishlarni tezda yo'lga qo'yib olishadi. Ular borishgach dalalarga transport qatnovllari, umumiy ovqatlanish xizmatlari ish boshlaydi. Hatto tibbiy xizmat ham ish boshlaydi. Pul, ko'p pul bor joyda xizmat ko'rsatuvchilar ko'payadi. Nega ayollar biznes jamoalarida pul ko'p deyapmiz? 6-8 kishilik ayollar biznes jamoalarida 2 yil utib milliardlab so'mlar aylana boshlaydi. Pullarni o'zlari kelishib bo'lib olishadi. 3-4 yil o'tib qayta ishlash sexlari qura boshlashadi.

8) Boshqa noekin tutlar ekib foydalaniladigan joylar ham bor. Lekin, ulardan foydalanish uchun hozircha ishchi kuchlari yetmaydi. Masalan, axoli yashash xududlaridan tashqaridagi magistral yo'llarning 2 tomonidagi 5-200 metrli noekin yerlarni olaylik. O'sha joylarda suv yo'q xolos. Tadbirkorlarni chaqirib, yo'l chetlarini 1-5 kilometrdan olinglar va uzog'i 2-3 yil suv tashib, yong'oq, o'rik, pista, bodom ekinglar, xech qanday to'lov yo'q, desak masala xal bo'ladi. Ulaga yordam tariqasida kichik maslaxat ham beramiz. Yong'oq mevaga kirishini kutmay daromad olib turinglar deymiz. Qanday daromad?, deb so'rashadi. Mevalar orasidagi bo'sh joylarga tutchalar ekinglar, ular birinchi yildan oz bo'lsa ham barg berishadi deymiz. Bargni terdirib choy tayyorlovchilarga sotib daromad ola boshlashadi. Ikkinchi misol, sun'iy o'rmonlardagi daraxtlar orasiga bir tupdan tutchalar ekishdir. Sun'iy o'rmonlarda ko'plab ishchilar ishlashayapti. Ularga, o'zingiz uchun, kuchingiz yetganicha tutchalar ekib foydalaninglar desak ham bo'ladi. Majbur emas, ko'p pul topishni xohlasangiz, marhamat, deyiladi, xolos. Keyinchalik 2 million geklardan ortiq o'rmon va sun'iy o'rmonlar ichida millionlab ish joylari tashkil qilamiz.

9) Shu ishlar nega yurib ketmayapti? XX-asrdagi tushunchalardan qutila olganimiz yo'q. Kambag'alga tirikchilik uchun 10 sotix yer bersak ham auktsion orqali beramiz. Qon-qonimizga singib ketgan tushunchalar ko'p. Davlat monopoliyasi olib tashlangan bo'lsada, xarid narxini o'ylab topamiz. Klasterni noto'g'ri tushunamiz. Taqsimlanmagan foydani soliqqa tortishga shoshilamiz. Yuqorida aytgan gaplarimizning hammasi bo'yicha Prezidentning roziligi olingan. Siz ekan tut va boshqa daraxtlar - sizniki. Avlodlaringizga meros bo'lib o'tadi. Tut beradigan maxsulotlar ham Sizniki. Xohlaganingizdek tasarruf qila olasiz.



Klasterman deb, prokurorni yetaklab kelib, pillani menga topshir desa, barcha 7 turdagi mahsulotlarni bozor narxida ol, deysiz. Prokurorga, uka bu biznesga Prezident ruxsat bergan, siz o'z ishlaringiz bilan bo'lib eshitmay qolgandirsiz deng. O'zingiz yaxshi eslab qoling, davlat monopoliyasi olib tashlangan.

Sabrli bo'lib, 1-2 yil chidasangiz tutchalaringiz katta bo'lib qoladi. Daromadga kirib qolasiz. Ishingiz bor bo'lib, o'rtacha 10 million so'mdan oylik maosh olsangiz ham bir yilda 120 million so'm bo'ladi xalos. Bu pul oilangiz xarajatlariga yetmaydi. Yetsa ham Sochiga bora olmaysiz. Ishga qo'shib ikkinchi biznesni ham boshlang. Rekreatsiya xududlari va boshqa noekin yerlarni aylanib ko'ring. Yechim toping. harakatda baraka. Yog'och, barg, qog'ozni tushundim, pillani nima qilaman, deysizmi? Tut ko'chatlarini ekayotganingizda yoningizdan o'tib ketayotgan odamlar nima qilishni aytib berishadi. 1 kg. ipak chuqur qayta ishlansa kamida 700 AQSh dollarli daromad keltiradi. Bitta qo'lda to'qilgan ipak gilam 10 ming dollar turadi. Unga 10 kg. ipak sarflanadi. Muximi, tutlarni ekib olish. Qolganini xayotning o'zi o'rgataveradi.

Xulosa o'rnida. Fuqaro bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar soliqlar va to'lovlar bilan tartibga solinadi. Soliqlar bizda eng kam. Aslida ularni bir oz ko'tarish kerak. Davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun hozirgidan ko'proq pul kerak. Hatto Shermatbek qo'rboshini ham soliq yig'uvchisi bo'lgan. Xitoyda daromaddan 25% soliq olinadi. Bu degani hamma topgan pulingni 4/1 qismi budjetga undirib olinadi. Bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlaganimizga 32 yil bo'layapti. Hamma narsani egasi bor. Hozircha rekreatsiya hududlari egallanmay turipdi. Shu yil oxirida bu imkoniyat ham qo'ldan chiqishi mumkin. Chunki, Osiyo mamlakatlaridan vakillar kelib, shu masala bilan ham qiziqib ketishdi. Foydalanilmay turgan imkoniyatdan foydalanish taklifini tayyorlab kelishsa, xalqaro kelishuvlarga ko'ra, yo'q deb javob beraolmay qolamiz. Bunga misol, Osiyo mamlakatlaridan biri sholichilik kadastrini tuzish to'g'risida kelishuv tuzishga erishdi va x.k.

Doimiy ish o'rnilarini o'zimiz barpo qilishimiz kerak. Xorijga ishlagani ketishdan oldin 200 tup ko'chat ekib ketishni urfga kiritishimiz kerak. Aks holda arzon ishchi bo'lib qolaveramiz. Rekreatsiya hududlari eng kamida 5 million ish joyi bera oladi. O'sha 5 million ish o'rnilarini o'zimiz barpo qilishimiz kerak. Hamma o'zi uchun, kelajak avlodlari uchun harakat qilishi kerak. Kommunizm g'oyasining noto'g'riligi o'z isbotini topdi. "Har kimdan imkoniyatiga yarasha, har kimga extiyojiga yarasha"ni o'rniga "Har kimdan imkoniyatiga yarasha, har kimga mehnatiga yarasha" g'oyasi butun dunyoda amal qilyapdi. Eng rivojlangan mamlakatlarda ham millionlab uy-joysiz oilalar bor. Xudoga shukur bizda unday



tushuncha yo'q. Endi yaxshi yashash uchun harakat qilishimiz kerak xolos. Makkaga, Tokioga, Seulga qachon bormoqchisiz? Iqtisodiyot shunaqa tushuncha. Oila iqtisodiyotining mustahkamlik zaxirasini yarating. Tezroq yarating. Mustahkam qilib yarating.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Постановление Президента от 24.02.2023 г. №ПП-73 «О мерах по дальнейшему развитию шелковой отрасли». https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/_proizvoditelyam_gren_tutovogo_shelkopryada_vydelyat_subsidii
2. Burxonovich, M. R., & Ortiqaliyevna, B. M. (2022). Conditions for improving the standard of living of the population. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 44-48.
3. Baltabayeva, M. (2022). SANOATNI RIVOJLANTIRISH-DAVR TALABI-UY MAISHIY TEXNIKALARINING FOYDALARI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(5), 29-32.
4. Yuldasheva, G. A. (2022). ZNACHENIE INNOVATsIONNOGO OPyITA V FORMIROVANII POvYShENIYa UROVNYa DOXODNOSTI NASELENIYa. Talim fidoyilari, 8, 172-185.
5. Umarov, O. Concept of guaranteed development of enclave territories / O. Umarov, D. Khakimov // . – 2020. – No. 6(73). – P. 265-268. – EDN ROLXJX.
6. Kadyrovna, A. M., Burkhanovich, M. R., & Ortikaliyevna, B. M. (2022). DEMAND AND SUPPLY FOR LABOR FORCES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 85-90.
7. Baltabayeva Malokhat Ortiqaliyevna. (2022). DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON GROSS DOMESTIC PRODUCT. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 100–104. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/976>
8. Maxsudov Sherzod Solijonovich (2022). BOZOR IQTISODIYoTI ShAROITIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARDA BOShQARUV.. Talim fidoyilari, 08-10 , 121-134.



9. Ortikalievna, B. M., & Abdunabievna, K. D. (2022). BENEFITS OF HOUSEHOLD APPLIANCES IN THE PROTECTION OF THE ENVIRONMENT AND WATER RESOURCES. *Thematics Journal of Economics*, 8(1).

10. Baltabayeva, M. O. (2023). Using the Mechanism of Social Partnership to Ensure the Employment of Women. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 65-69.

11. Yuldasheva, G. Минтақаларни ривожлантиришда инвестицион жараёнлар ва уларни бошқаришнинг ўзига хос хусусиятлари / G. Yuldasheva, A. Kuchkarova // Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари, 27 мая 2020 года, 2020. – P. 543-547. – EDN WYZVTP.

12. Baltabaeva, M. (2023). SHAHAR VA QISHLOQLARDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH YECHIMLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(8).

13. Турсунов, О. (2023). МИНТАҚАВИЙ ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Research Focus*, 2(2), 46-53.



THE PROBLEM OF TEENAGERS' PERSONALITY FORMATION

Makhlio Yuldasheva

PhD in Psychological Sciences

Khudoybergan Kholbutaev

student of Applied Psychology direction

Ferghana State University

Annotation. The problem of personality formation is closely related to the problem of the social structure in which the formation takes place. The simple model of growing up that we see in the traditional ways of society, where growing up is associated with passing certain tests and taking on certain responsibilities, no longer corresponds to the complexity of the surrounding social world. The complication of the world requires less and less unambiguous, less predetermined models of becoming from a person. This article is devoted to the theoretical analysis of the problem of the formation of the personality of teenagers.

Keywords: personality formation; sense of trust; discomfort; satisfaction; family

Аннотация. Проблема формирования личности тесно связана с проблемой социальной структуры, в которой происходит формирование. Простая модель взросления, которую мы видим в традиционных укладах общества, где взросление связано с прохождением определенных испытаний и принятием на себя определенных обязанностей, больше не соответствует сложности окружающего социального мира. Усложнение мира требует от человека все менее однозначных, менее предопределенных моделей становления. Данная статья посвящена теоретическому анализу проблемы формирования личности подростков.

Ключевые слова: становление личности; чувство доверия; дискомфорт; удовлетворенность; семья.

More complex models in which the problem of becoming arises are associated with the Enlightenment era. M. Foucault, analyzing Kant's works, discusses the phenomenon of underage age as a phenomenon of "inability to use one's mind without guidance from another" [10]. Moreover, a minor does not arise as a result of a lack of reason as such, but because of a lack of rationality itself during the transition to action. This makes it possible to logically substantiate and state the impossibility



of overcoming underage age in the education system, set in the form of bringing the student into an objectified world order and training skills within it.

In the conditions of an open society, the intersection of cultural fields, the problem of self-determination can be set in different ways. Thus, the correlation of freedom and responsibility is considered [6], the system of elections for building an individual trajectory (as is often understood in the education system), “the sequence of forms of human formation for different bases of his being within his individual life” [8], “responsibility for what culture and what country you belong to ... responsibility for the fact that he (a person) forms this or that self-consciousness” [4, p. 175].

Discussing the problem of human development in the modern world, we believe that a teenager must necessarily answer two challenges:

- building your own personal (conscious) way of doing things;
- defining oneself (and one's actions) in relation to the cultural and social content of life.

We have shown [1; 2] that teenagers of grades 7-9 in the modern education system have practically no opportunity to discuss goals and projects related to the prospect of more than 2-3 years. The main reason for the lack of ideas that are of a long-term nature, and if there are any, the impossibility of using them for setting goals is the lack of work with meaning (on the part of the teenager himself) in cognitive and project activities. From the point of view of the mental activity approach, becoming can be described as a gradual mastery by a person of the fullness of mental activity, in which the connection of thinking, action and communication is built. At the same time, there is a rather large separation here - cognition does not set a personal growth space in any way, project activity is aimed at insufficient results for meaning formation. The period of growing up, according to its physiological characteristics, sets the possibilities of constant self-determination as a result of purely age-related shifts (child - teenager - young man). But the effectiveness of this period is connected with the fields and spheres of representations, activities, culture in which these age transitions are carried out, and which act as the morphology of consciousness, where personality begins to emerge and crystallize (the term of Yu.V. Gromyko).

During the analysis of the situation, most teenagers fix that they need to work out their reasons for overcoming:

- pressure from the consumer society (imposing the possession of material goods as the main value);



- from the technology side (availability of ready-made solutions), from the Internet side (inclusion often in senseless time costs);
- ideological , etc .

Overcoming should be connected not with a simple rejection from modern technologies, networking, career growth but with the development of a personal position that could subordinate more private interests and destroy dependence on external factors.

The psychological task that we set ourselves when discussing the possibilities of mental activity pedagogy in working with meaning formation in adolescents is to help them build their position in mental activity. The three requirements for this position can be formulated as follows: long-term goals, openness to cultural content and overcoming anthropocentrism. Let's look at them in more detail.

The first significant block is long-term goals. For a modern person (and youth, in particular), the idea of our society as a society of progress is characteristic [7]. As Toffler pointed out in the last century [9], education gives a complete picture of the culture of the past and does not discuss the possible future with the student. The orientation of education towards the past and the naturally arising orientation in the lifestyle towards the future provokes students to transfer interest from patterns of activity to socially accepted achievements (institute, status, etc.). At the same time, self-determination, associated with setting goals for learning new, culturally significant achievements, suffers the most. The future for a large number of teenagers turns into a repetition of the present, only with a shift in the timeline.

The second significant block is the attitude to culture: to those samples of it that are mastered at school, and to those that remain outside its framework. Culture and tradition are perceived as a set of formulas, rules that require execution, as a "bag of information" that can be extracted if necessary. Consumer attitude to culture determines the phenomenon that when faced with a really difficult situation, a situation of lack of ready-made funds (in textbooks and on the Internet), a situation of uncertainty, the student is helpless, starts from scratch. Violation of the principle of attitude to cultural achievements we often see in communicative forms the student "forgets" the thought of another person just expressed, and sometimes his own; contradicts himself and does not notice it.

The third requirement is to overcome the naive anthropocentric model of the world. If at preschool age we are talking about overcoming childish egocentrism, then in adolescence egocentrism often takes the form of anthropocentrism. A person (and a teenager quite justifiably puts himself in this place) becomes the measure of all



things. He has the rights guaranteed by law. Meeting his needs is the main goal. Overcoming this model for a person means reaching the objective problems of culture, society, and cognition.

In conclusion, it should be noted that to build psychological means that allow a teenager to begin to respond to challenges (mastering his mind to carry out actions; defining oneself in relation to the cultural and social content of life), we fix the following as the main requirements for psychological and pedagogical technology: technology should not just ensure that a teenager has a sum of isolated abilities and competencies (freedom, autonomy, responsibility, awareness, awareness, etc.), but build a complete connection of thoughts, communication and actions, the deployment of which allows you to move on to adulthood.

Literature:

1. Alekseeva L.N., Assuirova L.V. Ways of working with the understanding of the text, its analysis and interpretation. M., 2007.
2. Abdullayeva, A. R. (2023). Psychological factors of forming a healthy lifestyle in the family. Open Access Repository, 4(03), 43-50.
3. Andryushkov A.A. Formation of socio-cultural identity in secondary school general education school // Diagnostics of educational success. M., 2007.
4. Gromyko Yu.V. The work of self-determination in the modern world. M., 2009.
5. Kravchenko O.A. Ethnosociopedagogy of the Kazym Khanty. St. Petersburg, 2007.
6. Leontiev D.A., Kaliteevskaya E.R., Osin E.N. Personal potential during the transition from childhood to adulthood and the formation of determination // Personal potential. Structure and diagnostics. M., 2011.
7. Юлдашева, М., & Эргашева, Г. (2022). Понятие внутриличностного конфликта в социальном психоанализе. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(6), 110-118.
8. Zakirova M., Yuldasheva M. [Emotional well-being of children in preschool age](#). Проблемы психологического благополучия, 2022.
9. Юлдашев, Ф. А., & Юлдашева, М. Б. (2021). Профессиональная ориентация подростков. Личность в культуре и образовании: психологическое сопровождение, развитие, социализация: материалы международной научно-практической конференции. 380-387



10. Юлдашева, М., & Эргашова, З. (2020). Экспериментальное изучение агрессии. ББК Ю953, 90.



ЭЛЕКТРИЧЕСКИЙ ТОК В МЕТАЛЛАХ

Сарвиноз Орипова Оразали кизи

Преподаватель по общим образовательным предметам

Профессиональная школа города Чирчика

Аннотация: В данной статье дается объяснение о распространении электрического тока в металле, причины распространения, законы физики.

Ключевые слова: Электрический ток, металл, кристаллическая решетка, атомы, электроны, ионы, проводник.

Annotation: This article provides an explanation about the propagation of electric current in a metal, the causes of propagation, the laws of physics.

Keywords: Electric current, metal, crystal lattice, atoms, electrons, ions, conductor.

Металлы в твёрдом состоянии имеют кристаллическое строение. Частицы в кристаллах расположены в определённом порядке, образуя пространственную (кристаллическую) решётку. В любом металле часть валентных электронов покидает свои места в атоме, в результате чего атом превращается в положительный ион. В узлах кристаллической решётки металла расположены положительные ионы, а в пространстве между ними движутся свободные электроны (электронный газ), т.е. не связанные с ядрами своих атомов.

Отрицательный заряд всех свободных электронов по абсолютному значению равен положительному заряду всех ионов решётки. Поэтому в обычных условиях металл электрически нейтрален.

Какие же электрические заряды движутся под действием электрического поля в металлических проводниках? Мы можем предположить, что под действием электрического поля движутся свободные электроны. Но это наше предположение нуждается в доказательстве.

В 1899 г. К. Рикке на трамвайной подстанции в Штуттгарте включил в главный провод, питающий трамвайные линии, последовательно друг другу торцами три тесно прижатых цилиндра; два крайних были медными, а средний - алюминиевым. Через эти цилиндры более года проходил электрический ток. Произведя тщательный анализ того места, где цилиндры контактировали, К. Рикке не обнаружил в меди атомов алюминия, а в алюминии - атомов меди, т. е.



диффузия не произошла. Таким образом, он экспериментально доказал, что при прохождении по проводнику электрического тока ионы не перемещаются.

Следовательно, перемещаются о дни лишь свободные электроны, а они у всех веществ одинаковые. Существование электронов проводимости в металлах было доказано учёными и в другом опыте. Если привести в быстрое вращение проволочную катушку, а затем её резко остановить, то в такой цепи электроизмерительный прибор покажет наличие кратковременного тока, хотя в цепи нет источника тока. Это продолжали двигаться электроны проводимости.

Итак, электрический ток в металлических проводниках представляет собой упорядоченное движение свободных электронов, под действием электрического поля.

Если в проводнике нет электрического поля, то электроны движутся хаотично, аналогично тому, как движутся молекулы газов или жидкостей. В каждый момент времени скорости различных электронов отличаются по модулям и по направлениям.

Если же в проводнике создано электрическое поле, то электроны, сохраняя свое хаотичное движение, начинают смещаться в сторону положительного полюса источника. Вместе с беспорядочным движением электронов возникает и упорядоченный их перенос - дрейф.

Скорость упорядоченного движения электронов в проводнике под действием электрического поля невелика - несколько миллиметров в секунду, а иногда и ещё меньше. Но как только в проводнике возникает электрическое поле, оно с огромной скоростью, близкой к скорости света в вакууме (300 000 км /с), распространяется по всей длине проводника.

Одновременно с распространением электрического поля все электроны начинают двигаться в одном направлении по всей длине проводника. Так, например, при замыкании цепи электрической лампы в упорядоченное движение приходят и электроны, имеющиеся в спирали лампы.

Понять это поможет сравнение электрического тока с течением воды в водопроводе, а распространения электрического поля - с распространением давления воды. При подъёме воды в водонапорную башню очень быстро по всей водопроводной системе распространяется давление (напор) воды. Когда мы открываем кран, то вода уже находится под давлением и начинает течь. Но из крана течёт та вода, которая была в нём, а вода из башни дойдёт до крана много позднее, т.к. движение воды происходит с меньшей скоростью, чем распространение давления.



Когда говорят о скорости распространения электрического тока в проводнике, то имеют в виду скорость распространения по проводнику электрического поля.

Использованная литература:

1. В данном пособии использованы материалы Интернет ресурсов.



XROMASOMA MUTATSIYALARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Dilorom Bakirova

Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xromasoma mutatsiyalarining turlari, mutatsiya sabablari, jinsiy hujayralar yetilishi davomida sodir bo'ladigan turli anomal holatlar va buning oqibatida yuzaga keladigan irsiy kasalliklar, ularning belgilari, mutatsiyalarning oldini olish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: deletsiya, duplikatsiya, translokatsiya, inversiya, operon regulatsiya klassik lissensefaliya Miller-Dicker sindromini, Felan-Mak Dermid sindromi, Robertson translokatsiyasi,

Annotation. This article provides information about the types of chromasoma mutations, the causes of the mutation, various anomalous aunts that occur during the formation of germ cells, and the hereditary diseases caused by it, their symptoms, ways to prevent mutations.

Keywords: deletion, duplication, translocation, inversion, operon regulation classical lissencephaly Miller-Dicker syndrome, Phelan-Mac Dermite syndrome, Robertson translocation,


Xromosoma mutatsiyalari (ular aberratsiyalar, qayta tuzilishlar deb ataladi) xromosomalar tuzilishidagi oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlardir. Ko'pincha ular hujayra bo'linishi paytida paydo bo'ladigan muammolar tufayli yuzaga keladi. Hujayraning genetik dasturini amalga oshirishdagi buzilishlar quyidagi hodisalar bilan bog'liq.

Mitozning buzilishi: xromosomalarning notekis taqsimlanishi (mitoz yoki amitozning kamayishi) oqibatida vujudga keladi va displaziyaga sabab bo'ladi (monster hujayralarining shakllanishi). Natijalarning yana bir varianti - poliploid yoki ko'p yadroli hujayralarning shakllanishi. Hujayralarning bo'linish qobiliyatini yo'qotishi bilan mitoz fazalarining ommaviy buzilishi, organlar va to'qimalar yangilanishining buzilishiga olib keladi.


Buzilish sabablari – operon regulatsiyasidagi o'zgarishlar, hujayra markazi va yoki mikronaychalarning shikastlanishi, mikronaychalar shakllanishi va aktominimiyozinning o'zaro ta'sirining buzilishi fonida sitotomiyadagi o'zgarishlar,

bo‘linishning energiya bilan ta‘minlanishidagi buzilishi va boshqalar. Odatda xromasoma deletsiya, duplikatsiya, translokatsiya va inversiya deb ataladigan mutatsiyalar tufayli normal strukturasini yo‘qotadi. Yuqorida sanab o‘tilgan har bir xolat jiddiy irsiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ko‘p hollarda o‘zgarishlarning aniq sababini aniqlash mumkin emas.[2]


Uzoq muddatli kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, onaning yoshi bilan xromosoma anomaliyalarining chastotasi keskin ortadi. Anomaliyalarining kelib chiqishiga ionlashtiruvchi nurlanish, turli kimyoviy moddalar, jumladan, dori vositalarining ta‘siri sabab sifatida ko‘rsatiladi.



Xromasoma mutatsiyasining ko‘rinishi



Soglom bosh miya va Miller-Dicker sindromida bosh miya ko‘rinishi



Bemor bolaning bosh miyasi ko‘rinishi



Bemor bolaning qiyofasi

Xromosoma ayrim qismining yo‘qolishi natijasida kuzatiladigan mutatsiya deletsiya deyiladi. (Deletsiya lot. deletio — yo‘q qilish). Ushbu mutatsiya turiga Miller-Dicker sindromini misol qilish mumkin. Ushbu kasallikning uchrash chastotasi 50 000 yangi tug‘ilgan chaqaloqqa 1 nafarni tashkil etadi. Bu kasallik 17 xromosomaning 17p13.3 lokusu genlarining yo‘qolishi natijasida kelib chiqadigan autosomal dominant kasallikdir. Xromosomaning mana shu qismining yo‘qolishi




neyron migratsiyasining buzilishiga olib keladi. Miller-Diker sindromining klinik belgilari: klassik lissensefaliya, qadoqsimon tana gipoplaziyasi, miya qorinchalarining kengayishi, mikrocefaliya.

Tashqi tomondan, qoshlar o'rtasidagi ajinli teri, bortib chiqqan ensa, temporal mintaqalarda toraygan baland peshona, past joylashgan quloqlar, qisq ko'z yorig'i, gipertelorizm, "sazan og'zi" - uzun burchaklari tushirilgan yupqa yuqori lab, qisqa ko'tarilgan burun, kichik iyak. Shuningdek, yurak, buyraklarning tug'ma nuqsonlari, kriptorxizm, o'sishning kechikishi, mushaklarning gipotenzivasi, epileptik tutilishlar bilan og'ir aqliy zaiflik belgilari bilan namoyon bo'ladi. Bemorning o'rtacha umr ko'rishi keskin qisqaradi, ko'pincha bolalikda vafot etadilar. Kasallikning rivojlanishi homila rivojlanishining 3-4 oyiga to'g'ri keladi.

Felan-Mak Dermis sindromi 22-xromosomaning 22q13.3-lokusi terminal qismining delesiya oqibatida autizmning og'ir darajasida namoyon bo'ladigan kasallik bo'lib yo'qolgan xromosoma qismi qanchalik katta bo'lsa, autizm shunchalik ko'p patologik belgilar bilan namoyon bo'ladi. Delesiya xodisasi erkaklar va ayollar xromosomasida teng chastotada sodir bo'ladi, odatda xromosoma buzilishining bu xolati muntazam shakllarda bo'lishligi bilan xavfli sanaladi.

SHANK3 geni 22 xromosomaning 22q13.3 qismida joylashgan va bu genning mutatsiyasi yoki delesiya autizm bilan bog'liq eng keng tarqalgan oqibatlarni namoyon qiladi. 22q13.3 delesiya sindromining xususiyatlari juda xilma-xil bo'lib, turli organlar va organlar sistemasida anomalliklarni keltirib chiqaradi. Xarakterli belgilar va alomatlar rivojlanishning kechikishi, o'rtacha va og'ir darajadagi aqliy zaiflik, mushaklar tonusining pasayishi (gipotoniya), nutqning yo'qligi yoki kechikishi kiradi. Ushbu sindromli ko'plab bemorlarda ko'rishning buzilishi, mexanik ta'sirlarga sezgirlik va tajovuzkor xatti-harakatlilik kabi belgilar ham kuzatiladi. Bemorlar ba'zan yeyilmaydigan narsalarni (masalan kiyim -kechaklarini) chaynashlari mumkin. Ba'zan bemorlarda talvasa xolatlari kuzatiladi. 22q13.3 delesiya sindromi bo'lgan bemorning og'riqqa sezgirligi sust, terlash qobiliyati ham past bo'ladi. Bu esa haddan tashqari issiqlik va suvsizlanish xavfini oshirishi mumkin. Ba'zi bemorlarda tez-tez ko'ngil aynishi va qusish (muntazam qusish) va oshqozon kislotasining qizilo'ngachga qaytishi (gastroezofagial refleks) uchraydi. Bu kasallik tashxisi qo'yilgan odamlarning boshi uzun va tor, quloqlari yopishgan, iyagi uchli, ko'z qovoqlari osilgan (ptoz), ko'zlari chuqur o'rnashgan bo'ladi. Ba'zi bemorlarda katta va go'shtli qo'llar va yoki oyoqlar, ikkinchi va uchinchi barmoqlarning birlashishi (sindaktiliya), oyoq panjalarida kichik yoki g'ayritabiiy tirnoqlar kabi boshqa jismoniy belgilar ham uchraydi.




22-xromosomaning 22q13.3-lokusi terminal qismining deletsiyasi



Felan-Mak Dermit sindromi kuzatilgan bemorlarning tashqi qiyofalari ko'rinishi

Odamlarda tug'ma xromosoma anomaliyalarining keng tarqalgan guruhlaridan biri - translokatsiyasi. Xromosomaning bir qismi gomologik bo'lmagan boshqa xromosomaga o'tishi bilan sodir bo'ladigan mutatsiya translokatsiya deb ataladi. Hujayralardagi bunday mutatsiyalar limfomalar, sarkomalar, leykemiya kabi kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday translokatsiyaning sababi jinsiy hujayralar yetilishi vaqtida DNKning shikastlanishi tufayli sodir bo'ladi. Ota onalar ya'ni tashuvchilar odatda fenotipik jihatdan sog'lomdir, ammo bepustlik, tug'ilishning pasayishi, xomilaning o'z-o'zidan tushish xavfi va irsiy kasalliklarga chalingan bolalarning tug'ilish xavfi ortadi.



Tashuvchilarning 5 foizida tug'ma rivojlanish anomaliyalari, rivojlanish kechikishlari (50 foizida aqliy zaiflik bor) kuzatiladi. Translokatsiya oqibatida muvozanatsiz kariotipli bolalar tug'ilishi xavfi ortadi.

Translokatsiya xodisasi quyidagi vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin:

- gomologik bo'lmagan rekombinatsiya tufayli xromosomalarning qayta kombinatsiyasi noto'g'ri shakllanganda;
- gomologik rekombinatsiya paytida DNK uzilishini tiklash vaqtida paralog DNK ketma-ketligining noto'g'ri tanlash (gomolog o'rniga boshqa bo'lak).

Robertson translokatsiyasi yoki xromosomalarning sentromera qismining qayta tuzilishi bo'lib, unda ikkita akrosentrik xromosomalar birlashib, bitta metasentrik yoki submetasentrik xromosoma hosil qiladi. Bunday bolalarda ko'plab jismoniy nuqsonlar psixomotor rivojlanishining og'ir buzilishi bilan birga rivojlanishi mumkin. Buning oqibatida mikrosefaliya; g'ayritabiiy qo'llar, ko'pincha qo'shimcha barmoqlar shakllanadi; tartibsiz shakldagi past o'rnatilgan quloqlar; yoriq lab; qisqa bo'yin; tor ko'zlar; burunning aniq "cho'kib ketgan" ko'prigi; buyrak va yurak nuqsonlari; lab yoki tanglay yoriqlari; homiladorlik davrida faqat bitta kindik arteriyasi mavjudligi kabi belgilar namoyon bo'ladi.

DNKning shikastlanishiga ekzogen (kimyoterapiya, ionlashtiruvchi nurlanish) va endogen (erkin radikallar ta'siri) omillar sabab bo'lishi mumkin.

Translokatsiya diagnostikasi. Tashuvchilarni aniqlash uchun genetik test o'tkazilishi mumkin. Kariotiplash har xil turdagi translokatsiyalarni, shu jumladan muvozanatsiz turlarni aniqlashga yordam beradi.

Bolani tug‘ish paytida patologiyalar aniqlanishi mumkin. Buning uchun invaziv prenatal testlar taqdim etiladi. Kariotip tahlili tibbiy genetik markazlarda amalga oshirilishi mumkin.

Balansli translokatsiyaning tashuvchilari odatda sog‘lom. Ammo farzandli bo‘lishni xohlaganlarida ular muammolarga duch kelishadi. Bunday odamlar uchun oldindan tekshiruvdan o‘tish va genetik mutaxassisdan maslahat olish tavsiya etiladi. Homiladorlik paytida homiladagi xromosoma anomaliyalarini istisno qilish uchun ota-onalarga xorionik villus biopsiyasi, amniosentez, kordosintez tershiruvlari tavsiya etilishi mumkin. [3]

Xromosoma mutatsiyalarining yana bir turi neytral mutatsiya bo‘lgan inversiya xodisasidir. Xromosomalarning inversiyasi - bu xromosomaning bir qismining ajralishi, 180° burilishi va qayta tiklanishi. Agar ular genlar ketma-ketligini buzmasa, inversiyalar faqat genlarning yo‘nalishini o‘zgartiradi va aneplloid xatolarga qaraganda engilroq ta’sir ko‘rsatadi.

Bu mutatsiya turi ham meioz bilan tizimli muammolarni keltirib chiqaradi

- Transkripsiya jarayoni buzilishi oqibatida gen ifodasi o‘zgaradi
- Inversiya bir yoki bir nechta tanlangan allellarni o‘z ichiga oladi

Shunday qilib, inversiya hech qanday afzallik keltirmaydi, lekin odatda hech qanday jiddiy zarar keltirmaydi. Inversiya vaqti-vaqti bilan zararli va kamdan-kam odam uchun foydalidir. Shunday qilib, uni qaysidir ma’noda neytral mutatsiya deb tasniflash mumkin. Boshqa barcha mutatsiyalar singari, xromosoma inversiyasi ham inson hayotining istalgan bosqichida sodir bo‘lishi mumkin. Mutatsiyaning bu turi meyoza bilan chegaralanib qolmaydi, u tanadagi har qanday replikasiya qiluvchi hujayrada paydo bo‘lishi mumkin. Ammo fenotipik ta’sir meyoza vaqtida ko‘proq uchraydi, bunday holatda nuqsonli yoki ko‘rinmas mutatsiya belgisiga ega nasl dunyoga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. [1]

Mutatsiyalar turli xil mutagen omillar tufayli sodir bo‘luvchi va inson salomatligi uchun zarar bo‘lsada tabiiy jarayon hisoblanadi. Translokatsiyalar va inversiyalar inson genlarini xaritalash va keyinchalik ajratish uchun foydali material bera oladi. Ushbu xodisalaridan genetic injeneriyada maxsus xromosoma segmentlarini yo‘q qilish va ko‘paytirish uchun muntazam ravishda foydalaniladi. Misol uchun, translokatsiyalar ham, perisentrik inversiyalar ham meioz vaqtida xromosoma nusxalarini hosil qiladi. Duplikatsiya va deletsiya jarayonlari ham turli xil eksperimental ilovalar uchun foydalidir.

Ammo inson salomatligi va sog‘lom nasl haqida gap ketayotganda hech bir mutatsiyani foydali deb bo‘lmaydi. Maqsad doimo sog‘lom farzandning dunyoga

kelishini ta'minlash ekan, imkon qadar erta tashxis qo'yilishi zarur va foydalidir. Mutatsiyalarni erta aniqlash usullaridan biri kariotipni aniqlash usuli. Karyotiplash odatda prenatal davrda (homiladorlik davrida tug'ilishgacha) amalga oshiriladi. Karyotiplash ham invaziv, ham noinvaziv usulda amalga oshiriladi. Invaziv usul ultratovush nazorati ostida ayolning bachadonidan (platsenta, xorion), homilaning kindik ichakchasidagi qondan yoki amniotik suyuqlikdan (amniyosentez) tekshirish uchun hujayralarni olishdan iborat. Xomilalik hujayralar tanlanadi va ulardagi xromosomalar tahlil qilinadi. Shuni esda tutish kerakki, materialni olishning ushbu usuli abortga olib kelishi mumkin (birinchi uch oylikda 1%).

Invaziv bo'lmagan usul - homilaning genetik materialini onaning qonidan ajratish. Bu usul bola va homila uchun xavfli emas, lekin invaziv usulga qaraganda kamroq sezgir. Materiallardan namuna olishning invaziv bo'lmagan usuliga ko'rsatma onaning yoshi (35 yoshdan oshgan), oldingi bolalarda xromosoma anomaliyalarining mavjudligi bo'lishi mumkin.[4]

Hozirgi vaqtda bir qator xromosoma anomaliyalarini tashxislashning eng aniq usuli miqdoriy lyuminescent polimeraza zanjiri reaksiyasi usulidir.

Agar patologiya aniqlansa, homiladorlikni davom ettirish yoki to'xtatish masalasi hal qilinadi. Karyotiplash usuli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek, o'lik bolalari bo'lgan turmush o'rtoqlarni tekshirish va EKOni rejalashtirishda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kirkpatrick M (2010) Xromosomalarning inversiyasi qanday va nima uchun rivojlanadi. PLoS Biol 8(9): e1000501. doi: 10.1371/journal.pbio.1000501
2. Griffiths AJF, Miller JH, Suzuki DT va boshqalar. Genetik tahlilga kirish. 7 -nashr. Nyu -York: V. H. Freeman; 2000. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK22042/>
3. Propedevtika vnutrennix bolezney / Muxin N.A., Moiseev V.S. – 2008
4. Arxitektura genoma: geneticheskoe raznoobrazie i xromosomnie bolezni / Kashevarova A.A., Lebedev I.N. // Meditsinskaya genetika – 2014 – T. 13 №3(141)

ВИРУСЫ

Зухра Холбутаева Раимжонова

Преподаватель по общим образовательным предметам

Профессиональная школа города Чирчика

Аннотация: В данной статье дано определение слова –«вирус», откуда появляются вирусы. Использование, распознавание вирусов учащимися.

Ключевые слова: Вирус, болезни, эпидемия, инфекционные агенты.

Annotation: This article defines the word “virus”, where viruses come from. Use, recognition of viruses by students.

Keywords: Virus, diseases, epidemic, infectious agents.

Вирус (лат. *virus*) — неклеточный инфекционный агент, который может воспроизводиться только внутри клеток. Вирусы поражают все типы организмов, от растений и животных до бактерий и архей (вирусы бактерий обычно называют бактериофагами). Обнаружены также вирусы, способные реплицироваться только в присутствии других вирусов (вирусы-сателлиты).

У животных вирусные инфекции вызывают иммунный ответ, который чаще всего приводит к уничтожению болезнетворного вируса. Иммунный ответ также можно вызвать вакцинами, дающими активный приобретённый иммунитет против конкретной вирусной инфекции. Однако некоторым вирусам, в том числе вирусу иммунодефицита человека и возбудителям вирусных гепатитов, удаётся избежать иммунного ответа, вызывая хроническую болезнь. Антибиотики не действуют на вирусы, однако было разработано несколько противовирусных препаратов.

Термин «вирус» является общим для обозначения инфекционного агента, способного паразитировать внутри клеток. Для обозначения единичной стабильной вирусной частицы, покинувшей клетку и способной инфицировать другие клетки того же типа, применяется термин «вирион»

Вирусы демонстрируют огромное разнообразие форм и размеров. Как правило, вирусы значительно мельче бактерий. Большинство изученных вирусов имеют диаметр в пределах от 20 до 300 нм. Некоторые филовирусы имеют длину до 1400 нм, но их диаметр составляет лишь 80 нм. В 2013 году самым крупным из известных вирусов считался *Pandoravirus* размерами $1 \times 0,5$



мкм, однако в 2014 году из многолетней мерзлоты из Сибири был описан *Pithovirus*, достигающий 1,5 мкм в длину и 0,5 мкм в диаметре. В настоящий момент он считается крупнейшим из известных вирусов. Большинство вирионов невозможно увидеть в световой микроскоп, поэтому используют электронные — как сканирующие, так и просвечивающие. Чтобы вирусы резко выделялись на окружающем фоне, применяют электронно-плотные «красители». Они представляют собой растворы солей тяжёлых металлов, таких как вольфрам, которые рассеивают электроны на покрытой ими поверхности. Однако обработка такими веществами ухудшает видимость мелких деталей. В случае негативного контрастирования «окрашивается» только фон.

Зрелая вирусная частица, известная как вирион, состоит из нуклеиновой кислоты, покрытой защитной белковой оболочкой — капсидом. Капсид складывается из одинаковых белковых субъединиц, называемых *капсомерами*. Вирусы могут также иметь липидную оболочку поверх капсида (*суперкапсид*), образованную из мембраны клетки-хозяина. Капсид состоит из белков, кодируемых вирусным геномом, а его форма лежит в основе классификации вирусов по морфологическому признаку. Сложноорганизованные вирусы, кроме того, кодируют специальные белки, помогающие в сборке капсида. Комплексы белков и нуклеиновых кислот известны как *нуклеопротеины*, а комплекс белков вирусного капсида с вирусной нуклеиновой кислотой называется *нуклеокапсидом*. Форму капсида и вириона в целом можно механически (физически) исследовать при помощи сканирующего атомно-силового микроскопа.[1]

Вирусы различаются механизмами воздействия на организм хозяина, которые сильно зависят от вида. На клеточном уровне этот механизм предполагает лизис клетки, то есть её смерть. У многоклеточных организмов при гибели большого числа клеток начинает страдать организм в целом. Хотя вирусы подрывают нормальный гомеостаз, приводя к заболеванию, они могут существовать внутри организма и относительно безвредно. Некоторые вирусы (например, вирус простого герпеса первого типа) могут пребывать внутри тела человека в состоянии покоя, которое называется латентностью. Оно характерно для вирусов герпеса, в том числе вируса Эпштейна — Барр, вызывающего инфекционный мононуклеоз, а также вируса, вызывающего ветрянку и опоясывающий лишай. Большинство людей переболело по крайней мере одним из этих типов вируса герпеса. Однако такие латентные вирусы могут и



DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS THROUGH VIDEO MATERIALS

Zilolakhon Qodirova

Master's student of Linguistics – English, Namangan State University

Annotation: This article provides recommendations on developing students' critical thinking skills through video materials. Proposals are given for the use of various pedagogical methods for the use of video materials in the course of the lesson.

Keywords: English lessons, students, pedagogical methods, video resources, presentation, reports.

Аннотация: В данной статье даны рекомендации по развитию у учащихся навыков критического мышления с помощью видеоматериалов. Даны предложения по использованию различных педагогических приемов использования видеоматериалов в ходе урока.

Ключевые слова: уроки английского языка, студенты, педагогические методы, видеоресурсы, презентация, доклады.

The effects of teaching English with video materials on students are in many cases not well matched with the efforts that teachers and students have made because teachers do not have clear goals in mind in classroom activities. It is necessary for language teachers to keep clear goals in mind in the classroom when they use video materials because they must prepare their teaching plans and implement them in reality in order to achieve their goals. Generally speaking, language teachers could set up three goals for their teaching with video materials. The first and fundamental goal is to facilitate the development of EFL learners' language skills and in particular their listening and speaking skills. Video materials provide visual aids for the listening materials that EFL learners are exposed to. When they are practicing their listening skills, learners often find it difficult to hold their attention long enough once they are exposed to long conversations or passages without visual aids. Videos can provide much more information for listeners and can keep them attention focused on the aural material. On the other hand, authentic video materials can create more

Realistic language learning environment and stimulate EFL learners' interest in English learning and enhance their comprehensive linguistic competence. Language learning theories state that the process of language learning includes three key parts:



Pedagogik mahoratni egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar, pedagogik mahoratni o'rganish va mustaqil mashq qilish kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashdir. Pedagogik mahorat malakalarining individual-shaxsiy tarzda ekanligini hisobga olib, uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol oynaydi. Kasb sirlarini yuksak darajada egallash harakatida ham pedagogik mahorat muhim o'rin tutmog'i lozim.

Psixologlarning fikricha pedagogik mahoratni guruhga bo'lib o'rgatish qulaylik yaratadi. Ularning tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10-14 kishidan iborat bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, ko'nikma va moslashish darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan tarbiyalash boyicha muntazam ish olib borishiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhviy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik mahoratni egallashning alohida dasturi tuzilib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik mahoratni aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda gap faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan ta'limni boshlash vaqtiga kelib kunikamalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga quyilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik mahoratni egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda,



o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Qoplonova M. Pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlar.–T.: “O‘qituvchi”, 2005.
2. Xoliqov.A. “Pedagogik mahorat” Toshkent “Iqtisod-moliya” nashriyoti 2011.
3. J.G‘.Yo‘ldoshev va S . Usmonovning “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent. 2006.
4. Ochilov. M, Ochilova. N. “O‘qituvchi odobi” Toshkent “ O‘qituvchi” 2000



TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Oybek Ne'matov Erkin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglar tomonidan ta'limda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ko'nikma, pedagogik muammo, muammoli vaziyat, muammoli vaziyat metodi, muammoli ta'lim.

Annotation: This article presents some information about the use of problematic educational technologies in education by pedagogues.

Keywords: education, training, skill, pedagogical problem, problem situation, problem situation method, problem education.

Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim.

Muammoli ta'limning mohiyatini o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish.
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish.
4. O'qituvchi (pedagog) tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

J.Dyui muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan: ijtimoiy; konstruktiv; badiiy ifodaviy; ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan: so'z; san'at asarlari; texnik qurilmalar; o'yinlar; mehnat.

Muammoli ta'lim turlari (M.N.Skatkin):

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma'ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg'ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoning tarkibiy qismlari:

- 1) ma'lum bilimlar;
- 2) noma'lum bilimlar;
- 3) mavjud tajriba.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Bu turdagi o'qitishning maqsadi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchilar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg'ota olishidan iborat.

Mohiyatiga ko'ra muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki "fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq" bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli ta'limda pedagogik muammolarni yechish usullari va muammoni qo'yish bosqichlari.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi (pedagog) o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari-tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Bu kabi vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin.

Odatda muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi (pedagog) quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, va uni amalga oshirishni rejalashtiradi.

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo'yish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo'yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi. Ular:

Muammoni qo'yish sathlari

1-sath	O'qituvchi muammoni qo'yadi va o'quvchilarni uni hal qilishga yo'naltiradi
2-sath	O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3-sath	O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermoqchi, balki unga o'quvchilarni ro'para qiladi. O'quvchilar muammoni anglagan

holda uni o'zlari shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi
--

Muammoli vaziyat – o'quchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish bosqichlari:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Yechimni tekshirish.

Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

Muammoli vaziyat metodi – o'quvchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo'llanilganda o'quvchilarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi: Muammoli vaziyat, Yechimning usul va vositalarini tanlash, Xarakatlarni rejalashtirish, Axborotlarni izlash, Loyihaning taqdimoti va himoyasi, Yangi muammolarni bashoratlash

Muammoli ma'ruza – o'qituvchi tomonidan o'quvchini muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza

Muammoli ta'limning barcha turlari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasi qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda muammoli ta'lim texnologiyasi – o'quvchilarda ijodiy izlanish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
2. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.



3. <http://ziyonet.uz>. <http://www.tdpu.uz>.



ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Sabohat Rajabova Vohidovna

Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, "Avloniy truppa", "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Turon".

Annotation: This article contains information about educational issues in the works of Abdulla Avloni.

Keywords: Education, training, knowledge, skills, qualifications, "Avlony troupe", "Is advocacy easy?", "Pinak", "Turon".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan, Vatanimiz tarixining g'oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilib kelgan ma'rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Bu to'siqlarning asosi Chor hukumati edi, nima uchun chor hukumati bunga qarshilik qilganini barchamiz juda yahshi bilamiz, ammo adibning vatanparvarligi o'z faoliyatida muhabbati oldida, bu cheklovlar hech ham to'siq bo'la olmadi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. Abdulla Avloniy bunday katta ishni o'z teatr jamoasi bilan uddalashga erishgan va ular insonlarga ma'naviyat urug'larini sochishga ularning asil



kimning avlodlari ekanligini eslashga yana bir katta dastak bo'lgan. Abdulla Avloniyning ham adabiyotga ham san'atga bo'lgan mehri o'zgacha edi va ular o'zlarining faoliyatlarini teatrdan ham yuksak darajada o'lib borganlar va teatrhunosi M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

“Avloniy truppa” uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug‘oliya inqilobi” kabi drammlar yozdi, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O‘liklar” kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi” Ammo bu asarlar nashr qilinmadi adib o‘z aoliyatidan ortga chekinmadi va doimo ilm yo‘lida jonbozlikda yetakchilik qildilar. 1916-yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, “Turon” truppassi bilan birga “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914-1916-yillari Farg‘ona vodiysida gastrollarda bo‘ladi.

1914-1915-yillarda Advakat Ubaydulla Xojayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qildi. Gazetadagi she‘r va maqolalar Abdulla Avloniyning qalamiga mansub etid va ular tezda katta mavqe va e‘tibor qozondi. Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandaligidan edi. Adib o‘z faoliyatini barchaga yetishiga barcha ma’naviy yuksalishini doimo istagan shuning uchun ham ko‘p bora o‘z safarlarini uyushtirgan. Abdulla Avloniy ilg‘or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag‘larga dunyoviy ilmlarni o‘qitadigan “Usuli jadid”, ya’ni yangicha ilg‘or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o‘qitdilar. Ular o‘z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatdilar. Abdulla Avloniyning vatanga bo‘lgan muhabbatini teatr olamizdagi faoliyatidan ham ko‘rib guvohi bo‘lishimiz mumkin adib teatrdan tushgan ezgu ishlarga maktablari madrasalar qurish yangi o‘quv asarlar yaratishga sarflaganlar, nimaga adib bugungi kunda ham ez‘zozlani buyuk ma’rifatbarvar deyilishining asosiy sababi ham ularning ezgu buyuk ishlariga mehnatlaridandir. Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o‘quv asbob va jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta’minlash maqsadida, do‘stlarining ko‘magida “Jamiyati xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablarning



asosiy o'quvchilari sharoiti og'ir o'quvchilar bo'lgan siz aytishingiz mumkin, nima uchun deb, - albatta har bir inson ilm olish huquqiga ega, ammo har bir inson ham bunga sharoiti to'g'ri kemasligi mumkin. adib o'zi mehnatda toblangani uchun o'quvchi-yoshlarga bilim berish bilan ularni sharoitini yaxshilashga, o'qib bilimga ega bo'lib, bir ma'naviyatchi inson bo'lishiga tilakakdosh bo'lganlar. Shu bilan birgalikda "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob-kitob, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi. Adibning har bir fanda ilg'or har bir sohada yuqtuqlarga bo'y ekanligi bilan o'z maqsadi yo'lida tinim bilmaganlarini, maqsadlariga erishib nafaqat o'z hayotlarini balki o'z ona vataniga ulkan ishlar qilib, iz qoldirganlarini guvohi bo'lamiz. Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishidan keyin, 1918 yildan boshlab Respublikamizda o'qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Adib har doim o'z vaqtini ezgu va ulug' ishlarga sarf etganlar va buni bizga ham tavsiyalarida qoldirganlar. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston Respublikasi milliy Komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug'ullanadi. 1919-1920 yillarda Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo'lib ishladi. Abdulla Avloniy konsul bo'lib ishlagan yillar oz' yurtlari va Afg'oniston xalqlari orasida do'stona munosabatni shakllantirishda jonbozlik ko'rsatib Afg'on shohi tamonidan ham izzat va e'tiborga musharaff bo'lgan adiblardan biri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 8-oktabr №5598-sonli Farmon.



2. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1 oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.



ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING SIFATLARI

Nasiba Imomova Xurramovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisining sifatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ko'nikma, kichik maktab davri, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta'lim, individual-psixologik xususiyat.

Annotation: This article provides information about the qualities of a modern primary school teacher.

Keywords: education, training, skills, early school period, critical thinking, modern education, individual-psychological characteristics.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi dunyo mamlakatlari orasida alohida e'tirofga ega. Chunki milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda tashkil topgan bunday tizim uzoq tarixiy ildiz asosida shakllangan. Har bir xalqning, millatning ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o'z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy o'qituvchi yuksak tarbiyaviy va ta'limiy tayyorgalikka ega bo'lgan, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy eta oladigan inson bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarda tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi. Xususan, darslar ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini tinglayolish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda



o'quvchilar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi. Bu ma'suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon pedagoglariga, ayniqsa boshlang'ich sinflarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarga o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'liq anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i kerak. Ana shu vazifani uddalashga innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik zarur. Ularga oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir. Hozirgi kun o'qituvchisidan ta'lim tizimida yangi texnologiya unsuri bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanish ham talab etiladi.

Bu usullar orqali o'quvchilarni darslarda yana ko'proq munozaraga kirishishga chorlash talab etiladi. Bunda o'quvchilarga erkinlik berish, ularni qo'llab-quvvatlash lozim. Har bir bolaga fe'l-atvori, yoshi, aql-idrokiga qarab ijobiy munosabatda bo'lish, o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorligini ta'minlaydi. Kichik yoshdagi bola ruhiyatida har bir narsa va hodisaga qiziquvchanlik faoliyatini rivojlantirish, ulardagi bilishga bo'lgan intilish kabi xislatlar rivojlantirilishi kerak. O'quvchilarni vaqtida rag'batlantirish va maqtab turish lozim, sababi, bolalar maqto'vni juda yaxshi ko'radilar.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya berishda, o'qituvchidan chuqur bilim, katta mahorat, ma'naviyati boy, izlanuvchan, eng muhimi fidoiy bo'lish talab etiladi.



To'g'ri va xilma-xillikda tashkil etilgan darslar, o'quvchilarni faolligi va qiziqishi, bilimni oshirish orqali, barkamollikni shakllantirib boradi.

Hozirgi kunda, biz yangi pedtexnologiyalar, interfaol metodlar, umuman ta'lim jarayonini yuksak samarasini oshiruvchi yo'l-yo'riqlar ko'p bo'lib, ulardan fanga, mavzuga mosini erkin tanlab, unumli foydalanib, ozgina izlanish orqali o'ziga xos darslarni tashkil etishimizga imkon beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida turli usullardan foydalaniladi. Lekin, bir usul borki, bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlaydi, darsning mana shu jarayoni "o'yin" deb ataladi. Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi. Chunki sinfda o'tirgan bolajonlar yaqinligida o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada "hayratlanish" tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir.

Ta'limiy o'yinlarda bolalarda o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar o'yin orqali o'zlashtiriladi. Tarbiyaviy o'yinlarda esa, Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatleri shakllantiriladi.

Bugungi kunda interfaol metodlar nomi bilan kirib kelayotgan metodlar o'qituvchi-o'quvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarini shakllantirish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlik talab etadi. Quyida ba'zi interfaol usullarning afzalliklari haqida o'z fikrimizni keltiramiz.

Aqliy hujum - bu metod asosida chegaralangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o'ziga xos muammo, vazifa xususida barcha ishtirokchilarning imkon qadar ko'proq g'oyalarni yaratishi yotadi, ya'ni topshiriq barcha uchun yakka holda bajarilib, fikrlar umumlashtirilib bittasi ustida to'xtaladi.

Debat – bu usulning maqsadi o'zaro bahs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir. Shu asosda bolalarda og'zaki nutq o'stirish ishlari ham amalga oshiriladi.

Gapni oxiriga yetkazish - bu metodda o'quvchi o'z g'oyalarni ifodalash ustida ishlash, keyinchalik esa uni boshqalar bilan muhokama qilish imkonini beradi. Bunda



bir jumla yoki soʻz berilib, uni mantiqan oxiriga yetkazish soʻraladi, oʻquvchi esa shu jumalarga mos soʻz tuzadi.

Davra suhbat – taʼlim oluvchilar davra stolida oʻtirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar yoki suhbatni olib boruvchi boshlovchi orqali savol-javobga kirishadilar.

Guruhdagi munozaralar - qoida tariqasida boshqa texnika turlari bilan aralash qoʻllaniladigan hammaga maʼlum usulidir.

Rolli oʻyin - drama yoki “qoyilmaqom qilib oʻxshatish”. Rollar ishtirokchilarga aynan moʻljallanganligini va ularga "goʻyoki chinakamiga" harakatlanish imkonini beradi.

Oʻyinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar - kichik treninglar, oʻyinlar, qoʻshiq va sheʼrlar mazmuniga koʻra harakatlar qilish asosida amalga oshirilib, oʻyin, oʻqish, mehnat kabi faoliyat turlaridan foydalanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining asosiy faoliyat turi oʻqish boʻlishiga qaramay, bir faoliyatdan toʻla ikkinchisiga oʻtish bolada qiyinchilik tugʻdiradi. Shu sababli, dars jarayonida turli taʼlimiy oʻyinlar qoʻllangan holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda, yuqorida ham toʻxtalib oʻtgan edik, oʻquvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari oʻtkazish orqali ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga boʻlgan diqqatini jamlashga olib keladi. Oʻtkazilayotgan dam olish mashqlari avvalo, dars mavzusiga qolaversa, fanga mos boʻlsa, yanada maqsadga muvofiq boʻladi. Boshlangʻich sinflarda dam olish mashqlari asosan harakatli oʻyinlar, sheʼr, qoʻshiqlar mazmuniga koʻra harakatlar, kichik yoshdagi oʻquvchilarga mos psixologik testlar, qiziqarli hangomalar, topishmoqlar koʻrinishida boʻlishi lozim. Boshlangʻich sinf oʻquvchi qaysi oʻquv fanini yoqtirishi, yaxshi, mukammal oʻzlashtirishi va shu asosda mustaqil fikrlash qobiliyatiga erishishi mumkinligini oʻqituvchi oldindan bila olishi kerak. Bu ijodiy muhit barpo etilganda, oʻqituvchi bilan oʻquvchi orasida oʻzaro bir-biriga hurmat, ishonch va oʻzaro shaxs sifatida tan olish hissi paydo boʻlganidagina namoyon boʻladi. Bu darsni oʻtish jarayonida munozara, bahs, muloqotlar kabi usullardan foydalanish orqali ham amalga oshiriladi. Vatanimiz kelajagi bugun maktablarimizda taʼlim-tarbiya olayotgan oʻquvchilarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar boʻlib yetishlariga bogʻliq. Hozirgi kunda maktab oʻqituvchilarining axborot texnologiyalari boʻyicha ham malakasini oshirish ishlari keng yoʻlga qoʻyilgan. Har bir pedagog oʻz kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi. Pedagoglarning axborot texnologik tayyorgarligi bir necha komponentlarni oʻz ichiga oladi. Ulardan biri axborot



kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi.

Jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Buning natijasida o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi. Dars jarayonida o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lishi, savol topshiriqlar va bahs-munozaralarda ko'proq ishtirok etib, bilimni oshirishi fanlararo uzviylik ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyasida muhim rol o'yiaydi. Darslarda mustaqil mutolaa, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, o'quvchining zihnini o'stirish, atrof olamga nisbatan mehr va e'tiborni, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishda o'qituvchining faolligi zamon talablaridan biridir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi avvalambor yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lsagina, biz yosh avlod ta'lim va tarbiyasini a'lo darajaga yetkazishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogika" o'quv qo'llanma. Mualliflar: Shodmonova Sh., Ahmedova M., Hamzayeva H., Farmonova O'., Axmedov J.
2. "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Mualliflari: Abdullayeva B., Umarova A., Saidova B.
3. Ziyomuhammadov B. "Pedagogika".



YOSHLARDA AXBOROT OLISH VA UNDA FOYDALANISH KO'NIKMALARINI TO'G'RI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK YO'LLARI

Sevara Berdimurodova Etalovna

Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirishning psixologik yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashtirish davri, axborot asri, kompyuter texnologiyalari asri, axborot hurujlari, "ommaviy madaniyat", globallashuv jarayoni.

Annotation: This article provides information about the psychological ways of correctly forming the skills of receiving and using information in young people.

Keywords: Information era, information age, computer technology age, information crisis, "mass culture", globalization process.

Bugungi axborotlashtirish davri odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunki inson jadal rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy axborot vositalari va texnologiyalarisiz o'z hayotini tasavvur qila olmaydi. Axborotlashtirishning zarurati axborotning roli va qiymatining keskin o'sishi bilan izohlanadi. Axboriy jamiyat axborotlarni yaratish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va jamlashda inson faoliyatini o'z ichiga olgan yuqori darajadagi axborot muhitidir. Axborotlashtirish jarayoni xususiyatlari yoshlarda axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirishni taqozo etadi. Oddiy til bilan aytganda, axborot radio va televideniye xabarlar, kitob, gazeta, kutubxona ma'lumotlari, insonlar bilan muloqot qilish orqali olingan bilimlardir.

Axborot og'zaki, yozma, elektron signal va radioto'lqin ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular turli vositalar yordamida uzatiladi, xususan, sezgi organlari, foto va videokameralar, elektron datchiklar va boshqalar.

Insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida sanoatlashgan jamiyatdan axboriy jamiyatga o'ta boshladi. Bunday davr axborot asri, axborotlashtirish davri, kompyuter texnologiyalari asri kabi nomlar bilan atalgani bejiz emas. Bu o'zo'zidan, odamlarning axborotlarsiz, yangiliklarsiz, ma'lumotlarsiz faoliyat yurita olmasligini ko'rsatadi. 21 asr tarixga axborot davri, axborot texnologiyalari asri, sifatida kirdi. Keng qamrovli va jadal sur'atlarda tarqalayotgan axborotlar insonning istaklarini,



qarashlarini o'zgartirish kuchiga ega. Darhaqiqat, axborotlar ta'sirida har bir davlat o'z fuqorolari ishonchini oqlash, ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirishga harakat qiladi. Shu boisdan axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma'lumki, biror bir davlat va jamiyat tinchligi va xavsizligiga tahdid soladigan, har jihatdan eskirgan, begona qarashlar singdirilgan axborotlar hech qachon o'zini oqlamagan.

Axborot hurujlarida, maqola va yangiliklarda ba'zan diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", mute'lik, qaramlik kabi puch g'oyalar targ'ib qilinmoqda. Dunyo axborot maydonidagi yangiliklarning asosiy qismi shu kabi salbiy ko'rinishga ega. Shuning uchun ham, biror voqea yuz berganda bo'lib o'tgan hodisa emas, balki, axborot vositalari orqali tarqatilgan ma'lumotlarning vahimasi odamlarga ko'proq zarar etkazmoqda. Bugungi kunda odamlar, yoshlarimiz nafaqat jamiyatda, o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni toboro kengayib borayotgan bir sharoitda yoshlarga uni o'qima, buni ko'rma, deb biryoqlama nasihat qilish, ularni cheklab qo'yishdan ko'ra, ularda axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirsakkina, tarbiya borasida ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz. Hozir dunyoda axborot xavfsizligi – individning, jamiyatning va davlatning manfaatlarini tai'min etishning shartlaridan biri bo'lib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada kuchayib borayotgan hozirgi paytda juda ko'p muammolar paydo bo'lmoqda va bu jahon afkor ommasini tashvishga solmoqda. Axborot oqimining odamlarga ta'siri muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu borada axborotning avlodlar yosh bosqichlariga ko'rsatadigan ijobiy yoki salbiy ta'sirini chuqur o'rganish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida kimki axborotga egalik qilsa, usha dunyoga hukmron bo'ladi degan ibora bejiz paydo bo'lgani yo'q. Ayniqsa, ma'naviy tahdidga, yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot hurujlari avj olsa olayaptiki, aslo kamaymayapti. Ba'zi g'arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublardan foydalanilmoqda. Jumladan, yolg'on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetimizga yod qadriyatlarni targ'ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish, kiberterrorizm kabilar keng tarqalmoqda. Eng achinarlisi, yoshlar asosiy axborotlar manbai sifatida "o'rgimchak to'ri"- internet tarmog'iga murojat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekani, istagan ma'lumotingizni undan bir zumda topa



olishingiz mumkunligini, zarur bo'lsa, dunyoning narigi chekkasi bilan bog'lanish imkoniyati mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

Axborot huruji avj olgan globallashuv sharoitida har bir ma'sul xodim, targ'ibotchi, tarbiyachidan o'z ish uslubini o'zgartirish, yosh avlodga zamonaviy texnika va texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanishni tushuntirish, buning uchun esa, ularning o'zi shu bilimlarni puxta o'zlashtirishini talab etadi. Bu esa, psixologik jixatdan ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish bilan birga, yoshlarda mustaqil, erkin tafakkurning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Dunyo bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir etish kuchaygan sharoitda yoshlarning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganligiga alohida e'tibor qaratish va bunda quyidagi psixologik holatlarga ahamiyat qaratish lozim. Eng avvalo, yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga diqqatimizni qaratishimiz kerak. Ijtimoiy xulqda ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli o'zaro munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hissini namoyon bo'lishidir. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina salbiy yoki ijobiy ma'lumotning mohiyatiga yetishi, unga nisbatan adekvat, to'g'ri, oqilona munosabatni namoyon etishi, ichki psixologik himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Biz pedagoglar yoshlar turli yot axborot hurujlariga berilmasligi uchun ularda milliy g'ururni tarbiyalashimiz va har bir mashg'ulotda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Ma'naviyat soatlari"ning joriy qilinishi, turli yo'nalishlardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirning o'tkazilishi zarurdir. Ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish uchun yoshlar bilan ta'lim muassasasi, mahalla va oilada yuzma-yuz bevosita suhbatlar, ijtimoiy so'rovlar olib borish lozim. Davra suhbatlariga taniqli, el-yurt ishonchini qozongan insonlar-olimlar, mehnat faxriylari, targ'ibotchilarni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarda kitobga, ayniqsa, mumtoz adabiyotga mehr uyg'otish ham ma'naviy barkamollikning ta'sirchan omilidir.

Shunday ekan, yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy maanfatlarimizga rahna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, boy ma'naviy merosimizni buzib ko'rsatishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi qalbimizda ogohlik qo'ng'irog'i doimo bong urib turishi darkor. Ana shundagina, hech kim, hech narsa bizni o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ayni paytda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror (2017 yil 21 aprel)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
3. Adizova T.M. “Психокоррекция. “Учебное пособие. Ташкент.: TDPU, 2006. – 58 s.



IJTIMOYIY HODISALARNI TUSHUNTIRISHDA GERMENEVTIK YONDASHUVNING O‘RNI

Murod Eshnazarov Karimovich

Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv jarayonidagi ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va hodisalarni anglash va ytahlil qilishda, ijtimoiy hodisalarni mafkuravy jihatdan asoslashda germenevtik yondashishning mazmun mohiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: germenevtika, metodologiya, mafkura, ozod va obod vatan, tushunish, tushuntirish, inson, so‘z, milliy g‘oya, tarix, tafakkur.

Annotation: The essence of the hermeneutic approach in the understanding and analysis of social and ideological concepts and events in the process of globalization, and in the ideological justification of social events is explained.

Keywords: hermeneutics, methodology, ideology, free and prosperous homeland, understanding, explanation, person, word, national idea, history, thinking.

Jahonda kechayotgan ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy sohadagi o‘zgarishlar jamiyatning har bir a’zosini ijodiy tafakkurga ega bo‘lishi, muammoli vaziyatlardan intellektual salohiyati va yuksak mulohaza qobiliyati bilan chiqib keta olishi, ijtimoiy jarayonlarning markaziy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishini taqozo etadi. Sun’iy intellekt ta’siri tobora ortib borayotgan XXI asrda inson o‘z bilimlarini matnlarda ifodalangan ilmiy axborotlar bilan boyitib borishi zarur. Bilimlarning boyishida sun’iy intellekt ta’siri ahamiyatli, lekin asosiy masala shundaki, inson, faqatgina yangi axborotni qabul qiluvchi yoki qayd etuvchi emas, balki fikrlovchi, tahlil va tanqid qila oluvchi bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, tadbirlarning bosh maqsadi bo‘lgan - ozod va obod vatan, erkin va farovon hayotni qurish ham aynan shunday mulohazakor, tahliliy tafakkuri kuchli bo‘lgan fuqarolarning faoliyati bilan bog‘liq. Bunday chuqur va keng tafakkur esa, o‘ziga xos ilmiy salohiyat talab etadi. Shunday ekan, hozirgi kunda yurtimizning bosh g‘oyasi bo‘lgan - milliy g‘oyani xalq ishonch- e’tiqodiga aylantirishda germenevtik metodologiyaning o‘ziga xos jihatlaridan foydalanib dunyoqarashni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘zbek xalqining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mafkuraviy ta’sirlar jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda fuqarolarning sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lishi uchun germenevtik mulohaza qobiliyatini



shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, germenevtik tafakkur tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Germenevtik tafakkur erkin ixtiyoriy harakat qiladi, ya'ni u qat'iy qonun-qoidalariga bo'ysunmay, balki tadqiqot obyektining o'ziga xos xususiyati va tadqiqotning maqsadiga ko'ra metodlarni tanlaydi. Mazkur fikrlash tarzi obyektning ichki mazmunini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda obyekt vaziyat va zaruratga qarab induktiv va deduktiv yondashuvlar, ya'ni butun va qism dialektikasi vositasida ham tadqiq etish imkonini beradi. Germenevtik tadqiqotlar obyektini shartli ravishda ongli va ongsiz (ya'ni, inson va u yaratgan borliq) turlarga bo'lib, ularning mazmunini tushunishga alohida yondashish zarurligini ta'kidlash lozim. Chunki, tadqiqot objekti inson (yoki ijtimoiy guruh, halq, millat va hokazo) bo'lganda, ko'proq ichki xususiyat va holatlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunda har doim tadqiqotchida obyekt o'rniga o'zini qo'yib ko'rish, uning kechinmalarini his qilish imkoni bo'ladi. Bunda tushunishning gnoseologik, ontologik, ekzistensial-psixologik, aksiologik, praksiologik va boshqa jihatlarini e'tiborga olish zarur.

Germenevtik tafakkur bu – dialektik tafakkurdagi to'g'ri chiziqli yoki sinergetik tafakkurdagi nochiziqli xaotik tizim emas, balki tashqi (ya'ni, belgi, kod, ramz kabi) ifodalar bilan birga, ichki mazmunni aniqlashga yo'naltirilgan egiluvchan va ko'pqirrali tafakkur tarzidir. Egiluvchan deyilishiga sabab, germenevtik tafakkur obyektning xususiyatiga ko'ra, yondashuv va metodlarini oson o'zgartiradi. Uning ko'pqirraliligi esa, bir hodisaning bir necha aspektda tahlil qilish imkonini berishidadir. Germenevtik tafakkur tarzida obrazlarning ahamiyati ham katta. Bu insonning tasavvur quvvati bilan bog'liq. Germenevtikaning asosiy masalasi bo'lgan tushunish, inson hayotining mazmunli bo'lishini belgilaydi. Hayotning mazmunli bo'lishi insonning olamni tushunishi va uni o'zgalarning tushunishi bilan bog'liq. F.Nitsshening fikricha: "... Fikrlaringni tushunmasliklarini, mulohaza va munosabatingni noto'g'ri talqin qilishlarini ko'rish naqadar og'ir....hayot ma'nosining yo'qolishi aynan shu nuqtadan boshlanadi.". Darhaqiqat, kundalik hayotda tushunmaslik murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Tarixda olim, faylasuf, din vakillarining o'z zamondoshlari tomonidan tushunmaslikning qurboni bo'lganligi ma'lum (Mansur Halloj, Jordano Bruno, Galileo Galiley va hokazo). Yuqorida keltirilgan F.Nitsshening fikri ham, uning hayotiy xulosalaridan olingan. Mutaffakkir salohiyatining zamondoshlari tomonidan noto'g'ri tushunilishi oxir-oqibatda uning aqlidan ozishi va hayotining fojeali yakunlashiniga sabab bo'ldi.

XIX asr boshidagi fanlar rivoji tabiiy va ijtimoiy fanlar o'rtasidagi farqni keskinlashtirdi. Buning natijasida tabiiy fanlardagi yutuqlar ijtimoiy fanlar metodologiyasining kuchsizlanishiga olib keldi. Fan taraqqiyoti kashfiyotlar va ilmiy



izlanishlarga tayanar ekan, ma'naviyat va axloq masalalari natijasiz qadriyat sifatida o'z qadrini yo'qota boshlaydi. Falsafiy germeneytikaning asoschilaridan biri bo'lgan Fridrix Shleyyermakser ham bu jarayonga achinish bilan qarab shunday degan edi: "Tabiat haqidagi fan (fizika) va inson ma'naviyati bilan bog'liq bilim (axloq) o'rtasidagi farq qadimdan bor edi. Lekin hozirgi kun fanining oldida boshqacharoq vazifa turibdi, ya'ni u mana shu dixotomiyani birlikda ko'ra olishi lozim. Mening izlanishlarim bir maqsad – fizika va axloqning umumiy va bog'liq tomonlarini ochib berishga qaratilgan. Buning uchun fizikadagi dialektik mantiq, axloqdagi fazilatlar uyg'unligini birlashtirish lozim". Fanlar orasidagi muvofiqlikning buzilishi Shleyyermakser kabi ko'plab olimlarning tashvishiga solgan. Zero, bugungi kunga kelib deyarli ikki asr oldin Shleyyermakser maqsad qilgan vaziyat - fanlarning integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. Agar XIX asr boshida tabiiy fanlarning rivoji qanchalik obyektiv hodisa sifatida rivojlangan bo'lsa, bugun, ya'ni XXI asrda fanlarning insonparvarlashuvi obyektiv hodisaga aylanmoqda.

Inson hoxish-irodasiga bog'liq bo'lmagan global o'zgarishlar davrida falsafiy germeneytika vakillari axloqiy individuallikka e'tibor qaratadilar. Axloqiy individuallik – shaxsning faqat o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish, saqlab qolish va vorisiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Axloq – har bir zamonda, har qanday jamiyatda, har bir hududda ijtimoiy hayot barqarorligini ta'minlovchi asosiy ustunlardandir. Zero, faqat insongagina axloqiylik xos. Axloqiylik faqat yaxshi ish, ezgu fazilatlarda emas, balki voqealarga ijodiy yondashishda, shaxsning doimiy barkamollikka erishishida namoyon bo'ladi. I.Kant o'zining axloqiy imperativlarida bu jihatni mavhumlashtirib, umumiy axloq xususida so'z yuritadi. Umumiy axloq individual axloq va uni shaxs tomonidan ijodiy tushunilishini taqozo etadi. Kant axloqi mavhumligiga qaramay, bu g'oya umumiy aql, barcha mavhum majburiyatlarni bajarishga burch kabi umumiy fikrlarni xususiy holatlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, har bir inson o'z tafakkurida insoniylik mohiyatini tushunishi, ilohiy ijodkorlikni his qilib, o'zini uning bir bo'lagi sifatida kamol topishiga ongli harakat qilishi lozim. Bu esa, shunchaki burch emas, balki hayot mazmunini boyituvchi asos sifatida tushunilishi lozim. Germeneytikada bu mazmunni his qilish orqali tushunish bilan amalga oshadi. Ya'ni, inson o'z shaxsiy barkamolligini aql bilan tushunib, qalbi bilan his qila olishi kerak. Shu yerda intensionallikka e'tibor berish lozim.

So'z – yaratadi, fikr – harakatga undaydi, bularning barchasi aniq maqsad uchun xizmat qilganda oqilona baholanadi. Har bir davlat, ijtimoiy guruh shunday tamoyilga, maqsadli faoliyatga ega insonlarga ehtiyoj sezadi. Germeneytik tahlil



yuqorida aytilganidek, bir nuqtani ko‘p nuqtalardan turib o‘rganish imkonini beradi. Milliy mustaqillik mohiyatini anglash, uni mustahkamlash uchun aniq yondashuvga ega bo‘lish zaruratini germeneytik tushuntirishning sababiy – deterministik uslubi orqali tahlil etish mumkin: Lingvistik tahlil. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish”- O‘zbekistonning ustuvor maqsadi hisoblanadi. Bu g‘oyaning dastlabki bayon etilishi (kelib chiqishi, tug‘ilishi) yakka shaxs bilan bog‘liq. Shu jihatdan shartli ravishda, tahlil uchun bu fikrni bir insonga tegishli deb olish maqsadga muvofiq. E’tibor berilsa, bu gapda keltirilgan barcha so‘zlar ijobiy xarakterga ega: birinchi jumladagi “ozod” so‘zi ikkinchi jumladagi “erkin” so‘zi bilan ma’nodosh. Bu so‘zlar zahirida ozodlik - fuqaro uchun katta ne’mat ekanligini e’tirof etish, erkin bo‘lish, ya’ni o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatining tub mohiyatini anglash yashiringan. Zero, haqiqiy erkinlik – anglab olingan zaruriyatdir. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolar o‘z ozodliklari va erkinliklarining qadriga yetgan holda, bu ne’matning mas’uliyatini ham tushunishlari, har qanday tashlangan qadam uchun kelajak avlod oldidagi mas’uliyatlarini his qilishlari lozim. Mana shu holatda haqiqiy erkinlikni o‘zlikka singdirish mumkin. Erkinlik va ozodlikning qadriga yetmaslik, avlodlar, millat oldidagi mas’uliyatni to‘la his qilmaslik oqibatlarini tarixdan ma’lum. Masalan, Amir Temur davri haqida to‘lib-toshib, iftixor bilan gapiramiz. Lekin keyingi asrlardagi voqealar – uchta xonlik davridagi amir va xonlar o‘rtasidagi xudbinona kayfiyat, hammillatlarini o‘zidan past ko‘rish kabi salbiy illatlar o‘zbeklarning yuragini tirnab o‘tishi sir emas. Demak, ozodlik va erkinlikning mohiyatini nafaqat bugungi kun bilan, balki tarixiy saboqlar bilan tushunish millat kelajagining barqaror bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Keyingi “obod” va “farovon” so‘zlari ham bir-biri bilan ma’nodosh, bir-birining davomi. Obod yurtida farovon hayot bo‘ladi. Ayni paytda obod bo‘lishning ham bir qancha sabab va omillari bor. Bular – ilm-ma’rifatning rivoji, umumbashariy va milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy barkamollik va hokazo. Yurt farovonligini aynan shu jihatlarning amaliy namoyon bo‘lishi, ya’ni harakatdagi holati belgilaydi. Umuman oladigan bo‘lsak, bu g‘oyadagi so‘zlarning tanlanishi e’tibor va tahsinga loyiq. Chunki, ular leksik-semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘liq, bir-birini taqozo etadi, biri ikkinchisiz to‘la mavjud bo‘la olmaydi. Faqat ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayot qurish mumkin. Bu so‘zlar ertangi kundan umidvor, hayot oldida katta maqsadlari bor insonga tegishli. Chunki, inson faqat bugungi kundan qoniqqandagina kelajagi haqida qayg‘uradi. Kelajakni ko‘ra olmaslik barcha fojealarning birinchi sababi ekanligini e’tiborga olish zarur. Bu so‘zlarni esa, nafaqat



bugungi kuniga, balki ertangi kuniga ham katta umid bilan qarayotgan millat vakili ayta oladi. Bu jihat bosh g'oya subyektining psixologik tahlili sifatida izohlanadi.

Mustaqillikka erishilgandan keyingi yillarda davlatimiz tarixini, ajdodlarimiz merosini qayta tiklash, ma'naviy yodgorliklarni, Buyuk ajdodlarimiz maqbaralari qayta ta'mirlandi, muborak ziyoratgohlar kishi ko'zini quvontiradigan qadamjolarga aylantirildi. Tarixiy obidalar yangi ko'rinish kasb etdi, buyuk allomalar, siyosat va jamoat arboblarning xotirasini barhayot qiluvchi monumental yodgorliklar qurildi. Bu masala jiddiy e'tibor talab qiladi, chunki tarixiy xotirani borligicha, haqqoniy tarzda gavdalantirish murakkab masala. Bu yo'ldagi kichik bir xato, kamchilik ham tarixiy haqiqatni berkitib yuborishi mumkin. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Sohibqiron Amir Temur siymosini yaratishdagi qiyinchiliklar, munozaralar xususida to'xtalib o'tgan. Monumental yodgorlik, surat tarixiy haqiqatni o'zida to'la ifodalay olishi zarur. Amir Temur suratida yuksak aql-zakovat, kuchli iroda, buyuk maqsadlar kabi buyuk siymoning aynan o'ziga xos ustun jihatlari aks etishi lozim.

Tarixiy haqiqatni moddiy obyektida haqqoniy tasvirlash va talqin qilish uchun chuqur bilim hamda ijodiy yondashuv talab qilinadi. O'zbekistonda hali o'zining to'la hayotiy aksini topmagan buyuk siymolar, sahifalar ko'p. Galdagi vazifalardan biri ham tarix va taraqqiyotning uzviyligini ta'minlashdir. Tarixiy meros, milliy qadriyatlarni monumental yodgorliklarda aks ettirish masalasiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jiddiy e'tibor berdi. Buni Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temur, Toshkent va Samarqandda Alisher Navoiy, Farg'onada Al-Farg'oniy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Andijonda Mirzo Bobur haykallari misolida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tarixiy tafakkur va kelajakni bog'lovchi qadriyatlar aks etgan Termizda Alpomish, Urganchda "Avesto" yodgorliklari, Toshkentda Ezgulik arkasi, Mustaqillik va ezgulik, Motamsaro ona, Qarshi shahrida "El-yurt tayanchi" monumentlari, Namangan shahrida "Tinchlik" stellalarining bunyod etilishi bu boradagi jiddiy sa'y-harakatlarning namunasidir. Zero, "Ta'kidlash kerakki, tarixiy yodgorliklarni qayta tiklash – bu faqat tegishli mablag' yoki kuch-imkoniyat topishdangina iborat emas, balki birinchi galda jiddiy ilmiy yondashuvni, nozik did va mahoratni, chuqur bilim, tajriba va kerak bo'lsa, ma'naviy poklikni talab qiladi"⁸.

⁸ Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B.217-218.



Milliy g'oya mazmunini ifodalovchi har qanday kichik hajmdagi, oddiy ko'rinish va tasvirga ega obraz, belgi va ramzlarni kundalik hayotga olib kirish zarur. Inson irodasiga bog'liq bo'lmagan holatda keskin kuchayib borayotgan global va integral jarayonlar, tobora milliy xususiyatlarga ham taz'yiqlik o'tkazayotganini rad etib bo'lmaydi. Bugun bu jarayonlardan o'zimizni qanday himoya qila olamiz, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga, avvalo, millatning boy qadriyatlarini saqlash orqali deb javob berish o'rinli, albatta. Bu fikr umumiy bo'lsa-da, ayrim xususiy holatlar bilan misol keltirib o'tish lozim. Masalan, yosh qizchalar o'ynaydigan eng sevimli qo'g'irchoqlarni olaylik, "Barbi", "Sindi". Nima uchun "Zumrad" yoki "Barchinoy" emas? Axir o'zbek xalqi ham o'zining milliy o'yinchoqlari borasida jahonning hech bir davlatidan kam bo'lmagan merosga egaku? I.Karimov bu borada muhim bir fikr aytib o'tgan: "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir"⁹. Bu haqda kuyinib gapirishning o'ziga yarasha sabablari bor. Agar inson qalbiga yo'l ma'naviyat orqali borilar ekan, bu yo'lning birinchi ostonasida bolalik turadi. Har qanday ma'naviy tarbiya bolalikdan boshlansagina mustahkam asosga ega bo'ladi. "O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi"¹⁰.

Umuman olganda, yaratuvchanlik ma'naviy kamolotning eng muhim vositalaridir. Ijodkorlik va yaratuvchanlik tufayli millatning ma'naviy qiyofasi yaraladi. Davrlar o'tsada, millatning buyukligi ajdodlar yaratib qoldirgan ma'naviy meros, ya'ni san'at va adabiyot durdonalari bilan o'lchanadi. Shunday ekan, milliy g'oyani mustahkamlashda oddiygina ijod namunasining o'rni ham beqiyos kuchga ega, buning natijasi esa ularni hayot tarzi, an'analarga singdirishga bog'liq.

O'zbekiston – boy tarixiy meros, yuksak ma'naviy qadriyatlarga boy yurt. Tarixiy merosni tahlil qilish, qadriyatlarni talqin qilish zaruriyati tobora globallashtirib, integrallashib borayotgan bugungi dunyoda millat kelajagini barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asoslardan biridir. Zero, dunyoda bo'sh joy bo'lmaydi, agar paydo

⁹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". "Ma'naviyat" –T:2008 yil. 164-b

¹⁰ O'sha kitob 168-b



bo'ldimi, kimdir bu joyni to'ldirishga harakat qiladi. Agar yoshlar tafakkurini, ularning ma'naviy dunyosini tarixiy meros, milliy ma'naviyat bilan to'ldirilmas ekan, o'zga kuchlar bunga harakat qilishlari tabiiy. Insonni yashashga undaydigan kuch faqat undagi aqliy tafakkurning borligi emas, balki uning imon-e'tiqodining borligida hamdir. Chunki faqat tafakkur orqali aniq hisob-kitoblar bilan yashash insonni tushkunlikka olib boradi. Tafakkur boshlanishi bo'lgan jarayonning oxiri ham borligini doim ta'kidlab turadi. Imon-e'tiqod esa, tafakkur ta'kidini qalb bilan his qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham yurt kelajagi uchun kuchli jamiyatning asosi bo'lgan kuchli shaxslarni tarbiyalashda ularning ham intellektual salohiyatini, ham ma'naviyatini takomillashtirib borish zarur. Bu vazifani amalga oshirishda ijtimoiy jarayonlarni germevntik tahlil etish o'z samarasini beradi. Chunki, germevntik mushohada, avvalo, loqaydlik, beparvolik kabi illatlarning ildiz olishiga yo'l qo'ymaydi, insonni doim ziyrak tushunuvchi mavjudot bo'lib qolishini ta'minlaydi. Voqea-hodisalarni to'g'ri tushunish esa, ongli faoliyatning asosidir.

Xulosalar. Germevntik yondashuv mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda obrazli tafakkurni shakllantirishi bilan muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Obrazli tafakkur tahliliy, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga sabab bo'lishini hisobga olib, milliy g'oyani mustahkamlashda monumental yodgorliklarni ko'paytirishga, ularda tarixiy haqiqatni aks ettirishga erishish muhim ahamiyatga ega. Ajdodlar yaratgan tarixiy-ilmiy merosni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish mas'uliyatini anglagan holda, mavjud milliy va mumtoz monumental yodgorliklar, tashkilot va har qanday yuridik subyektlar emblema va logotiplarida milliy ramzlarni aks ettirish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy hodisalarni germevntik tushunish insonning jamiyatdagi o'rnini, orzu-maqсадlarini belgilashga ta'sir qilib, bevosita uning dunyoqarashini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, germevntik metodologiyaning qiyosiy- tahliliy, tanqidiy mulohaza qobiliyatini kuchaytirishda muhim vosita ekanligini hisobga olib, uni mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda milliy g'oya targ'ibotida asosiy yo'nalishlardan biri bo'la olishini qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat. 2018 yil. 182-b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.// O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: 2020 yil. Lex.uz
3. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” Vazirlar Mahkamasining PQ 1059-sonli qarori. 2019-y. 31.12. ziyonet.uz



4. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent - «O‘ZBEKISTON» - 2016. 386-b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I.A. Barkomol avlod orzusi. - T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000 yil. 345-b.
6. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. 15-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007. –B.217-218.
7. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” . “Ma’naviyat” –T:2008 yil. 164-b
8. Абдуллин А.Р. Философская герменевтика: исходные принципы и онтологические основания: –Уфа: Издание Башкирского университета, 2000. - 60 с.
9. Герменевтика и деконструкция / Под ред. Штегмайера В., Франка Х., Маркова Б. -СПб.: Питер, 1999. -289 с.
10. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар / Назаров Қ. таҳрири остида. - Тошкент: Шарқ, 2005. -618 б.
11. Денискин С.А. Герменевтический концепт моделирования жизни. // Наука. Философия. Общество. Материалы V Российского философского конгресса. -Т. 2. –Новосибирск: Параллель, 2009. –С. 71.
12. Наврўзова Г.Н., Юнусова Г.С. Тасаввуф – Шарқ герменевтикасининг таркибий қисми // Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт: Халқаро илмий конференция материаллари. –Тошкент: ЎФМЖ, 2008. –Б. 80-82.
13. Назаров Д.М. Компаративный анализ герменевтической научной методологии // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2010. № 5. С. 32-35.
14. Одуев С.Ф. Герменевтика и описательная психология в «философии жизни» В. Дильтея // Герменевтика. История и современность. М., 1985. – С. 105.



ISSIQXONADA ISHLOVCHI ISHCHI XODIMLARGA TA'SIR QILUVCHI MIKROIQLIM OMILLARI

Siroj Kuranboyev Berdiboy o'gli
Gulrux Kalandarova Davranovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Umumiy gigiyena kafedrası
assistentlari

Annotatsiya: Bu maqolada issiqxonada ishlovchi ishchi xodimlarga ta'sir qiluvchi mikroiklim omillar, ular keltirib chiqaradigan oqibatlar tadqiq qilingan. Issiqxona ishchilarining ehtiyotsizligi va ish sharoitidagi salbiy jihatlar inson salomatligiga qanday ta'sir etishi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'z: Issiqxona, mehnat xavfsizligi, iqlim sharoiti, biologik issiqlik, quyosh nuri, gaz va ko'mirning isitishda o'rni.

Annotation: In this article, the microclimatic factors affecting workers working in greenhouses and their consequences are studied. It has been scientifically proven how carelessness of greenhouse workers and negative aspects of working conditions affect human health.

Keywords: Greenhouse, labor safety, climatic conditions, biological heat, sunlight, role of gas and coal in heating.

Issiqxona —noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik) yaratadigan inshoot. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxonalarining xilma-xil turlari mavjud. Ular foydalanish muddatlari va davomlilikiga qarab qishki hamda bahorgi; vazifasiga ko'ra ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan; sabzavotlarni o'stirish texnologiyasiga qarab tuproqli va gidropon; ichki jihozlarga qarab so'kchakli va tuproqli turlarga bo'linadi. Konstruktiv yechimi jihatdan Issiqxonalar nur o'tkazuvchi nishab tomonlari miqdoriga qarab, bir, ikki va ko'p tomonlama nishabli turlarga bo'linadi. O'zbekistonda, asosan, pomidor, bodring, rezavor ekinlar, sabzavot o'simliklari ko'chatlari, shuningdek, limon va manzarali o'simliklar issiqxonada yetishtiriladi. Yozi qisqa bo'lgan o'rta va shimoliy mintaqalarda issiqxonada turli sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yil bo'yi o'stiriladi, hosil olinadi va o'simliklarning yangi nav hamda duragaylari yetishtirish



va boshqa ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Qishki issiqxonalar yil bo'yi foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ularda sabzavotlar bahorgi issiqxona, parniklar, ilitilgan yerlarda o'stirish uchun ko'chatlar yetishtiriladi. U metall yoki temir-betondan ishlanadi. Bahorgi issiqxonalar yengil konstruksiyalardan sabzavotlar yerda o'stiriladigan qilib quriladi. Biologik issiqlik yoki quyosh nuri bilan isitiladi.¹¹

02.11.2022 sanadagi PQ-413-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori imzolandi. Bu qaror ham issiqxonalar faoliyatini yanada rivojlanishida, sifatli mahsulotlarni yetkazib berishida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Issiqxona xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish va tayyor mahsulotni ichki va tashqi bozorga yo'naltirishning shunday yangi mexanizmi joriy etilsinki, unga muvofiq Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi: issiqxona xo'jaliklariga urug', ko'chat, mineral o'g'it va boshqa moddiy resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotni ulardan xarid qilish choralari ko'radi; respublikada faoliyat yuritayotgan tajribali va malakali agronom, entomolog, laboratoriya mutaxassislarini issiqxona xo'jaliklariga shartnoma asosida tavsiya qiladi. Moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda 2022-2023-yillarda respublika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan va yangidan tashkil etiladigan issiqxonalar uchun elektr uzatish liniyalarini qurish, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini tortish dasturini hamda ajratiladigan budjet mablag'lari parametrlarini tasdiqlasin. Bunda, ajratiladigan mablag'lar kichik sanoat zonalari uchun nazarda tutilgan budjet mablag'lari doirasida ko'rib chiqiladi.¹²

Keyingi paytdagi ko'p o'zgarishlar oziq-ovqatlarga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Jumladan, aholi sonining oshishi, katta-kichik ovqatlanish shohobchalarining, restoranlarning ko'payishi issiqxonalar faoliyatini ham intensive shaklda ishlashini talab etdi. Buning natijasida esa yurtimizda issiqxonalarda sabzovot va boshqa shu kabilarni tez va ko'p miqdorda yetishtirishga yordam beradigan texnikalar kirib kela boshladi. Bu esa o'z navbatida issiqxona ishchi xodimlarining ham ish faoliyati yengilliklarga olib keldi. Lekin bu ularning ikki xil temperature haroratida yashashdek tarziga ta'sir eta olmaydi. Issiqxona ishchilaridagi

¹¹ O'.S.Kobuljonovna F.Qaxxarova. Issiqxona ishchilarini mehnat sharoitini baholash va xavfsizligini oshirish choralari ishlab chiqish. Journal of innovations in scientific and educational research volume-2, issue-13.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.11.2022 yildagi PQ-413-son. Lex.uz



kasalliklar bevosita va bivosita issiqxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillarga ega bo'lgan turlarga ajratish mumkin.

Bilvosita issiqxona faoliyatiga bog'liq bo'lgan omillar sifatida quyidagini keltirish mumkin. Iliq, issiq bo'lgan issiqxonalarda kuniga 8-10 soat ishlaydigan xodimlarning qish faslida tashqaridagi -10, -20 va undanda past bo'lgan sovuq havo bilan yuzlashishi natijasida sog'liklarida jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tgan ikki xil iqlim sharoiti sabab issiqxona xodimlari o'rtasida tez-tez grippga chalinish va katta salbiy ta'sirga ega kasalliklar, jumladan, nafas yo'llarining shamollashi, bo'g'im kasalliklarining avj olishi va teri sezgirligi yuqori bo'lgan insonlarda turli teri kasalliklarining ortishi ko'payishi mumkin.

Nafas yo'llarida shamollashning, astma kelib chiqishi tadqiqotlariga nazar soladigan bo'lsak, bevosita ikki xil iqlim, ayniqsa, issiqdan-sovuqqa ketma-ketligining bosh omillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa issiqxona xodimlarining tez-tez shamollashlariga olib keladi. O'z-o'zidan esa xodimlar shamollashga qarshi turli dori vositalariga ko'proq murojaat qilishiga olib keladi. Bu dorilar ham allergik ta'sir ko'rsatib ularda jiddiy muammolarni kuzatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ¹³penitsillin, streptomitsin, tetratsiklin, sulfanilamidlar hamda aspiringa javoban ro'y beradigan allergiya hammadan ko'p uchraydi. Ilk bor nafas qisib, bo'g'ilib qolishlarni ba'zan dori allergiyasi boshlab beradi va bu prognostik jihatdan yomon belgi bo'lib, ushbu jarayonning zo'rayib borishi bilan xarakterlanadi.

Bundan tashqari kimyoviy moddalar ham bu kasallikni keltirib chiqarishda faol qatnashadi. Bilamizki, issiqxonalarda meva va sabzovotlarni turli kasalliklardan himoyalash uchun har xil kimyoviy tarkibga ega vositalardan foydalanishadi. Kimyoviy zararli omillar aksariyat ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Bronxial astma ish faoliyati bilan bog'liq zaharli ximikatlarga yaqin yuradigan qishloq xo'jaligi xodimlari orasida, to'qimachilik korxonalari va kimyoviy korxonalar, parrandachilik fabrikalari ishchilari orasida kengroq tarqalgan. Zararli kimyoviy moddalarning kishiga ta'siri, shu ta'sirning muddati, doimiyligi va darajasiga bog'liqdir. Ishlab chiqarishga aloqador zararli omillar odam organizmiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha quyidagilarga ajratiladi¹⁴:

- 1) antitelalar hosil bo'lishiga sabab bo'ladigan allergenlar;
- 2) to'liq hujayralardan noimmunologik yo'li bilan gistamin ajratib chiqara oladigan moddalar;

¹³ Ubaydullayev A.M.. Nafas organlari kasalliklari. «Yangi asr avlodi», Toshkent, 2009-yil

¹⁴ Shu kitobdan.

- 3) respirator a'zolariga ta'sirchan moddalar (gazlar, bug'lar, changlar);
- 4) jismoniy zo'riqish;
- 5) ruhiy-hissiy jihatdan iztirob chekish, stress.

Issiqxona sharoitida yoz faslida, issiq kunlarda tez-tez chang balandligi darajasi oshib turadi. Bu chang esa allergik xususiyatga ega bo'lgani uchun bronxial astmaning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Chang - 40-50 foiz organik birikmalar va 50-60 foiz anorganik moddalar (sement, ohak, kvars) dan tashkil topgan har xil jinsli aralashmadir. Oson «uchuvchan» va yetarli darajada «og'ir» bo'lgan o'simlik changlari faol allergenlardir. Yovvoyi holda o'suvchi va madaniy yetishtirilgan tur o'tlar, ba'zi daraxtlar (chinor, terak) changlari ayniqsa sezilarli darajada allergiyalash xossalariga egadir. Changda hayvonlar, mikroblar, zamburug'larga aloqador organik moddalarning qoldiqlari, odamdan chiqadigan qazg'oq ham bo'lishi mumkin. Uy changing allergiyalovchi eng muhim qismi «Dermatophagoides» sinfiga mansub kanalar va suvarak allergenlaridir. Uy sharoitida tashkil etilgan issiqxonalarda uchraydigan kanalar (uy kanalari) eng ko'p tarqalgan kuchli allergen bo'lib, ularning jahon bo'ylab bronxial astmaning asosiy sababi ekanligini shak-shubhasiz tasdiqlovchi dalil va isbotlar bor. Uy kanasining tanasi, undan ajralib chiqadigan sekretlar, hayot faoliyatining mahsulotlari ham allergenlar qatoriga kiradi.¹⁵

Bilamizki, ko'p issiqxonalar gaz yordamida istiladi. Istish tizimlari o'z vatiqda nazorat qilinib, tozalanib turilmas bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2013-2015-yillar davomida respublikamiz hududida sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning 12% tabiiy va is gazlaridan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi natijasida chaqnashlarni holatlari bilan bog'liq. Ma'lumki is gazi (SO) rangsiz, hidsiz, korxona sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida vujudga keladi. Tutun tarkibida 3 %, ishlangan gazda 13 %, portlovchi gazlar tarkibida esa 50-60% gacha is gazi bo'ladi. Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlaymaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, avtoullovlar turar parklarda, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.¹⁶ Aynan shu kabi holatlarni oldini olish va

¹⁵ Ubaydullayev A.M.. Nafas organlari kasalliklari. «Yangi asr avlodi», Toshkent, 2009-yil

¹⁶ Geografiya.uz. Aholi orasida tabiiy va is gazlaridan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi natijasida chaqnashlarni oldini olish. 2016.



tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojni nisbatan kamaytirish maqsadida issiqxonalarda tabiiy ko'mirdan isitish tizimida foydalanish borasida ko'rsatmalar berildi.

Xulosa qilib aytganda, issiqxona xodimlari, umuman har bir soha ishchisi tegishli korxona, zavod, fabrika, tashkilotning ichki mehnat xavfsizligiga rioya qilgan holda xizmat qilishi lozim bo'ladi. Issiqxonalarning ishchilari o'rtasida ham bu borada mahorat darslari olib borilsa, mavsumiy o'zgarishlarda ko'riladigan shaxsiy tartib-qoidalar haqida ko'rsatmalar berib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, issiqxonalarning uzluksiz ishlashi, eng avvalo, ishchilarning salomatligiga bog'liq jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.S.Kobuljonovna F.Qaxxarova. Issiqxona ishchilarini mehnat sharoitini baholash va xavfsizligini oshirish choralarini ishlab chiqish. Journal of innovations in scientific and educational research volume-2, issue-13.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.11.2022 yildagi PQ-413-son. Lex.uz
3. A.M.Ubaydullayev. Nafas organlari kasalliklari. «Yangi asr avlodi», Toshkent, 2009-yil.
4. Geografiya.uz. Aholi orasida tabiiy va is gazlaridan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi natijasida chaqnashlarni oldini olish. 2016.



G'JDUVON SHAHRI TARIXIY - TOPONOMIKASIDAN

Zulfizar Ismatova

O'zbekiston milliy universiteti, Etnografiya, etnologiya va antropologiya
yo'nalishi magistranti
zulfizarismatova07@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro tarixiga oid bo'lgan manba va adabiyotlardan foydalanilgan holda G'ijduvon nomining kelib chiqish tarixi yoritib berilgan. Shular qatorida, dala tadqiqotlari yordamida ham G'ijduvon shahrining qanday qilib shakllangani va uning nomi qanday ma'nolarni anglatishi haqida qiziqarli rivoyatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: G'ijduvor, Gej, G'ishtli devor, Shahri G'olibon, Abduxoliq G'ijduvoniy.

Annotation: In the article, the history of the origin of the name Gijduvan is explained using sources and literature related to the history of Bukhara. Among these, with the help of field research, interesting narratives are presented about how the city of Gijduvan was formed and what its name means.

Keywords: G'ujduvor, Gej, Brick wall, City of Ghaliban, Abdukholiq Ghijduvani.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha, joy nomlari (ilmiy atamashunoslikda "toponimlar") tarix va vaqt o'rtasidagi kuzatuvchi, voqea hodisalar ishtirokchisi hisoblanadi. "Toponim" - lotincha *topos*-joy, *onima*-nom, joy nomalarini o'rganuvchi maxsus fandir. Joy nomlari o'z etimologiyasiga ko'ra xalqning boy o'tmish tarixi, etnomadaniy jarayonlar ta'sirida kechganligini kuzatish mumkin. O'rta Osiyo xalqlarida ham qadim-qadimdan madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida geografik hudud, barpo etilgan joy yoki obyektlarni nomlashda o'ziga xos tartib, an'analarga rioya qilingan hamda joy nomlariga bo'lgan munosabatlarda vorisiylik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tarixchi, filolog va boshqa soha olimlarimiz tomonidan toponimlarni o'rganish masalasiga, ularning kelib chiqish tarixi, bugungi kundagi joy nomlarining yangilangan nomlarini tahlil qilish, ayrim hududlarning esa aholi talab va takliflaridan kelib chiqib eski nomlarini tiklashga yoki hozirgi eski joy nomlari o'rniga yangi nomlar bilan atashga doir bir qancha ishlar olib borilmoqda. Chunki mana shunday joy nomlari milliy o'zligimizni anglashga, milliy udum, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga takror e'tibor berishga hissa qo'shadigan vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz”, deb bekorga aytmagan [1].

Ushbu maqolaning tahlil va natijalariga keladigan bo‘lsak G‘ijduvon Buxoroning qadimiy qishloqlaridan biri hisoblanadi. Uning nomi X asrdan boshlab arab va mahalliy manbalarda tilga olinadi. G‘ijduvon X asrdan boshlab yirik aholi markazi, ya’ni shahar maqomida faoliyat yuritib kelgan bo‘lib, Buxoro xonligida mavjud 32 ta rustav(tuman)ning orasida eng kattasi bo‘lgan[2].

G‘ijduvon shahri asrlar davomida bir necha marta talanib, vayronaga aylantirilgan bo‘lsada, o‘zining geografik joyidan siljimagan va yana o‘sha o‘zi qaror topgan balandlikda qo‘rg‘on shaklida qayta-qayta tiklanavergan. Bu shahar tub aholisi etnik tarixini ham qadimiyligidan darak beradi. G‘ijduvon shahri Buxoro vohasining g‘arbi-shimoliy tomonida, undan 40 km chamasi uzoqlikda joylashgan o‘rta asr shahri. Hozir shu nomdagi tuman markazidir [3].

Yozma manbalarda yozilishicha, G‘ijduvon Movorounnahrning nafaqat iqtisodiy-siyosiy markazi, balki fan va madaniyat tarixida ham o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan. Masalan, Husayn Voiz Koshifiyning “Rashoxat at al-hayot” asarida keltirishicha O‘rta Osiyodagi tasavvuf ta’limotining mashhur namoyondalaridan biri Abduholiq G‘ijduvoniy haqida xabar beradi: “U asli g‘ijduvonlik, qabri G‘ijduvonda, Xojagon, So‘fiylik silsilasi asoschilaridan biri bo‘lgan. G‘ijduvon nomi ham ana shu davrdan boshlab olamda yanada mashhur bo‘lgan” deb ta’kidlaydi. Hofiz Tanish Buxoriy o‘zining shoh kitobi “Abdullanoma” (“Sharafnomai shohiy”) asarida yozilishicha G‘ijduvonda tug‘ilib Buxoroda yashab o‘tgan Xo‘ja Oloviddin G‘ijduvoniy (XIV asr oxiri XV asr boshi) ismli mashhur shayx o‘zidan katta ma’naviy meros qoldirgan ekan[4].

G‘ijduvon nomining kelib chiqishi bo‘yicha ham manbalarda, turli xil fikrlarga duch kelishimiz mumkin. X-XI asrlar sayyoh olimlari G‘ijduvon nomini bir necha ko‘rinishlarda tilga olganlar. Jumladan, arab sayyohi va olimi Shamsiddin Al-Muqaddasiyning (946-1000) “Axsan at-Taqqosim fi Ma’rifat al-Akkolim” (“Iqlimlarni bilishning eng yaxshi taqsimlash yo‘li”) asarida bu joyni “Gujduvor” (yoki G‘ijduvor) shaklida yozib, shahar ko‘rinishidagi katta qishloq deb ta’rif berilgan. Abu bakr Muhammad ibn Ja’far an Narshaxiyning memuar asarlardan bo‘lmish “Buxoro tarixi” asarida Buxoro va unga qo‘shilgan joylar haqida ta’rif berganda o‘ndan ortiq toponimlarga ta’rif berar ekan aksariyat aholi yashaydigan joylarni katta qishloqlar deb tilga oladi va aynan G‘ijduvon haqida ma’lumot



bermaydi. Bizningcha, asarda keltirilgan Barkad, Vardona, Iskajkat, Tavois kabi nomlarda G'ijduvon hududlari nazarga olingan bo'lishi mumkin[5].

G'ijduvonning "Gujdavon" so'zidan olinganligini "dovonlari g'uj, dovonlari ko'p bo'lgan joy" ma'nosini anglatishi haqidagi ma'lumotlar saqlangan[6,19].

Muhammadjon Baqoyevning "G'ijduvonnomi" kitobida G'ijduvon nomi bilan bog'liq rivoyat ham uchraydi. Bu rivoyat Mug'allon qishloqlik Qilichbobo Siddiqov tomonidan aytib berilgan: "Emishki, bir sharqlik donishmand Buxorolik donishmandlarni munozarada lol qoldirib nom qozonmoq niyatida bu yerga kelgan ekan. Yo'li G'ijduvon qo'rg'oniga tushibti. Bir xonadonda tunabdi. Uy sohibini boboi Porado'z der ekanlar. Mehmon uyga kirib hayron qolibdi. Ravoqi-javonlarda, xontaxta ustlarida ham xilma-xil kitoblar, sahifalashtirilgan qo'lyozmalar terib qo'yilgan ekan. Boshqa bir oqshom bu mehmon mahsido'z hunarmand xonadonida mehmon bo'libdi. Uchinchi kechani temirchi usto-chilangar uyida o'tqazibdi. Bu xonadonlarda ham u juda ko'p kitoblarni ravoqlarda, javonlarda terib qo'yilganini ko'ribdi. Xonadon egalari har ertalab turib, ularning changlarini tozalar va peshonasiga qo'yib o'par ekan. Oxirgi kechada mehmon o'zining maqsadini oshkor qilibdi: "Men kun chiqish tomonidanman. Ko'p o'qigan olim, ko'p joyni ko'rgan sayyoh va elatlar o'tmishi va hozirgi hayotidan, kechinmalaridan xabardor tarixchiman. Shu bilan birga bahs-u munozaralarda nom qozongan donishmanddurman. Bu chekka joyda odamlar kitoblarni e'zozlab, gapda chechanu dono bo'lgach, Buxoroga borishga menga yo'l bo'lsin. Bu g'ij-g'ij kitob to'la javon egalari bilan muloqot qilishdan qo'rqrurman", deya orqasiga qaytib ketibdi. Shu-shu bu hudud "G'ijdevon" (G'ij-g'ij kitob to'la javon) deb atalgan ekan.

Boshqa ba'zi manbalarda G'ujdehon, ya'ni bir necha qishloqlarning majmuidan tashkil topgan joy deb keltirib o'tilgan bo'lsa, yana boshqa ayrim rivoyatlarda Kish (tojik tilida ekin ekuvchi) – tuvon (manzil) – ekin ekiladigan dehqonlar manzili ma'nolarini bildiradi [6].

So'g'd tilida esa Gej so'zi qamish ma'nosini bergan. Zarafshon daryosi yaqinidagi hudud qamishzor va butazor bo'lgan. Bu yerda yovvoyi qushlar, quyon va kiyiklar juda ham ko'p bo'lgan. Qipchoq dashti, Farg'ona, Xorazm vohasi ovchilari bu manzilga kelib, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan va shu hududga muqim o'rnatishgan[7].

O'sha davr olimlari bu hududni tabiati bilan bog'lab Gej dovon ya'ni qamishzor davoni deb ataganlar. Gejzor, Gejli Davon so'zlari yillar o'tishi bilan G'ijduvonga aylangan degan taxminlar bor. Tarixiy manbalarning yana birida keltirilishicha g'ijduvonliklar yurtimizga bostirib kirgan devsifat eron bosqinchilariga qarshi

kurashib g'olib bo'lishadi. Shuning sharafiga bu hudud shahri G'olibon deb ataladi. Keyinchalik G'olibon so'zi sekin-asta G'ijduvonga aylangan degan qarashlar ham mavjud[8]. "So'g'd-tojik lug'ati" kitobida G'ijduvonning "Qasabai mutabarakam dorulfath" ya'ni "Zafarlarga yor muqaddas shahar" degan ma'nosi bor deb ham aytiladi. Ba'zi ma'lumotlarda G'ijduvon "g'ishtli devor" so'zidan kelib chiqqan, ya'ni shahar g'ishtli devor bilan o'ralgan, shuning uchun shu nom bilan atalgan deyiladi. G'ijduvonning yana "Kush tuvon" tojik tilida "yekin ekiladigan maydon" degan ma'nolari ham bor[9]. Bu manbalardagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak G'ijduvon etimologiyasi qadimdan shakllangan. Lekin, sho'rolar davriga kelib, bu nom bir muddat yo'qqa chiqarilgan. 1926-yil 29-sentabrda G'ijduvon rayoni tashkil topgan. 1935-yildan bu shaharga Akmal Ikromov nomi berilib, "Akmalobod" deb atalgan. 1938-yil qadimiy G'ijduvon nomi yana o'z nomiga qaytarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev.Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, O'zbekiston, 2016.- 14 b.
2. Abdullanoma ("Sharafnomai Shohiy"). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzaev tarj; So'z boshi va izohlar muallifi: B. Axmedov. –T.: "Sharq", 1999-416 b.
3. Latipov E. "Ma'rifat va Maorif" 7-8-son, 1993 yil.
4. Muhammad Hoji Baqoev. "G'ijduvonnoma". –T.: Yangi asr avlodi, 2000.- 19-22 b.
5. Narshaxiy M.Buxoro tarixi//Meros. –T.1991-y. 95-101 betlar.
6. Xofis Tanish Buxoriy "Abdullanoma" ("Sharafnomai Shohiy") Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzaev tarj; –T.: "Sharq", 1999. -416 b.
7. Dala tadqiqotlari. G'ijduvon tumani. Boboxo'ja qishlog'i. 2023-yil.
8. Dala tadqiqotlari. G'ijduvon shahri. Chorsu mahallasi. 2023-yil.
9. To'raev H. Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. -276 b.



ISSIQXONA ISHCHI XODIMLARIGA QULAY ISH SHAROIT YARATISH VA ULARNING KASALLANISHLARINI OLDINI OLISH

Siroj Kuranboyev Berdiboy o'gli

Gulrux Kalandarova Davranovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Umumiy gigiyena kafedrası
assistentlari

Annotatsiya: Ushbu tezida issiqxona ishchi xodimlarga qulay ish sharoit yaratish va ularning kasalanishlarini oldini olish borasidagi nazariy-amaliy ko'rsatmalar ilmiy dalillarga va shu turdagi manbalarga suyangen holda yoritib berilgan. Buda issiqxona ishchilarining ish toifasi, havo harorati, ish vaqti va kimyoviy dorilar bilan ishlashda gigiyenik qoidalar issiqxona faoliyatida qanchalik muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Issiqxona, sharoit va muhit, ish toifasi, havo harorati, ish vaqti, kimyoviy dorilar.

Annotation: In this thesis, the theoretical and practical guidelines for creating comfortable working conditions for greenhouse workers and preventing their illnesses are explained based on scientific evidence and sources of this type. It has been explained how important the work category of greenhouse workers, air temperature, working hours and hygienic rules in working with chemicals are in greenhouse operations.

Keywords: Greenhouse, conditions and environment, work category, air temperature, working hours, chemical drugs.

Qishloq xo'jaligidan unumli foydalanish hozirda dolzarb mavzulardan biridir. Dala ekinlari keyingi paytlarda tez-tez kuzatilayotgan noqulay ob-havo sabab ko'p zarar ko'rmoqda. Bunga misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin, kutilmagan paytda, ekinlarning endi gullash mavsumida bo'ladigan sovuqlar yoki issiq haroratning keskin oshib ketishi, ochiq maydondaga dalalardagi ekinlarning turli zararkurandalarga qarshi kafolatlanmaganligi dehqonlarning mehnatini yo'qqa chiqarib qo'yayapti. Buning natijasida esa aholini tabiiy meva-sabzovotlar bilan ta'minlash qiyinlashmoqda. Bu esa bozorlarda narx-navoning keskin oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bir qiyin vaziyatlarda issiqxonalaridan foydalanish eng maqbul reja ekanligi anglashiladi.



Yurtboshimiz tomonidan qishloq xo'jaligi taraqqiyoti borasida ko'plagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-yilning 2-noyabrida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev issiqxona xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi. Bu haqida 5-sentabr kuni oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida ko'rsatma berilgan edi. Hozirgi kunda yurtimizda 3 mingdan ortiq issiqxona bor. Ularning jami maydoni 6 ming 300 gektardan ziyod bo'lib, shundan 4 ming 300 gektari so'nggi besh yilda tashkil etilgan. Oziq-ovqatlarning uzluksizligini va eksportini ta'minlayotgan ko'p mahsulotlar shu majmualarda yetishtirilmoqda.¹⁷

Raqamlardan ham ko'rinyaptiki, yurtimizda issiqxonalar faoliyatiga keng yo'llar ochib berilmoqda. Ularning soni ham kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga esa ishchi kuchiga bo'lgan talabni ham ko'paytirmoqda. Son jihatidan oshgan issiqxonalar ishchilarga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratib bermoqdami? Eng avvalo, issiqxona faoliyati haqida gap ketganda biz aynan shularga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Chunki mahsulotlarning sifati ishchilarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Ishchilar esa ishxona sharoitida kelib chiqib xizmat qilishadi. Ularning mehnat xavfsizligi kafolatlangan holda, tashqari va issiqxona ichkarisidagi ikki xil ob-havo muhitidagi va turli xil o'simliklar uchun tayyorlangan kimyoviy tarkibga ega dori vositalari bilan ishlashdagi gigiyenasiga katta ahamiyat qaratish kerak. Jumladan. "ishlab chiqarish muhitida iqlim sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar, havoning harorati, nisbiy namligi, havo bosimi va havoning harakat tezligidan iborat bo'lib, hammasi birgalikda kishining ish qobiliyatiga, mehnat unumdorligiga va inson organizmidagi biologik o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Inson tanasidagi doimiy mo'tadil harorat, modda almashuv jarayoni tufayli markaziy nerv a'zosining faoliyati orqali boshqarib turiladi.

Ma'lumki haroratning 18-250S, nisbiy namlikni 40-70% va bosimning 740-760mm. sm ustunida bulishi, odam tanasi va uni o'rab turgan havo o'rtasidagi harorat almashinuvi jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki bunday sharoitda muhitlar o'rtasidagi issiqlik almashinuvi mufassal va qoldiqsiz ko'chadi, ya'ni tanadan chiqayotgan issiqlik tezligi uning havoga singib ketish tezligiga teng holda almashinadi. Agar havoning holatida bunday mutanosiblik buzilsa, shu muhitda ishlayotgan odamning salomatligida ham o'zgarish paydo bo'ladi".¹⁸

Issiqxona xodimlari uchun gigiyenik qoidalarga amal qilish, rahbar tomonidan ularni xavfsizligini ta'minlash qilinish lozim bo'lgan eng zarur ishlardan biridir.

¹⁷ www.president.uz

¹⁸ O'quv qo'llanma. Ishlarning ekologik xavfsizligini nazorat qilish. Toshkent.



Chunki urug‘, ko‘chat va boshqa shu kabi o‘simliklarga ishlov berish jaryonida turli kiyoviy tarkibga ega dori vositalaridan foydalaniladi. Bu esa ishchilarning salomatligi uchun turli xavf-xatar tug‘dirishi mumkin. Jumladan, allergik ta’sir, gigiyena qoidalariga rioya qilinmasa, hatto zaharlanish holatlari ham kuztishi mumkin. Bu esa ishchilarning sog‘ligigiga katta xavf soladi.

Ishlab chiqarish mikroiqlimi me’yorlari mehnat xavfsizligi. Standartlari tizimi “Ish mintaqalari mikroiqlimi” (GOST 12.1005-76) ga asosan belgilangan. Ular gigienik, texnik va iqtisodiy negizlarga asoslangan. Ishlab chiqarish korxonalaridagi binolar, yil fasllari va ish toifalariga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan me’yorlari belgilangan.¹⁹

Bundan tashqari issiqxonada ish vaqti va bunda ishning qanday toifasi bilan shug‘llanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishchilarning foydali ish koeffitsientiga ta’sir qiluvchi eng asosiy va hamma vaqt ham dolzarb bo‘lgan muammolardan biridir. Chunki bu holat doimiy ravishda takrorlanib turuvchi omillar qatoriga kiradi. Ish toifalari quyidagicha belgilanadi:

a) Engil jismoniy ishlar (1-toifa) o‘tirib, tik turib yoki yurib bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo‘riqish yoki yuklarni ko‘tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik, aniq asbob-sozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

b) O‘rta og‘irlikdagi ishlarga (2 toifa) soatiga 150-250 kkal (172-293 J.s) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga, og‘ir bulmagan (10kg.gacha) yuklarni tashish bilan bog‘liq ishlar (yigiruv-to‘qish ishlari, mexanik-yig‘uv, payvandlash ishlari) shular jumlasidandir.

v) Og‘ir jismoniy ishlar (3 toifa) muntazam jismoniy zo‘riqish, (10 kg dan ortiq) muttasil yukni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish va ko‘tarish bilan bog‘liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250kkal (293 J.s) dan yuqori buladi. Bunday ishlarga temirchilik, quyuv korxonalari kiradi.²⁰

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, issiqxona ishchilarining sifatli ish koeffitsienti darajasi oshishi, xalqimiz dasturxoniga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishida va eng asosiysi ularning salomatligini muhofaza qilishda issiqxonada yaratilgan sharoit va muhit katta ahamiyatga ega. Xususan, issiqxonada havo harorati darajasi, kimyoviy moddalar bilan ishlashda gigiyena qoidalariga rioya qilish, ish vaqtini me’yor darajasida aniq bir xil rejada yuritilishi, ishchilarning

¹⁹ O‘quv qo‘llanma. Ishlarning ekologik xavfsizligini nazorat qilish. Toshkent.

²⁰ O‘quv qo‘llanma. Ishlarning ekologik xavfsizligini nazorat qilish. Toshkent.



xizmat toifasidan kelib chiqib yuklamalar berilishi ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'quv qo'llanma. Ishlarning ekologik xavfsizligini nazorat qilish. Toshkent.
2. www.president.uz veb sayti



CONTENTS

No	AUTHORS AND TOPICS OF THE ARTICLE	PAGES
1	Makhmuda Yusupova <i>THE PLANNING OF TEACHING IN THE CONTEXT OF LESSON STUDY</i>	3 - 9
2	Adolat Ganieva <i>SEMICONDUCTORS: TYPES, EXAMPLES, PROPERTIES, APPLICATION, USES</i>	10 - 14
3	Sevara Abdullayeva Nodirbek kizi Sevara Azimova Abdulla kizi <i>THE ROLE OF GUIDES IN CONTEMPORARY TOURISM</i>	15 - 17
4	Rahmonaliyev A. Ortiqova F.S. <i>COMPARATIVE ANALYSIS OF IMAGE COMPRESSION TECHNIQUES</i>	18 - 20
5	Gulshanoy Turg'unboyeva Ravshanbek qizi Shoxista Xidiraliyeva Solijon qizi Nozimaxon G'ofurova Ikromovna <i>MARK TVENNING "TOM SAVYERNING SARGUZASHTLARI" HAMDA XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SARIQ DEVNI MINIB" ASARI O'RTASIDAGI LINGVOMADANIY LISONIY TILNI IFODA ETILISHI</i>	21 - 24
6	G'ayrat Madaminov Madiyarovich Ibrohim Mingboyev Alisher o'g'li <i>HARBIY QISMDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR VA UNING SAMARADORLIGI</i>	25 - 29
7	Nilufar To'ychiyeva <i>QO'QON DAVLAT MUZEY - QO'RIQXONASI TARKIBIDAGI UY-MUZEYLAR FAOLIYATI</i>	30 - 35
8	Munisa Bozorova G'ayratovna <i>BADIY GIMNASTIKACHI QIZLARNI MAXSUS MASHQLAR ORQALI CHIDAMLILIK JISMONIY</i>	36 - 39



	<i>SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH</i>	
9	Sh.I. Mamatojiyev Sh. E. Yursunova <i>ORALIQ EKIN: TUPROQ UNUMDORLIGI VA</i> <i>IQTISODIY SAMARADORLIK</i>	40 - 42
10	Guljamol Xo'jayeva Norxamidovna <i>VOLEYBOLGA XOS JISMONIY SIFATLARNI</i> <i>TURDOSH XARAKATLI O'YINLAR YORDAMIDA</i> <i>RIVOJLANTIRISH</i>	43 - 46
11	Gullola Sobirova Qutbiddin qizi <i>O'ZBEK TILIDA BAXT KONSEPTINI</i> <i>IFODALOVCHI VERBAL BIRLIKLAR</i>	47 - 50
12	Shoxsanam Muratova Boltayevna <i>BADMINTON O'YINI TEXNIKASI</i>	51 - 54
13	Ma'luda Xusanova Nurdinova <i>MAGISTRLARDA ILMIY TADQIQOT</i> <i>KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI</i>	55 - 57
14	Gulchexra Esanova Boybo'riyevna <i>O'ZBEKISTONDA AYOLLAR FUTBOLI TARIXI VA</i> <i>ISTIQBOLLARI</i>	58 - 61
15	Humayra Turayeva <i>UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI</i> <i>O'QUVCHILARINING MUSIQA MADANIYATI</i> <i>DARSLARINI SIFAT SAMARADORLIGINI</i> <i>OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK</i> <i>TEXNOLOGIYALARNING O'RNI</i>	62 - 65
16	Mahliyo Yuldasheva Baxtiyorovna <i>"YOLG'IZLIK", "TANHOLIK" VA "YAKKALANISH"</i> <i>TUSHUNCHALARINING ETIMOLOGIYASI</i>	66 - 71
17	Нилуфар Шарифжанова Муратжановна <i>РАСЧЕТ ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ</i> <i>ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОЦЕССА ФЛОТАЦИИ</i> <i>ОБОГАЩЕНИЯ РУД</i>	72 - 79
18	Sarvinoz Narziyeva Jamshid qizi <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK VA HIKOYA</i>	



	<i>YOZISHGA O'RGATISH USULLARI</i>	80 - 83
19	Dostonbek Boydedayev Xusniddin o'g'li <i>AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI</i>	84 - 88
20	M.O.Baltabaeva G.A.Yuldasheva <i>XOTIN-QIZLARNING BANDLIGI YECHIMLARI VA UNDAGI IJTIMOIIY SHERIKCHILIK MEXANIZMINING ROLI</i>	89 - 94
21	O.Q.Umarov M. O.Baltabaeva <i>IQTISODIYOT - UY XO'JALIGI YURITISH SAN'ATI</i>	95 - 102
22	Makhlio Yuldasheva Khudoybergan Kholbutaev <i>THE PROBLEM OF TEENAGERS' PERSONALITY FORMATION</i>	103 - 107
23	Сарвиноз Орипова Оразали қизи <i>ЭЛЕКТРИЧЕСКИЙ ТОК В МЕТАЛЛАХ</i>	108 - 110
24	Dilorom Bakirova <i>XROMASOMA MUTATSIYALARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI</i>	111 - 117
25	Зухра Холбутаева Раимжоновна <i>ВИРУСЫ</i>	118 - 120
26	Zilolakhon Qodirova <i>DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS THROUGH VIDEO MATERIALS</i>	121 - 127
27	Shohruh Pardayev Abdihakimovich <i>MUSIQA DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH</i>	128 - 132
28	Dilnavoz Shakhobiddinova <i>PROBLEMS OF RECREATING THE UZBEK NATIONAL PSYCHE IN ENGLISH (AS EXAMPLES OF JADID LITERATURE)</i>	133 - 138
29	Dilrabo Niyozova O'tkurovna <i>PEDAGOGIK MAHORAT VA UNI EGALLASH YO'LLARI</i>	139 - 143



30	Oybek Ne'matov Erkin o'g'li <i>TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</i>	144 - 148
31	Sabohat Rajabova Vohidovna <i>ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM- TARBIYA MASALALARI</i>	149 - 152
32	Nasiba Imomova Xurramovna <i>ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING SIFATLARI</i>	153 - 157
33	Sevara Berdimurodova Etalovna <i>YOSHLARDA AXBOROT OLISH VA UNDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI TO'G'RI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK YO'LLARI</i>	158 - 161
34	Murod Eshnazarov Karimovich <i>IJTIMOIIY HODISALARNI TUSHUNTIRISHDA GERMENEVTIK YONDASHUVNING O'RNI</i>	162 - 169
35	Siroj Kuranboyev Berdiboy o'gli Gulrux Kalandarova Davranovna <i>ISSIQXONADA ISHLOVCHI ISHCHI XODIMLARGA TA'SIR QILUVCHI MIKROIQLIM OMILLARI</i>	170 - 174
36	Zulfizar Ismatova <i>G'IJDUVON SHAHRI TARIXIY - TOPONOMIKASIDAN</i>	175 - 178
37	Siroj Kuranboyev Berdiboy o'gli Gulrux Kalandarova Davranovna <i>ISSIQXONA ISHCHI XODIMLARIGA QULAY ISH SHAROIT YARATISH VA ULARNING KASALLANISHLARINI OLDINI OLISH</i>	179 - 182



ESLATMA!

"SCIENCE SHINE" xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma'lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to'g'riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!

The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Volume 3. Issue 1.
30. 04. 2023

©Jurnal hajmi: 187 bet.

©Farg'ona viloyati, O'zbekiston Respublikasi

©<http://science-shine.uz/>